M.F. HAKIMOVA,
G.T. YULCHIYEVA

ZAMONAVIY IQTISODCHINING SHAXSI



TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

M.F.HAKIMOVA, G.T.YULCHIYEVA

ZAMONAVIY IQTISODCHINING SHAXSI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2014

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiy taraqqiyotda ishlab chiqarish sur'atlarini pasayishi bartaraf etilib, iqtisodiy o'sish ta'minlanadigan marralarga yetib kelindi. Bu respublikamiz milliy iqtisodiyoti uchun muhim ijobiy amaliy natijadir.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishga erishish respublika aholisi farovonligini ta'minlashning eng muhim sharti sifatida ajratib ko'rsatiladi. Zero, iqtisodiy yuksalish mamlakat uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini oshishiga, ijtimoiy-madaniy soha salohiyati taraqqiyotiga xizmat qiladi. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish, iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim.[1]

O'z rivojlanish modelimizga asosan mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, huquqiy demokratik davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarimiz yo'nalishi hozirda butun dunyo jamoatchiligi tomonidan yuksak baholanmoqda. Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo, bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turganini kuzatish qiyin emas.

Endilikda bozor munosabatlari va fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq ravishda iqtisodiy resurslardan tejab-tergab samarali foydalanish, yuqori unumdorlikka ega texnika-texnologiyalarni qo'llash, ishchi-xodimlarning bilim, kasb mahoratini oshirishga erishish orqali iqtisodiy o'sishning samaradorligini ta'minlash dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

[1] Karimov I. A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Halq so'zi, №14 (5434) 20-yanvar 2012-yil

SAMARQAND IQTISODIYOT
ARHIVOT PVRLIK MAKTABI
№ 47457

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik sohasi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarga nisbatan talab ortib bormoqda.

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining asosiy maqsadi – iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlash, talabalarda iqtisodchi-pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy va axloqiy xususiyatlarni tarbiyalashdan iborat.

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fani quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi: tadbirkorlik va uning faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchlar to'g'risida talabalarda tushuncha hosil qilish; zamonaviy iqtisodchining axloqi, madaniyati, ma'naviyati va bugungi kundagi nufuzi to'g'risida yaxlit tasavvurni shakllantirish; o'z faoliyatida axloqiy qoidalarga amal qiluvchi mutaxassislarni yetishtirish.

Shuningdek, bo'lajak mutaxassis kadrlar «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradilar hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadilar. Ushbu o'quv qo'llanmada tadbirkorlik va kichik biznesning mohiyati, tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy asoslari, zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili, zamonaviy iqtisodchining kasbiy va axloqiy xususiyatlari, iqtisodchining ma'naviyati, etikasi, kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» o'quv qo'llanmasini tayyorlashda S.S.G'ulomovning «Tadbirkorlik va kichik biznes» o'quv qo'llanmasi, Yo.Abdullayev, F.Karimovlarning «Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari» o'quv qo'llanmasi, F.Otaxonov, U.Ernazarovlarning «Xususiy tadbirkorlik» o'quv qo'llanmasi, P. Nosirov, Sh.Abdullayevalarning «Bozor iqtisodiyoti asoslari» o'quv qo'llanmasi, L.V.Peregudov, M.X.Saidovlarning «Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti» o'quv qo'llanmasi, D.Tojiboyevaning «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasi, A.Q.Minavvarovning «Pedagogika» o'quv qo'llanmasi, I.Y.Tursunov, U.N.Nishonaliyevlarning «Pedagogika kursi» darsligi, N.Xo'jayev, J.Hasanboyevlarning «Iqtisodiy pedagogika» o'quv qo'llanmasi, I.Inomovning «Iqtisodiy tarbiya nazariyasi» o'quv qo'llanmasidan keng foydalanildi.

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanini o'rganish davomida talabalar zamonaviy ta'lim texnologiyasi, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy o'yinlar, o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot topshiriqlarini

bajaradilar. Jumladan, «Aqliy hujum», «Klaster», «Veer texnologiyasi», «Nima uchun», «Insert», «Bumerang texnologiyasi», «Iqtisodchi texnologiyasi», FSMU kabi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya'ni insonning rivojlanish darajasi va texnikaning rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarning uyg'un birlashishini ta'minlash kerak. Mana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, pedagogik texnologiyalarning mazmuni bugungi kunda keng ko'lamda qaraladigan bo'lsa, individuallashtirilishi, rivojlantirishga yo'naltirilishi darkor.

Mazkur o'quv qo'llanma bu sohadagi dastlabki intilishlar natijasi o'laroq yuzaga kelganligi tufayli, unda ayrim kamchilik va me'yoriga yetmagan o'rinlarning bo'lishi tabiiy hol. Mualliflar bildirilgan barcha tanqidiy fikr-mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

I bob. «ZAMONAVIY IQTISODCHINING SHAXSI» FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va zamonaviy kadrlarga qo'yilgan talablar.

1.2. «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining predmeti.

1.3.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining fan sifatida shakllanishi.

1.4.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining maqsad va vazifalari.

1.1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va zamonaviy kadrlarga qo'yilgan talablar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik sohasi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarga talab yanada oshmoqda. Bu respublikadagi Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining oldiga ham bir qator vazifalar qo'yadi. Ulardan biri ***zamonaviy*** *malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash,* ***xodimlar*** ***malakasini*** *oshirish, ularni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va* ***huquqiy bilimlar*** *bilan qurollantirishdir. Bu yo'nalishda zarur bo'lgan* ***moddiy-texnika bazasi*** *respublikada bozor munosabatlariga o'tish bilan* ***bir qatorda yaratilib,*** *rivojlantirilib borilmoqda.*

*«****Kadrlar tayyorlash*** *Milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – yuqori* ***malakali raqobatbardosh*** *kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo* ***etish strategiyasi hamda*** *asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari:* ***shaxs, davlat va jamiyat,*** *uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish* ***vazifalarini hisobga olgan*** *holda ishlab chiqishdan iboratdir.*

Iqtisodchi-pedagog *yangi turdagi mutaxassis bo'lganligi uchun uni* ***kasbiy va pedagogik*** *jihatdan tayyorlash eng murakkab muammodir. Bu muammoni hal qilishda zamonaviy iqtisodchi-pedagog eng avvalo psixologiya, pedagogika va iqtisodiyot fanlaridan ilmiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.*

Respublikamizda demokratik va bozor islohotlari talablaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson

faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan maxsus milliy dastur ishlab chiqilganligi alohida e'tiborga sazovordir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizning har jihatdan rivojlanishi va mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishi samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat o'zining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor jihatlari bilan mamlakatimizda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish, uni jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda tejamkorlik va raqobatbardoshlik tamoyillariga tayangan holda, qayta takomillashtirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini chuqur integratsiyalashuv asosida rivojlantirish kabilar uchun yetarlicha imkon yaratmoqda.

Biroq mamlakatda zamonaviy sharoitlarda samarali faoliyat ko'rsata oladigan hamda tadbirkorlik va biznes bilan har qanday iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta oladigan mutaxassislarning yetarli darajada emasligi iqtisodiy rivojlanish modelini samarali amal qilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini yangi tamoyillar asosida rivojlantirishni nihoyatda dolzarbligidan dalolat bermoqda.[1]

Tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish orqali respublika iqtisodiyotida sof raqobat muhitini tarkib toptirish mumkin. Chunki kichik biznes korxonalarining monopol birlashmalariga bevosita aloqasi bo'lmaydi, o'zlari mustaqil faoliyat yurgizib, qonun doirasida harakat qiladilar. Tadbirkorlik va biznesning yana bir jihati shundaki, uning tashkiliy tuzilmasi sodda, oddiy va moslashuvchan bo'ladi, ya'ni yangi tovar turlarini ishlab chiqarishga tez moslashadi, shuning uchun vaqtdan ham yutadi.

Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– o'rta sinfning vujudga keltirilishi jamiyatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni kafolatlovchi bo'ladi;

– turli ijtimoiy guruhlar, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar daromadlarining nomutanosibligining silliqlab turuvchi hisoblanadi;

– iqtisodiy faol, aqliy va jismoniy qobiliyatli shaxslarda ko'nikma hosil qilib, jamiyat taraqqiyotiga asos yaratadi;

– kam mablag' sarflab ko'plab ishchi o'rinlari yaratadi;

---

[1] G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: «Sharq», 2002-yil.

– zamonaviy texnologiya, texnikani va xo'jalikning tashkiliy yo'nalishlarini ishlab chiqishda va joriy etishda tez harakat qiladi va h.k.

1.2. «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining predmeti

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, balki ularni o'qitadigan iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashni ham talab qiladi.

***«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining predmeti** –iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini yangi tamoyillar asosida rivojlantirishdan iborat.*

1.3. «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining fan sifatida shakllanishi

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» faniga doir bir qator adabiyotlarni o'rganib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilib, ko'pgina o'quv adabiyotlarini o'rganib chiqqanimizda, hozirgi paytdagi iqtisodiyo timizdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilmiy jihatdan, respublikamizda tadbirkorlik va biznesni tashkil etish to'laligicha tadqiq etilmaganligining guvohi bo'ldik, Yana shuni alohida aytish lozimki, biz o'rgangan adabiyot va ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'lishicha, zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar hamda tadbirkorlik va biznesni tashkil etish uslubiyoti bo'yicha aniq yechim berilmagan.

Bugungi kundagi iqtisodiyot fanining rivojlanishi uchun ko'plab iqtisodchi olimlar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Biz fanni o'rganish jarayonida respublikamizda tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan dissertatsiyalar, adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, risolalar yaratilganligiga ishonch hosil qildik.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha fikrlarga tayanib, tadbirkorlik va kichik biznes, iqtisodiyot sohasida yaratilgan ilmiy izlanish va

adabiyotlarning mualliflari jumlasiga Sh.Shodmonov, R.Alimovlar tomonidan «Iqtisodiyot nazariyasi», S.S.G'ulomovning «Kichik biznes va tadbirkorlik», A.O'lmasov, M.Sharifxo'jayevlarning «Iqtisodiyot nazariyasi», A.O'lmasovning «Iqtisodiyot asoslari», I.Inomovning «Iqtisodiyot nazariyasi», B.Ibratovning «Tadbirkorlik huquqi», E.Egamberdiyev, H.Xo'jamqulovlarning «Kichik biznes va tadbirkorlik», D.Tojiboyevaning «Iqtisodiyot nazariyasi» va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, bir qator olimlar ham iqtisodiy ta'limni rivojlantirish, tadbirkorlik va biznes bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatning iqtisodchi kadrlarga, ularni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy talablari bilan mutaxassis sifatida o'z vazifalarini yuqori darajada bajarishga amaliy tayyorgarligi o'rtasida va iqtisodiy ta'limni rivojlantirish hamda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda ba'zi bir nomutanosibliklar mavjud. Mavjud adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili ko'rsatishicha, bu nomutanosibliklar quyidagilarda ko'rinadi:

– iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ortib borayotgan talablarga mos o'quv jarayonining yetarlicha metodik ta'minlanmaganligi hamda moddiy-texnikaviy bazaning yetarli darajada emasligi;

– O'zbekistonda hali huquqiy madaniyat va barcha jamiyat a'zolarning qonunga amal qilish mexanizmi ishlab chiqilmagani;

– kichik biznes egalarining davlat joylarini ijaraga olishda, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashdagi manfaatlarining ko'pchilik hollarda kamsitilishi;

– tadbirkorlar uchun foydasi bo'lmagan shartnomalar tuzishga majburlash;

– kichik biznes egalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda sudlar rolining pastligi;

– tadbirkorlarning o'z haq-huquqlarini yaxshi bilmasliklari;

– biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarda shu sohadagi bilimlarning yetishmasligi;

– oliy o'quv yurtlarida tadbirkorlik va biznes bilan shug'ulanuvchi mutaxassislarni tayyorlash tizimining obyektiv ehtiyojlari va ularni qanoatlantirish o'rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi.

1.4.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining maqsad va vazifalari

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– tadbirkorlik va uning faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;

– iqtisodchida iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi va boshqaruvchi sifatida baho bera olishni tarbiyalash;

– zamonaviy iqtisodchining axloqi, madaniyati, ma'naviyati va bugungi kundagi nufuzi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fani bu yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida yuzaga keldi. U fan sifatida iqtisodiyot qonuniyatlarini pedagogik metodlar orqali o'rganadi. Shularni hisobga olgan holda, ushbu kursda asosiy e'tibor mustaqillik yillarida iqtisodiy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning kasbiy hamda axloqiy xususiyatlari, zamonaviy iqtisodchining ma'naviyati, bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va milliy ongni tarbiyalash hamda iqtisodiy ta'limni boshqarish masalalariga qaratilgan.

Qisqa xulosa

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining muhim sharti sifatida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish muammosi ilgari surildi. Milliy meros va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida erishilgan yutuqlarni ta'lim tizimiga tatbiq etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da alohida qayd etib o'tilgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu bobda «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining maqsadi, vazifalari va bugungi kunda fanlar tizimida tutgan o'rni xususida fikr yuritiladi

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi fani nimani o'rganadi?

2. Fanning maqsad va vazifalarini ko'rsating?

3. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi qaysi fanlar bilan uzviy aloqada?

4. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy maqsadi nimadan iborat?

5. Ta'lim jarayonining obyektiv va subyektiv jihatlarini ko'rsating?

6. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatilgan ta'lim tizimidagi asosiy kamchiliklar haqida qanday fikrdasiz?

7. Raqobatbardosh kadrlar deganda nimani tushunasiz?

8. Tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishda qanday omillar ta'sir qilmoqda?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. D.Tojiboyeva Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.:Fan va texnologiya, 2007.

2. Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. N.Xo'jayev, J.Hasanboyev Iqtisodiy pedagogika (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2002.

4. Yo.Abdullayev, F.Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

II bob. TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING MOHIYATI

2.1. Tadbirkorlik va kichik biznes to‘g‘risida tushuncha.
2.2.Tadbirkorlik va biznes tarixi.
2.3.Ma’naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rni.
2.4.Kichik biznesda tadbirkorlik taraqqiyotining sabablari.
2.5.Kichik biznesda tadbirkorlik turlari, shakllari.

2.1. Tadbirkorlik va kichik biznes to‘g‘risida tushuncha

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va Respublika Oliy Majlisi sessiyalarida qabul qilingan hujjatlarda O‘zbekistonda kichik biznes sohasidagi tadbirkorlik va ishbilarmonlikni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga har tomonlama madad, ko‘mak berish, ularning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ular yordamida mamlakat iste’mol bozorini yuqori sifatli tovarlar bilan to‘ldirish masalalari muhim o‘rin olgan. O‘zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonunga asosan, tadbirkorlikning faoliyat sohalari, huquqlari, majburiyatlari, mas’uliyatlari va manfaatlarini himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlarining xo‘jalik faoliyatida «tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Rus adabiy tili lug‘atida «biznesmen» go‘yoki tadbirkor, ishchan deb bilinsa, «biznes» esa – faoliyat, foyda keltiruvchi mashg‘ulot deb tushuniladi. «Tadbirkor» va «biznesmen» kabi tushunchalar bilan ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug‘ullanuvchi va ma’lum miqdorda daromad olish niyatidagi inson ifodalanadi.

Bugungi kunda respublikamizda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar iqtisodiyotni yanada samaraliroq yuritishga, ishlab chiqarishni markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o‘tkazishga qat’iy bel bog‘laganligini bildiradi. Bu xususida hukumatimizning biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘yayotgan qadamlari ham bundan dalolat berib turibdi. «Kichik biznes, - deb

ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov[1] «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida, – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfini paydo bo'lishi demakdir. Bu respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan boyitishdir. Faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni hamma joyda keng rivojlantirish hisobigagina g'oyat keskin muammoni – aholining ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz».

Bozor iqtisodiga asoslangan davlat va jamiyat barpo etishga kirishgan bizning mamlakatimizda tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish shartlaridan biri sifatida fuqarolar birinchi navbatda tadbirkorlik va kichik biznesga oid munosabatlarda ishtirok etuvchi kishilar iqtisodiy tafakkurini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, o'zini huquqiy jihatdan himoya qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash vazifalari ilgari surilgan.

Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka, sohibkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun iqtisodiyotda bozor munosabatlari hukmron bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun iqtisodiy faoliyatda erkinlik taqozo etiladi. Erkinlik bor joyda o'z ishiga ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik rivoj topadi.

«Tadbirkorlik» qonuniga asosan tadbirkorlik – fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Demak, tadbirkor to'la yoki qisman moddiy yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini tashkil qilishi uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan firma (tashkilot, korxona) davlatimizdagi taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi.[1]

Vatanimiz va xorijiy davlat olimlari bozor iqtisodi jarayonini tadqiq qilar ekan, tadbirkorlik va biznesni iqtisodiy faoliyatning bir turi deb qarab, bu tushunchalar xususiy shaxslar, korxona, tashkilotlar tomonidan

---

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI achr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997

[1] G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes «Sharq», 2002, 8-bet.

daromad olish maqsadida o'zining va shartnomadagi sheriklarining manfaatlarini ko'zlab, ishlab chiqarish, tovar sotib olish va sotish deb hisoblaydilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida tadbirkor va tadbirkorlik tushunchalari quyidagicha talqin etilgan.

Tadbirkor – bu tadbir bilan, puxta o'ylab ish qiladigan kishi. Tadbir deganda biror ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi tushuniladi.

Tadbirkorlik – bu puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar asosida ish tutmoq demakdir.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida» gi Qonunida bu tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Tadbirkor – yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan doimiy asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs. Yakka tartibdagi tadbirkor – yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs.

Tadbirkorlik – qonun hujjatlariga muvofiq daromad olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat.

2.2. Tadbirkorlik va biznes tarixi

Iqtisodiyot olamiga «tadbirkor» tushunchasi XVIII asrda kirib kelgan va dastlab ko'p ma'noga ega bo'lgan. A.Smitning fikricha, tadbirkor bu qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish va foyda olish maqsadida iqtisodiy tavakkaldir. Uning o'zi ishlab chiqarishni rejalashtiradi, tashkil qiladi va natijalarni tasarruf etadi.

J.B.Seyning fikricha, tadbirkor bu biror maqsadni ko'zlab ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtiradigan iqtisodiy agentdir. Avstriya maktabining qarashlaricha, tadbirkor bu o'ziga xos sotsial-ruhiy toifadagi xo'jalik yurituvchidir. Uning uchun turli-tuman bozor imkoniyatlarini tahlil qilish va foydalanish, yangi g'oyalarni safarbar qilish muhimdir.

Dastlabki bosqichlarda tadbirkorlikning eng muhim alomati biron bir shaxs-tadbirkor faoliyatining foydali yoki zararligini belgilovchi noaniqlik omili hisoblangan. Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi

turli bozorlarda talab bilan taklif o'rtasida muvozanat o'rnatishga doir tavakkalchilik faoliyatidan iborat, deb tan olingan.

Keyinchalik «sarmoya egasi» va «tadbirkor» tushunchalari bir-biridan farqlana boshlaydi. Tadbirkor sarmoyaning muomalada kirishini, ko'payib borishini ta'minlaydi va bu borada u venchur sarmoyadir, ya'ni jalb qilingan moliyaviy mablag'larni ustalik bilan tasarruf etuvchi shaxs sifatida ishni yuritib yuborishga o'z g'oyalari, bilimi va ko'nikmalarini tatbiq qilib, ko'p foyda olish maqsadida o'sha mablag'larni tavakkalli ishlarga sarflaydi.

Neoklassik maktab namoyondalari o'z asarlarida o'ziga xos tavakkalchilik asosida raqobatlashib, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona egasini tadbirkor deb hisoblay boshladilar.

O'zbekistonda kichik biznes taraqqiyoti bir necha tarixiy davrlarga bo'linadi:

Birinchi davr

Buni mutaxassislar «Vujudga kelish davri» deb ataydilar. XIX asrning uchinchi choragidan to 1917-yilga qadar iqtisodiyotda xususiy bo'limning rivojlanish pallasidir. Shu vaqtda O'zbekistonda sarmoyadorlik tizimi shakllanib kelayotgan edi.

Ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Oktabr inqilobidan avval, O'zbekiston hududida 50 ming hunarmand va kosiblar ishlab turgan. Ularda esa qariyb 110 ming kishi sanoat mehnati bilan band bo'lgan.

Ikkinchi davr

Bu davr «Stagnatsiya», ya'ni «Harakatsizlik» deb ataladi. Mana shu ikkinchi davr yetmish yillik vaqtni 1918–1985-yillarni qamrab oladi va kichik biznes uchun aks ettiruvchi zamon hisoblanadi. Bu vaqtda tadbirkorlik ma'muriy ravishda bostirilardi. 1926-yili umumiy aholi orasida yakka dehqonlar va birlashmagan hunarmandlar 80,2 foizni, ishchi va xizmatchilar esa 19,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, unda jamoatlashtirish va sanoatlashtirish tugashi bilanoq manzara keskin ravishda o'zgardi. 1939-yil o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, jamoa xo'jaligi dehqonlari va birlashgan hunarmandlarning soni 64 foizga, ishchi va xizmatchilarniki esa, 32,2 foizga teng bo'lgan.

60-yillar boshida sobiq ittifoq kompartiyasi dasturi qabul qilinganidan so'ng, bu jabhaga keskin ravishda salbiy munosabatda bo'lindi. Oqibatda O'zbekistonda hunarmand va kosiblik ishlab

chiqarishlarida band bo'lganlar soni xalq xo'jaligida ishlaydiganlarning umumiy sonining 0,1 foiziga ham yetmasdi.

Uchinchi davr

Bu davr «Jonlanish» davri deb atalib, amalda sotsialistik iqtisodni isloh qilishdan boshlanib, to SSSRning parchalanib ketishiga qadar davom etdi (1985–1991-yillar). Bu esa, o'z navbatida, kichik biznesning noqonuniy negizdan chiqishiga turtki berdi va uni ijobiy tarzda jadallashtirdi.

To'rtinchi davr

Bu davr «Tiklanish» deb atalib, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan vaqtdan boshlanadi. Qisqa vaqt ichida kichik va o'rtacha korxonalar rivojlanishini boshqaruvchi va rag'batlantiruvchi asosiy me'yoriy va huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Natijada 1994-yilning oxiridayoq nodavlat bo'limi mamlakat sof moddiy mahsulotining 53 foizini ishlab chiqarardi.

Nodavlat bo'limida hammasi bo'lib, 4,8 million kishi ishlar edi. Bugungi kunda O'zbekistonda kichik va o'rta biznes iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy tizimini tashkil etadi. Hukumatimiz barcha darajalarda kichik va o'rta korxonalarning unumli ishlashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga intilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda 180 mingdan ortiq korxona mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda. Jismoniy shaxs sifatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 300 mingdan oshdi. Dehqon, oilaviy xo'jaliklarning soni esa 3 milliondan ko'proq, shuningdek, 24 mingta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

2.3. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni

Mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov 2011-yilni mamlakatimizda «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qildilar. «Tadbirkorlik haqida gapirganda, biz avvalambor, - degan edi yurtboshimiz I.A.Karimov, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda, xususiy tadbirkorlikni o'zimizga tasavvur qilamiz. Aytish kerakki, yurtimiz tarixida tadbirkorlik qadim zamonlardan buyon alohida o'rin

tutib keladi. Ota-bobolarimizning o'z yeri, o'z mulki, o'z kasbu hunariga ega bo'lish, omilkorlik bilan ish yuritish, tadbirkor va ishbilarmon insonlarni qadrlash borasidagi an'analari haqida ko'p gapirish mumkin.

Men bu o'rinda Sohibqiron Amir Temur bobomizning barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan «Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir», deb aytgan chuqur ma'noli so'zlarini yana bir bor eslatmoqchiman.

Albatta, ilgarigi zamonlarda tadbirkorlik, balki boshqacha nomlar bilan atalgan bo'lishi mumkin. Ammo qanday nom bilan atalmasin – uning otini savdogar yoki do'kondor deydimi, hunarmand yoki kasanachi deydimi, katta-kichik korxona egasi deydimi, bundan qat'i nazar, ajdodlarimiz aynan shu soha hisobidan ro'zg'or tebratib, o'z oilasini, el-yurt manfaatini ta'minlab kelgan. Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xalqimizning, millatimizning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan noyob va ezgu fazilat, desak, mubolag'a bo'lmaydi».

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiy taraqqiyotda ishlab chiqarish sur'atlarini pasayishi bartaraf etilib, iqtisodiy o'sish ta'minlanadigan marralarga yetib kelindi. Bu respublikamiz milliy iqtisodiyoti uchun muhim ijobiy amaliy natijadir.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishga erishish respublika aholisi farovonligini ta'minlashning eng muhim sharti sifatida ajratib ko'rsatiladi. Zero, iqtisodiy yuksalish mamlakat uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini oshishiga, ijtimoiy-madaniy soha salohiyati taraqqiyotiga xizmat qiladi. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish, iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim.

Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turganini kuzatish qiyin emas.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
KUTUBXONASI
4745/

Endilikda bozor munosabatlari va fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq ravishda iqtisodiy resurslardan tejab-tergab samarali foydalanish, yuqori unumdorlikka ega texnika-texnologiyalarni qo'llash, ishchi-xodimlarni bilim, kasb mahoratini oshirishga erishish orqali iqtisodiy o'sishning samaradorligini ta'minlash dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirila borishi tufayli tadbirkorlikni rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Bozor iqtisodiga asoslangan davlat va jamiyat barpo etishga kirishgan bizning mamlakatimizda tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish shartlaridan biri sifatida fuqarolar birinchi navbatda tadbirkorlik va kichik biznesga oid munosabatlarda ishtirok etuvchi kishilar iqtisodiy tafakkurini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, o'zini huquqiy jihatdan himoya qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash vazifalari ilgari surilgan.

Hozirgi paytda mamlakatimizdagi ijtimoiy faol aholining 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band bo'lib, bu sohani yanada rivojlantirish iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini ta'minlashiga olib keladi. Bu haqida mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov «O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir» nomli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: « ...oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz egallayotgan eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarni amalda joriy etishi uchun ularni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalasiga prinsipial ahamiyat berilishi hamda bu vazifa dasturda o'zining munosib o'rnini topishi darkor» deya ta'kidlab va to'xtalib o'tdilar, 2010-yilni «Barkamol avlod yili» deb e'lon qildilar.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'li bilan zamonaviy, diversifikatsiyalangan va kuchli raqobatga bardosh beradigan iqtisodiyotni shakllantirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlari saqlanishini ta'minlamoqda.

2.4. Kichik biznesda tadbirkorlik taraqqiyotining sabablari

Kichik ishlab chiqarishda xususiy biznes boshchilik qilishi zarur. Shu bilan birga xususiy ishni tashkil qilish, uni rivojlantirish, taraqqiyot ettirish juda murakkab jarayon. Shunga qaramasdan, faqat keyingi yillar mobaynida, dunyo bo'yicha millionlab yangi korxonalar bunyod etildi.

Tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlarining bozor munosabatlariga o'tishi va iste'mol bozorining yaratilishi.
2. Tadbirkorlarning mulki, huquqi va iqtisodiy manfaatlarining himoyalanishiga huquqiy va davlat tarkibidagi idoralar kafolatining mavjudligi.
3. Ishbilarmonlikning davlat tomonidan soliq, moliyaviy kredit va amortizatsiya siyosati orqali munosib qo'llab-quvvatlanishi.
4. Davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va kichik firmalarni bunyod etish.
5. Davlatning ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror holati.
6. Jamiyatning tadbirkorlik to'g'risidagi ijobiy muruvvatli fikri.
7. Bozor iqtisodiyoti infrastrukturasining tezkorlik bilan taraqqiy topishi.

2.5. Kichik biznesda tadbirkorlik turlari va shakllari

Mustaqil O'zbekistonimizda hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu o'zining ijobiy samarasini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizning har jihatdan rivojlanishi va mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishi samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat o'zining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor jihatlari bilan mamlakatimizda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish, uni jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda tejamkorlik va raqobatbardoshlik tamoyillariga tayangan holda qayta takomillashtirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini chuqur integratsiyalashuv asosida rivojlantirish kabilar uchun yetarlicha imkoniyat yaratmoqda.

Biroq bugungi kunga kelib, mamlakatda zamonaviy sharoitlarda samarali faoliyat ko'rsata oladigan hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan har qanday iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta oladigan iqtisodchi mutaxassislarning yetarli darajada emasligi iqtisodiy rivojlanish modelini samarali amal qilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa, iqtisodchi-mutaxassislar tayyorlash tizimini yangi tamoyillar asosida rivojlantirishni nihoyatda dolzarbligidan dalolat bermoqda.[1]

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali respublika iqtisodiyotida sof raqobat muhitini tarkib toptirish mumkin. Chunki kichik biznes korxonalarining monopol birlashmalariga bevosita aloqasi bo'lmaydi, o'zlari mustaqil faoliyat yurgizib, qonun doirasida harakat qiladilar. Tadbirkorlik va biznesning yana bir jihati shundaki, uning tashkiliy tuzilmasi sodda, oddiy va moslashuvchan bo'ladi, ya'ni yangi tovarlar turlarini ishlab chiqarishga tez moslashadi, shuning uchun vaqtdan ham yutadi[2].

Kichik biznesda quyidagi tadbirkorlik shakllari mavjud:

– faoliyat yo'nalishi bo'yicha: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik faoliyati;

– tadbirkorlikning qanday vazifani bajarishga yo'naltirilganligiga qarab: ishlab chiqarishni boshqarish, moliyalashtirish, vositachilik va maslahatchilikka qaratilgan tadbirkorlik;

– faoliyat turlarining soni bo'yicha: bitta sohadagi va ko'p tarmoqli tadbirkorlik;

– faoliyat murakkabligi bo'yicha: maxsus bilim talab qilmaydigan, maxsus bilim talab qiladigan, yuqori texnologiyaga va nodir bilimga asoslangan tadbirkorlik;

– faoliyatning tarmoq yo'nalishlari bo'yicha: sanoat, agrosanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi tadbirkorlik.

Tadbirkorlikning subyektlari jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar deb, o'ziga tegishli alohida mulkka ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarni va majburiyatlarni ololadigan, sudda, arbitrajda va hakamlik sudida da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlarga aytiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining quyidagi shakllari mavjud:

---

[1] G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: «Sharq», 2002-yil.

[2] E.Egamberdiyev., H.Xo'jaqulov. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: «Ma'naviyat», 2003-yil.

– xususiy tadbirkorlik jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalda o'zining shaxsiy mulki asosida tashkil qilinadi;

– jamoa tadbirkorligi – fuqarolar guruhining jamlanma mulki asosida tashkil qilinadi;

– aralash tadbirkorlik – bitta yuridik shaxs va bir necha jismoniy shaxslar mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadi;

– shartnomaviy tadbirkorlik – mulk egasi bo'lmagan korxona rahbari tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi;

– korxona rahbari xuddi ishbilarmon fuqaroga mos tartibda ro'yxatga olinadi va u kabi mas'uliyatga ega bo'ladi.

O'zlarining mulk shakllari asosida kichik biznesda quyidagi korxonalar ishtirok etishi mumkin, bularga xususiy, jamoa, aralash va boshqa korxonalar kiradi.

Qisqa xulosa

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday davlatni kichik biznes va tadbirkorliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U tufayli erishilgan muvaffaqiyatlar har qanday mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ayni o'tish davrida zarur. Shuning uchun qator davlatlar o'zining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yuksalishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus yo'naltirilgan qonunlar qabul qilishgan.

Ushbu bobda tadbirkorlik va kichik biznes to'g'risida, tadbirkorlik va biznesning tarixi, Rossiyada va O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishi, uning qiyosiy tahlili, bugungi kunda tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni, kichik biznesda tadbirkorlik taraqqiyotining sabablari, tadbirkorlikning asosiy turlari, shakllari xususida atroflicha fikr yuritilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Tadbirkorlik va kichik biznes to'g'risida tushuncha bering.
2. O'zbekistondagi tadbirkorlik tarixi haqida gapiring.
3. Kichik biznesda tadbirkorlik taraqqiyotining sabablarini ko'rsating.
4. Kichik biznesda tadbirkorlik turlari va shakllariga nimalar kiradi?

5. Iqtisodiyotni erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Tadbirkorlik omillariga nimalar kiradi?
7. Nima uchun tadbirkorlik subyekti va obyekti tadbirkorlik faoliyatida bosh omillardan hisoblanadi?
8. MDHdagi tadbirkorlik tarixini gapiring?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. Yo.Abdullayev, F.Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

4. D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: Moliya, 2003.

5. E.Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

III bob. TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARI

3.1. Korxona (firma) tadbirkorlikning boshlang'ich bo'g'ini.
3.2. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlikning huquq va majburiyatlari.
3.3. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3.4. Yakka va xususiy tadbirkorlik.
3.5. Jamoa tartibidagi va aralash tadbirkorlik.

3.1. Korxona (firma) tadbirkorlikning boshlang'ich bo'g'ini

O'zbekiston Respublikasida islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirila borishi tufayli kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Yurtimizning iqtisodiy o'sishida ulkan salohiyat mavjudki, buning uchun ana shu kichik soha ham gurkirab rivojlanishi zarur.

Bugungi kunda respublikamizda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar iqtisodiyotni yanada samaraliroq yuritishga, ishlab chiqarishni markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o'tkazishga qat'iy bel bog'laganligini bildiradi. Bu xususida hukumatimizning biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish bo'yicha qo'yayotgan qadamlari ham dalolat berib turibdi. «Kichik biznes, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov[1] «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida, - jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfini paydo bo'lishi demakdir. Bu respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan boyitishdir. Faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni hamma joyda keng rivojlantirish hisobigagina g'oyat keskin muammoni – aholining ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz».

O'zbekiston Respublikasi «Korxonalar to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga binoan korxona – bu:

– yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan;

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997

– mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida:

a) mahsulot ishlab chiqaradigan;

b) mahsulotni sotadigan yoki ayirboshlaydigan;

d) ishlarni bajaradigan;

– bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Shu qonunning 2-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik shirkatlari ham korxona deb yuritiladi. Tadbirkorlik korxonadan boshlanadi. Korxona nima bilan shug'ullanmasin, qanday mulk shakliga ega bo'lmasin, baribir bozor uchun ishlaydi, unga tovarlar va xizmatlar yetkazib beradi, uning tirikchiligi ham bozor bilan o'tadi. Shuning uchun u bozorda ham sotuvchi, ham xaridor sifatida qatnashadi.

Korxona har qanday ishlab chiqarishning birlamchi, asosiy bo'g'inidir. Ishlab chiqarish omillari korxonada birikib, bu yerda mehnat jarayoni yuz beradi, jamiyatning talab ehtiyojini qondirishga qaratilgan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar yaratiladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida korxona o'z o'rniga ega, ma'lum sohada ixtisoslashgan bo'ladi va shunga ko'ra korxonada muayyan texnika, texnologiya jamlanadi. Shunga moslashgan ishchi kuchi faoliyat olib boradi, ya'ni ma'lum kasbiy malaka va mahoratga ega bo'lgan kishilar mehnat jarayoniga kirishadilar.

Firma korxonadan farqli o'laroq, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida har qanday tadbirkorlik faoliyatini anglatadi. Bunday nomni sanoat korxonasi va davolash muassasasi uchun ham, qurilish tresti va vositachilik tashkiloti uchun ham, savdo faoliyati uchun ham, xodimlar tayyorlash va malakasini oshirish, sayyohlik hamda boshqa tashkilotlar uchun ham nisbatan ishlatish mumkin.

3.2. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlikning huquq va majburiyatlari

«Tadbirkorlik to'g'risida» gi Qonunning 7-moddasiga binoan har bir fuqaro xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlar bilan teng asoslarda quyidagi huquqlarga ega:

– qonunlarda belgilangan shartlarga rioya qilgan holda korxonalar va tashkilotlarni vujudga keltirish, ta'sis etish, sotib olish va qayta tuzish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va davom ettirish;

– tadbirkor turli darajada mulkiy javobgar bo'ladigan o'z tadbirkorlik faoliyatini ta'sis etish;

– bu faoliyatni bajarish uchun boshqa yuridik shaxslar va fuqarolarning mol-mulki hamda pul mablag'larini ixtiyoriy asoslarda jalb etish;

– qonunlarga muvofiq xodimlarni mustaqil yollash va ishdan bo'shatish;

– tadbirkorlikdan qonunlarda belgilangan tartibda soliq solinadigan cheksiz miqdorda shaxsiy daromad orttirish;

– qonunlarga muvofiq ijtimoiy ta'minlash va ijtimoiy sug'urta qilish va hokazo.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishga doir tadbirkorlarga yuklanadigan majburiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Amaldagi qonunlardan hamda tuzilgan shart-sharoitlardan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni bajarish.

2. Yollanib ishlayotgan xodimlar bilan qonunlarga muvofiq mehnat shartnomalarini tuzish.

3. Ishga jalb etilgan barcha xodimlar bilan tuzilgan bitimga muvofiq, korxonaning moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, ular bilan to'liq hisob-kitob qilish.

4. Yollanib ishlayotgan xodimlarni ijtimoiy va tibbiy sug'urta qilish.

5. Qonunlarga muvofiq maxsus bilim va ko'nikma talab qilinadigan ishga faqatgina zarur tayyorgarlikka ega, kasb-kori jihatidan yaroqli va tegishli ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarnigina jalb etish.

Bulardan tashqari, tadbirkorlar zimmasiga yuklanadigan maxsus majburiyatlar ham bor. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– amaldagi yo'riqnomalarga binoan korxona foydasi evaziga atrof-muhit xavfsizligini, ishlab chiqarish sanitariya gigiyenasi va madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga amal qilish;

– mamlakat qonunlariga binoan litsenziyalanishi ko'rsatilgan faoliyat turlariga belgilangan tartibda maxsus ruxsatnoma olish;

– o'zining bank hisob varag'ini ochish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash va har tomonlama rivojlantirib borish iqtisodiyot fanini mukammal egallash, uning sir-asrorlarini puxta o'rganishni talab etmoqda. Xususan, bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi asosiy yo'llardan biri bu kichik

biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishga, uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularning hammasi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori hisoblangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni taqozo etadi. «Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi»[1], - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik omillarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda.

1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida qabul qilingan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi qonunda tadbirkor va ishbilarmonlar uchun yanada ko'proq imtiyozlar va kafolatlar berildi. Bu o'z navbatida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmini oshirishga, inflatsiya jarayonlarini sekinlashtirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlashtirishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning jarayonlarini tobora avj oldirish, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida:[2]

O'zbekiston Respublikasining Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat mulki jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi tashkil etilgan.

---

[1] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi: 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishtirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza // Xalq so'zi gazetasi. – 14.02 2009. – № 33-34 (4696-4697).

[2] E.Egamberdiyev., H.Xo'jaqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: «Ma'naviyat», 2003-yil.

O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlanishi – raqobatchilikning rivojlanishiga, iste’mol bozorini tovarlar va xizmat ishlari bilan to‘ldirish, yangi ish joylarini yaratish, ko‘plab mulk egalari va tadbirkorlarning shakllanishiga xizmat qiluvchi Respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikning qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlantirish, ayni paytda xo‘jalik aloqalarini tartibga solish, raqobatni rivojlantirish va iste’mol bozorini to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy maqsadlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, bunday davlat yordami iqtisodiy-siyosiy vazifalarni hal etishi, respublikaning barcha hududlarida siyosiy mo‘tadillikni mustahkamlashi, tadbirkorlik faoliyatiga tegishli bo‘lgan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi, unga aholining faol qismini jalb etishi, ishsizlik, inflatsiya va boshqa salbiy ijtimoiy holatlarning oldini olishi lozim. Bulardan ko‘rinadiki, tadbirkorlik va kichik biznes fanining o‘qitilishi davr taqozosi, bozor munosabatlariga o‘tishning obyektiv zaruriyatidir.

3.3. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari

Biznes ishbilarmonlik munosabati sifatida o‘z subyektlari (ishtirokchilari)ga, ya’ni yakka tartibda biznes bilan shug‘ullanuvchi kishilar, tadbirkorlar jamoasi va uyushmasi, yakka iste’molchilar birlashmalari va nihoyat, davlatning iqtisodiy idoralariga ega. O‘zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonunning «Tadbirkorlik subyektlari» deb atalgan 4-moddasida biznesning (tadbirkorlikning) subyektlari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:[1]

– xususiy tadbirkorlar;

– tadbirkorlar jamoasi va tadbirkorlik assotsiatsiyasi;

– mahsulot (xizmatlar, ishlar)ni iste’mol qiluvchi yoki ulardan foydalanuvchi alohida va ko‘pchilik (jamoa) shaklidagi iste’molchilar va shuningdek, iste’molchilar uyushmasi va assotsiatsiyalari;

– shartnoma asosida yollanib mehnat faoliyatini amalga oshiradigan xodimlar va kasaba uyushmalari;

– bitim tuzishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etuvchi davlat tuzilmalari (bu tadbirkorlarga hukumat buyurtmalarini berishda, baho belgilashda va boshqalarni bajarishda imtiyozlar hajmini, tartibini aniqlashda qo‘llaniladi).

---

[1] «O‘zbekistonda tadbirkorlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. –T.: 1991-yil 15-fevral

O‘zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi[1] Qonunining 5-moddasiga binoan tadbirkorlik shakllari quyidagilardan iborat.



1-chizma.

Biznesning maqsadi, odatda, foydani barqaror holga keltirish va uni muttasil oshirib borishdir. Tadbirkorning hamma o‘y-fikrlari, harakatlari va sarf-xarajatlari aynan foyda olishga qaratilgan bo‘ladi. Bu foyda *biznesning keyingi rivojlanishini va sotsial ehtiyojlarini qondirishga* qaratilgandir (2-chizma).



2-chizma.

Zarar ko‘rishga, yo‘qotish va umuman, iqtisodiy inqirozga qaratilgan biznes bo‘lmaydi. Ammo boshqa har qanday ishda bo‘lganidek, biznesda ham muvaffaqiyat o‘z-o‘zidan kelmaydi. Uning zaminida hamisha mashaqqatli mehnat, uddaburonlik, mohirlik, bilimdonlik va tashabbus yotadi. Shu bilan birga, bu fazilatlaru xislatlarni to‘xtovsiz kamol toptirib borish kerak bo‘ladi.

Umuman olganda, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va Respublika Oliy Majlisi sessiyalarida qabul qilingan hujjatlarda O‘zbekistonda kichik biznes sohasidagi tadbirkorlik va ishbilarmonlikni

[1] *«O‘zbekistonda tadbirkorlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. –T., 1991-yil 15-fevral.*

moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama madad, ko'mak berish, ularning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ular yordamida mamlakat iste'mol bozorini yuqori sifatli tovarlar bilan to'ldirish masalalari muhim o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonunga asosan tadbirkorlikning faoliyat sohalari, huquqlari, majburiyatlari, mas'uliyatlari va manfaatlarini himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga binoan tadbirkorlik shakllari quyidagilardan iborat:

1. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati.
2. Xususiy tadbirkorlik faoliyati.
3. Jamoa tartibidagi mehnat faoliyati.
4. Aralash tadbirkorlik.

Kelib chiqish tarziga qarab, tadbirkorlik tuzilmasini:

- davlat tasarrufidan chiqarilgan;
- xususiylashtirilgan;
- tijoratlashtirilgan;
- nodavlat mulk egalarining ulushlari hisobiga;
- fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari hisobiga yangidan tashkil qilingan turlarga ajratish mumkin.

3.4. Yakka va xususiy tadbirkorlik

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy va ekologik, siyosiy muammolarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochishdan maqsad iste'mol bozorida tovar va xizmatlar ko'p sarmoya qilmasdan, qisqa muddat ichida raqobatga chidamli mahsulot ishlab chiqarishdir. Bu esa yirik ixtisoslashtirilgan korxonalar yetkazib berolmaydigan mahsulotlar bilan aholini ta'minlashga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yangi ish o'rinlarini yaratish, yangi texnologiya asosida bozorni zarur mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlaydi hamda tovar sifatini oshiradi. Bu esa aholini ijtimoiy himoyalashda budjet xarajatlarini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 16-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni[1] respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy turtki bo‘ldi. Ammo iqtisodiyotimizning rivojlanishiga kichik biznesning ijobiy faoliyatini e’tirof etgan holda, uning ahamiyatini ortiqcha bo‘rttirish ham noto‘g‘ri. Kichik tadbirkorlik faqat muayyan doiradagina faollik ko‘rsata oladi. Shu sababli kichik tadbirkorlarni samarali rivojlantirish uchun kerakli sharoitni yaratish zarur. Yakka mehnat faoliyati tadbirkorlikni amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, uni tashkil qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Nizom»da belgilangan. Bu Nizomga muvofiq, yollanma mehnatdan foydalanmaydigan yakka tadbirkor o‘z faoliyatini yuridik shaxsni tashkil qilmay amalga oshirishga haqlidir.

Yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchilar, odatda mayda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar. Fuqarolar bunday faoliyat bilan yuridik shaxs maqomini olmasdan shug‘ullanishadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Shaxsiy tadbirkorlik.
2. Birgalikdagi tadbirkorlik.

Shaxsiy tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri ularning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalangan hollarda erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik shakllariga quyidagilar kiradi:

– er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, shu jumladan, dehqon xo‘jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dehqon xo‘jaligi;

– o‘zlariga umumiy ulushi mulk huquqida tegishli bo‘lgan umumiy mulk negizida yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshiradigan oddiy shirkat.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu yerda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘z

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, Xalq so‘zi, 2005-yil 16-iyun, 1-bet

faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar. Xususiy tadbirkorlik 2 xil ko'rinishda tashkil qilinishi mumkin:

1. Yuridik shaxsni tashkil qilgan holda xususiy tadbirkorlik faoliyati.

2. Yuridik shaxsni tashkil qilmagan holdagi xususiy tadbirkorlik faoliyati.

3.5. Jamoa tartibidagi va aralash tadbirkorlik

Jamoa tartibidagi mehnat faoliyati deganda bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil qilishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari tushuniladi.

Bunda tadbirkorlik faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma bu bozor uchun ishlovchi korxonadir. Korxona qaysi mulkka taalluqli bo'lmasin bundan qat'i nazar, ular firma, zavod, fabrika nomlari bilan yuritiladi.

Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi. Bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadi, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil bo'ladi.

Firma (korxona) turlari

- xususiy firma, shirkat firma, davlat korxonalari, aralash firmalar;
- mas'uliyati cheklangan firma, mas'uliyati cheklanmagan firma;
- aksiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar.

Qo'shma (aralash) korxonalar – xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lariga tayanadi. Aralash firmalarning milliy va xorijiy kapitalga tayangan korxonalari kengroq tarqalgan. Ularning kapitali hissadorlik qoidasiga binoan tashkil topadi. Foydasi shunga qarab taqsimlanadi.

Qo'shma korxona tuzishga hamkorlarni nima majbur qiladi? Amerikalik olimlar quyidagi omillarni keltiradilar:

- kapital xarajatlar hajmining qisqarib ketishi va yangi quvvatlarni barpo etishdagi xavotirlik;
- aniq jug'rofik bozorga kirish;
- yangi faoliyat sohasiga o'tish;
- ishlab chiqarish sohasining bazasi yoki ashyo manbasini qo'lga kiritish;
- ishlayotgan ishlab chiqarish liniyalarining kengayganligi;

➢ tovar yoki xizmatlarni sotishning yangi tarmoqlari paydo bo'layotganligi;

➢ mavjud marketing samaradorligining oshganligi;

➢ qo'shma korxonadagi hamkorlar yordamida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati.

Qo'shma korxonalar o'zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va boshqa vazifalarni yechishga qaratilgan. Respublikamizda AQSH, Italiya, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Angliya, Koreya, Yaponiya kabi qator davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar, obyektlar qurilib, ishga tushirilmoqda.

Qisqa xulosa

O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlanishi – raqobatchilikning rivojlanishiga, iste'mol bozorini tovarlar va xizmat ishlari bilan to'ldirish, yangi ish joylarini yaratish, ko'plab mulk egalari va tadbirkorlarning shakllanishiga xizmat qiluvchi Respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlantirish, ayni paytda xo'jalik aloqalarini tartibga solish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ta'minlash zarur.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ushbu bobda korxona va tadbirkorlik, kichik biznesda tadbirkorlikning huquq va majburiyatlari, tadbirkorlik faoliyatining shakllari, yakka va xususiy tadbirkorlik, jamoa tartibidagi va hamkorlikdagi tadbirkorlik bo'yicha kerakli ma'lumotlar berilgan va atroflicha yoritilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Nima uchun korxona (firma) tadbirkorlikning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi?
2. «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?
3. Kichik biznesda tadbirkorlikning huquq va majburiyatlari nimadan iborat?
4. Tadbirkorlik faoliyatining shakllariga nimalar kiradi?
5. Yakka tadbirkorlik bo'yicha misollar keltiring.
6. Jamoa tartibidagi va aralash tadbirkorlikni ta'riflab bering.

7. Tadbirkorlik faoliyatida qanday kasb egalari bo'lishi kerak?
8. Xususiy tadbirkorlik nima?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Yo.Abdullayev, F.Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

2. S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

3. L.V.Peregudov, M.X.Saidov. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: «Moliya», 2002.

4. D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: «Moliya», 2003.

5. E.Egamberdiyev, H.Xo'jamqulov. Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: «Ma'naviyat», 2003.

IV bob. KICHIK BIZNESNI TARAQQIYOT TOPISHIDA MDH, VATANIMIZ VA XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBALARI

4.1. MDH mamlakatlarida kichik biznesning rivojlanishi.

4.2. Yaponiya va G'arb davlatlarida tadbirkorlik.

4.3. Tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyot topishida MDH va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari.

4.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida Vatanimizda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi.

4.1. MDH mamlakatlarida kichik biznesning rivojlanishi

XX–XXI asrlar bo'sag'asida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 40 tasi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan bo'lib, uning 29 tasi iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining a'zosidir. Rivojlangan davlatlarning 7 tasi, ya'ni AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya jahonning «katta yettilik» davlatlari hisoblanadi. Ushbu davlatlar hozirgi kunda jahon xo'jaligining barcha tarmoqlarini iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini va shuningdek, mintaqalarda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish alomatlarini belgilab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori hisoblanadi. 1997-yilda ushbu ko'rsatkich sanoati rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 21,5 ming dollarni, jahonning rivojlangan davlatlari bo'yicha esa o'rtacha 5,7 ming dollarni tashkil etgan edi (rivojlanayotgan mamlakatlarda 3-15 ming dollarni, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 5,5 ming dollarni, MDH davlatlarida esa 3,1 ming dollarni tashkil etgan). Rivojlangan mamlakatlarda YaIM miqdori aholi jon boshiga nisbatan 6,8 marta, rivojlanayotgan mamlakatlarda 6,8 marta, Sharqiy Yevropa davlatlarida 3,9 marta, MDH davlatlarida esa 6,7 marta o'sgan edi.

Jahon xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlar hududiga to'g'ri keladi. 1997-yilda rivojlangan mamla-

katlarda yashovchi aholi soni 840,5 million kishini (yer yuzi aholisining 14,2 % ni tashkil etgan). Ushbu davlatlarda YaIM qiymati 18070 mlrd. dollarni (bu ko'rsatkich jahon hajmiga nisbatan 52,8% ni) tashkil etgan. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar hozirgi kunda jahonning boshqa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan (tashqi savdo, xorijiy investitsiya tarmog'i, transmilliy korparatsiya tarmog'i, ilmiy-texnikaviy monopoliyaga erishish va boshqalarni) nazorat qilishni yildan-yilga kengayib bormoqda. 1929–1933-yillarda jahon kapitalistik xo'jalik tizimini inqirozga yuz tutishi, boshqarish tizimini izdan chiqishi, iqtisodiyotning beqarorligi, inflatsiya, ishsizlikning kuchayishi ishlab chiqarishning keskin tushishiga olib kelgan edi.

Ma'lumki, XX–XXI asrlar bo'sag'asi jahon iqtisodiyoti rivojlanishning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib, tashqi savdo sohasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global masshtabda rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Ana shu davrda MDH mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida stabillashuv jarayonlari ro'y berganligi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarini iqtisodiy tiklanganligi ko'zga tashlanadi.

MDH mamlakatlari bilan yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarini borishida, ayniqsa, sanoati rivojlangan mamlakatlar – AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Janubiy Koreya, GFR, Fransiya, Turkiya alohida o'rinni egallamoqda.

MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida olib borilayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlar ham samarali rivoj topib bormoqda. MDH mamlakatlarini respublikamiz bilan bo'ladigan tovar aylanmasining rivojlanishi teng huquqli va o'zaro foydali prinsiplarga asoslangan. 2000-yilda Ukraina bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi 1999-yilga nisbatan 1,3 barobarga, RF bilan bo'ladigan savdo aylanmasi esa 16% ga o'sgan edi.

Hozirgi kunda MDH mamlakatlarini respublikamiz bilan bo'ladigan tashqi savdo aylanmasining 30-35%i Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamiz tashqi savdo aloqalarining 70-80%i MDH davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1997-yilga kelib 60-65% ga to'g'ri kelgan edi.

Jahon iqtisodiyotida MDH muhim tizim bo'lib qolaveradi. Unda 12 ta davlat, umumiy va shuningdek, milliy davlat manfaatlarini hisobga olgan holda o'zaro foydali hamkorlikni amalga oshirishi mumkin.

Davlatlararo hamkorlikning o‘zaro iqtisodiy munosabatlari MDH doirasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanib, ular quyidagilardir:

– MDH doirasida maqsadlar amalga oshgunga qadar integratsiyaga sakrab o‘tmasdan, balki bosqichma-bosqich ishlab chiqarish erkin savdo zonasini tashkil qilish;

– MDH doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi salohiyatni ko‘tarish;

– MDH doirasida tovarlarning erkin harakatini ta’minlash va boshqalar.

Jahon iqtisodiyotida MDH kordinator va axborotchi rolini o‘ynab, barcha a’zo davlatlar uchun yuqori darajadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy xo‘jalik natijalariga erishish maqsadida iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi platformaga aylanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlar MDH davlatlarining jahon xo‘jalik tizimiga bosqichma-bosqich kirishiga imkon beradi. Bunda samarali faoliyat yuritayotgan erkin savdo zonasining yaratilishi MDH da to‘laqonli bozor infratuzilmasini va xo‘jalik hamkorligini yuqori bosqichlarga o‘tishning shakllanishida obyektiv zaruriyat kasb etdi. MDHga a’zo davlatlar jahon xo‘jalik aloqalarida hamda iqtisodiy hamnafaslik darajasiga bog‘liq holda integratsion jarayonlarning keyingi bosqichlarida va mintaqaviy birlashmalarida qatnashish to‘g‘risida mustaqil qarorlar qabul qilishadi. Qabul qilingan qarorlarning amaliy bajarilishi esa MDH doirasida samarali hamkorlikda namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlik MDH mamlakatlari hududida o‘zining XIX asrda boshlangan taraqqiyot tarixiga ega. Bu davrda dastlabki tadbirkorlik shaklidagi savdo uylari va sanoat obyektlari paydo bo‘ldi. Agar inqilobdan avvalgi davr xo‘jalik amaliyotiga nazar solsak, unda XX asr boshlarida keng ko‘lamda rivoj topgan tadbirkorlikning bir shakli bo‘lgan shirkatlar harakati alohida qiziqish uyg‘otadi. U asrimiz boshida turli faoliyat sohalarini qamrab olib, nihoyatda keng ko‘lamda taraqqiy topdi.

Masalan, 1925-yilda sobiq SSSR sanoatida 1888410 ta turli mayda, shaxsiy hunarmandchilik korxonalari faoliyat ko‘rsatgan. Bu korxonalar hisobiga 19 foizi sanoat ishlab chiqarishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, undan 32 foizi – sanoat iste’mol mollaridir. Umumiy tovar aylanmasining 25 foizi va chakana savdoning 50 foizdan ortig‘i xususiy savdoga to‘g‘ri kelgan.

Iqtisodiyotning bu qadar ko‘p ukladliligi raqobatni taraqqiy topishiga olib keldi va iste’mol narxlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Yangi

iqtisodiy siyosat yetishmovchilikni bartaraf etdi va iqtisodni sog'lomlashtirishga katta ta'sir qildi.

4.2. Yaponiya va G'arb davlatlarida tadbirkorlik

Mutaxassislarning fikricha, Yaponiyaning jahonda iqtisodiy nufuzining oshishida va yapon «mo'jizasi»da kichik biznes hal qiluvchi rol o'ynadi. U yerdagi qayta ishlash sanoatida 6,5 mln. kichik va o'rta biznes korxonalar faoliyat ko'rsatib, ular ushbu sohadagi jami korxonalarning 99 foizini tashkil etadi. Bu korxonalarda 40 mln.dan ortiq kishi band. Bu degani ish bilan band aholining 81 foizi kichik biznes korxonalarida faoliyat ko'rsatadi demakdir.

Yaponiya modeli. Bu model jahon iqtisodiyotida yo'naltirib turuvchi kooperativ kapitalizmi modeli bo'lib, davlat iqtisodiyotini rejalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Davlat ishchilarining kasb mahoratini oshirishga e'tiborni qaratib, ularning kasb mahoratini uzluksiz oshirishga harakat qiladi. Yapon modelining xarakterli tomoni shundaki, ishlab chiqarishni va mehnatni milliy an'analar asosida tashkil qilishni shakllantirishga asoslangan. Yapon modeli iqtisodiyotni rivojlanishida anarxiya korporativizmi ham deb ataladi. Xullas, jahon iqtisodiyotida keyingi 100 yillar davomida bozor iqtisodiyoti o'zining yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy sistemalaridan, ilmiy-texnika inqilobi (ITI) ni o'zlashtirishda ehtiyoj va talabni to'liq qondira olishligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiyotida Kanada va Yaponiya davlatlari eng yirik xalqaro investor davlatlaridir. Xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarning hajmi bo'yicha Yaponiya dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqqan bo'lishi bilan bir qatorda o'zining xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarining o'rtacha 1,3 qismini u AQSH iqtisodiyotiga ham qo'ygan edi. G'arbiy Yevropa davlatlarida Yaponiya kapitalining 80% i moliyaviy va savdo-sotiq sohalariga, faqat 15% qayta ishlash sanoatiga qo'yilgan. G'arbiy Yevropa kapitali asosan AQSHga yo'naltirilgan bo'lib, uning ulushi chet qo'yilmalarning 2,3 qismiga to'g'ri kelgan edi. O'z navbatida G'arbiy Yevropa davlatlari AQSH investitsiyalarining 50% iga yaqinini qabul qilgan.

Bozor iqtisodiga asoslangan rivojlangan G'arb mamlakatlarida 60-yillar oxiri 70-yillar boshi kichik biznesning gullagan davriga to'g'ri keldi va u hozirda ham o'z o'rnini mustahkamlab kelmoqda. Firmalarning umumiy sonida mayda va o'rta korxonalar salmog'i GFR

da 95%, Yaponiyada 99,7% ga to‘g‘ri keladi, ushbu sohada yollangan ishchilarning 45-47 foizi band, chunki taraqqiy topgan davlatlarda tadbirkorlik xo‘jalik yuritishning alohida, ilg‘or va antibyurokratik usuli hisoblanadi.

Yuqoridagilarning asosida doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni izlash, qo‘yilgan masalani yechish uchun har xil resurslar manbalarini izlab topish, jalb qilish va ishlatish yotadi. G‘arb davlatlarida ishbilarmonlik harakatchanlik, «tashabbuskorlik», «jasurlik» kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashtiriladi. Demak, u jamiyatda shunday imkoniyatlarni keltirib chiqaradiki, ular ko‘plab ajoyib, foydali fikrlarni haqiqatga aylantiradi.

4.3. Tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyot topishida MDH va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari

Mamlakatda tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat va ta’lim xizmatlari shakllanayotganda bu jamiyatni rivojlantirish muammolari bilan jips bog‘liq jahon xo‘jaligiga uyg‘unlashayotgan, yuqori raqobatbardoshlikka ega bozor iqtisodini mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash davlatning strategik maqsadi bo‘lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning siyosati, jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, uning madaniyati, fan va texnikasi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, oliy maktab oldida turgan yangi vazifalar faqat sifat jihatdan yangi bo‘lgan ta’lim mazmuni va texnologiyasini, balki respublika iqtisodiy rivojlanish dinamikasini, tarixan shakllangan vaziyatni xo‘jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida hisobga oladigan bozor iqtisodi qonunlariga rioya etadigan mutaxassislar tayyorlash va bunga bo‘lgan talab yo‘nalishini belgilashga yangicha yondashishni ham talab etadi.

Davlat miqyosida mutaxassislar tayyorlash, ishga joylashtirish va bandligi jarayonini davlat boshqaruvi mexanizmini yaratish, ayniqsa, muhim bo‘lib turibdi. Bu oliy ta’lim muassasasiga talab qabul qilish rejasi to‘la ravishda iqtisodiyotning amaldagi talablariga mos kelishi kerak deganidir. Bugungi kunda oliy ta’lim yo‘nalishlari miqyosida mutanosiblik 23-25% ni tashkil etadi, ko‘pgina yo‘nalishlarda ortiqcha mutaxassis tayyorlash kuzatilmoqda.

Bizning tahlillarimizcha, so‘nggi yillarda mutaxassis kadrlarga bo‘lgan talab keskin oshdi, lavozim sifat va miqdor ko‘rsatkichlari o‘zgardi, ularni oliy ma’lumotli mutaxassislar bilan almashtirish zaruriyati yuzaga keldi, ishga qabul qiluvchilar ko‘p hollarda tegishli

tarzda diplomga emas, balki mutaxassisning ishni qay darajada bilishligi, kasbiy mahoratiga e'tibor bermoqdalar. Bu iqtisodiyotning barcha sohalari bo'yicha xalqaro darajadagiga mos keladigan bilimga ehtiyoj paydo bo'ldi deganidir. Vaholanki, ko'pgina oliy ta'lim muassasalari mehnat bozori ehtiyoji va bozor talablariga javob bera olmaydi. Natijada mutaxassislarning bir qismiga qo'shma, xususiy, chet el va respublikamizdagi boshqa korxonalarda mutlaqo talab yo'q. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni parallel tayyorlash kuzatilmoqda (ayni bir ixtisoslik bo'yicha turli oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlanmoqda, ba'zi viloyatlarda ularga nisbatan talab yo'q). Bular barchasi oliy ta'lim obro'yini tushirmoqda hamda *mutaxassislar tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuzaga* kelgan bu vaziyatni o'zgartirish uchun oliy ma'lumotli mutaxassislardan foydalanish samarasini oshirish va ta'limda davlat mablag'idan maqsadga muvofiq foydalanish uchun quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

– oliy ta'limni yangicha ixtisoslashtirishning (magistratura va bakalavriat ta'lim yo'nalishini ixtisoslari ro'yxati) oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan almashtirilishi lozim bo'lgan lavozimdorlikka mos kelish darajasini, ya'ni mamlakat xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi lavozimlar bilan mutaxassislar yetishtirish mutanosibligini belgilash;

– umumiy talablarga muvofiq oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik tarmoq me'yorlarini ishlab chiqarish yangi tavsiflovchisida qabul qilingan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumiy va qo'shimcha talabalarni aniqlash;

– tarmoq kengayishi va mehnat murakkabligini sifat jihatidan takomillashtirish bilan bog'liq mutaxassislarga talabni aniqlash. Bunda quyidagilar e'tiborga olinishi kerak;

– ularning turli sabablarga ko'ra ishdan ketishi – avlodlar almashishi, tabiiy ketish, migratsiya, xodimlar qo'nimsizligi va oliy ta'lim muassasalari, mintaqalar yo'nalishlar (oliy ta'lim ixtisosliklari bo'yicha bakalavriat va magistratura) bo'yicha talabalar qabul qilishning talab bilan mos kelishi, ya'ni oliy ta'lim har bir yo'nalishi bo'yicha talabning tasniflovchi, tavsiflovchi va davlat standartiga mos kelishi;

– oliy ma'lumotli mutaxassislarga istiqboldagi talabni belgilash bo'yicha tarmoq metodikasini yaratish.

Bugungi kunga kelib, ko'pchilik iqtisodchi mutaxassislar yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lmaganliklari uchun ham o'z faoliyatlarini samarali tashkil eta olmayaptilar.

TASIS Dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan 1995-yil boshida kichik va o'rta biznes sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan Bozor ko'nikmalarini rivojlantirish Markazi tashkil etilgan edi.[1] Bu tizim 300 xil ta'lim turi va markazlarni o'z ichiga oladi. Ular qatorida Tadbirkorlar palatasi qoshidagi respublika biznes maktabi va uni viloyatlardagi filiallari, biznes inkubatorlar, shoxobchalari, kichik va o'rta tadbirkorlikni axborot va maslahat berish ishlari bilan qo'llab-quvvatlovchi 205 markaz, «Biznes fond»ning axborot-konsalting Markazlarini o'z ichiga oladigan maxsus tashkilotlar, biznes rivojiga ko'maklashuvchi Markaz, bozor, qimmatbaho qog'ozlar va shu kabilar sohasida mutaxassislar tayyorlovchi Milliy markazlarni ko'rsatish mumkin. Bunday markazlar hisobiga har yili 32 ming kishi o'z bilim va tajribalarini oshirishlari mumkin.

Mehnat va Ijtimoiy ta'minot vazirligi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda Bozor ko'nikmalarini rivojlantirish Markazlari o'rtasidagi o'zaro shartnomalar doirasida 1999–2002-yillarda o'z biznesini ochmoqchi bo'lgan 2 ming nafar ishsiz bo'lganlar o'qitiladi. Ulardan 70 foizi o'z ishlarini boshlab yubordi va bozor tizimida ishga joylashib ketdi.

2002–2003-o'quv yillarida o'quv kompleksi tarkibiga kiruvchi xalqaro tashkilotlar TASIS, YuSAID, Yevropa ta'lim fondi mablag'lari hisobiga 1400 kishi ta'lim olib chiqdi.

Iqtisodchi-o'qituvchilarni tayyorlovchi maxsus kurslarning muttasil ishlab turganligiga qaramay, yuqorida ko'rsatilgan o'qitish tizimlarida mahoratli, bilimli pedagog kadrlarning yetishmasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Muhim muammolardan yana biri tadbirkor kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimida maxsus o'quv adabiyotlarining yetishmasligi, moddiy bazaning talab darajasida emasligidir.

Zamonaviy iqtisod va ijtimoiy taraqqiyot o'ziga xosligi shundaki, keng xususiylashtirish faol tadbirkorlik, chet el investitsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlari, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar vujudga kelmoqda, turli jamoat birlashma va tashkilotlari shakllanmoqda, boshqa tuzilmaviy siljishlar ro'y bermoqda, bular mutaxassislarga, ularning tayyorgarligiga, ishga joylashuviga, samarali foydalanishiga alohida talab qo'ymoqda hamda kasbiy ta'limning moliyaviy shakllanishiga va moddiy-texnologik ta'minlanishiga ta'sir etmoqda.

[1] Egamberdiyev E., Xo'jamqulov H. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: «Ma'naviyat», 2003. 90-bet.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko‘zda tutilgan ta’lim xizmati monitoringi va talab istiqboli moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar yetishtirish hamda qayta tayyorlash – mutaxassislarga bo‘lgan talabni o‘rganishni taqozo etuvchi mujassam vazifa, ya’ni:

– respublika, viloyat, iqtisod tarmog‘i va ijtimoiy infratuzilma, oliy ta’lim yo‘nalishi (ixtisosligi)da;

– malaka darajasi (bakalavr, magistr) va ta’lim (oliy, OTMni tugatgandan so‘nggi) bo‘yicha tadqiqotning quyidagi metodikalaridan foydalanib:

– ijtimoiy tadqiqotlar;

– O‘zbekiston Respublikasi va chet ellardagi ta’lim xizmatini taqqoslash, qiyosiy tahlili, kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari imkonini o‘rganish (mavjud me’yorlarga moslangan ta’lim miqdoriy va spektr yo‘nalishlari);

– texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va bozor konyunkturasi bilan mos holda mutaxassislarga bo‘lgan talabni modellashtirish;

– me’yor va me’yoriylik asosida xodimlarga bo‘lgan talab istiqboli;

– oliy ta’limning ahvoli va rivoji monitoringi tizimini ishlab chiqish;

– aholi bandligini istiqbol asosida mutaxassislarga bo‘lgan talabni o‘rganish;

– tegishli oliy ma’lumot olishga bo‘lgan aholi talabini qondirish imkoniyatlarini belgilash;

– moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada mutaxassislarga bo‘lgan talabni alohida-alohida qonuniyatlarini o‘rganish.

Yuqoridagilar mamlakatimiz iqtisodini yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarga bo‘lgan talabini qondirish imkonini beradi.

Shunday qilib, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘qitish sifati monitoringini yo‘lga qo‘yish, kichik va o‘rta biznes korxonalari uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, sifatli va raqobatbardosh iqtisodchi-mutaxassislar tayyorlash bugungi kunda hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalardan biridir.

4.4. Ma’naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida Vatanimizda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi

Keyingi yillarda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada samaraliroq yuritishga, ishlab chiqarishni

markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o'tkazishga qat'iy bel bog'laganligini bildiradi. Bu haqida hukumatimizning biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish bo'yicha qo'yayotgan qadamlari ham dalolat berib turibdi.

Ammo bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, obod va farovon jamiyat qurish shartlari faqat puxta ishlangan dasturlar bilangina cheklanmaydi. Shu bilan birga, endigi taraqqiyot, iqtisodiy qonunlarni hisobga olgan holda bozorni boshqarish san'atini qanchalik chuqur egallashga ham bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti biznes va tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo'l berilishi tufayli mulkchilikning turli shakliga asoslangan firmalar, korxonalar soni ortib bormoqda. Yirik xorijiy investorlar bilan keng sherikchilik asosida ish boshlagan qo'shma korxonalar soni ko'payib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotida O'zbekiston Respublikasi suveren mustaqillikka erishgan kundan boshlab (31-avgust 1991-yil) iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida rivojlanishning yangi davri boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, respublika hududida O'rta Osiyo aholisining 45%i yashaydi. O'zbekiston Respublikasi qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston kabi davlatlar bilan chegaralanib Yevropa, Afrikaning bir qator mamlakatlari bilan transport va telekommunikatsiya aloqalari orqali bog'lanib turuvchi strategik xaridor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda jahonning ko'zga ko'ringan yirik va obro'li xalqaro tashkilotlari bilan, dunyoning barcha mintaqasida joylashgan o'nlab davlatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatgan bo'lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib bormoqda. O'zbekistonda hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning elchixonasi 49 ta davlat va shuningdek, 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Respublikamiz eng muhim xalqaro konvensiyalarning qatnashchisidir. O'zbekiston turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar (BMT, EI, ETTB, XVF, Osiyo banki va boshqalar) bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib boruvchi davlatlardan biridir.

90-yillarning oxirida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida xorijiy investorlarni respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga kirib kelishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xorijiy kompaniya va firmalar bilan iqtisodiy hamkorliklarda investitsiya loyihalari ustida

amaliy ishlar olib borildi. Agar 1997-yilda O'zbekistonga kirib kelgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 1,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda bu ko'rsatkich 1,3 barobarga o'sgan edi. Respublika hududida jahonning 80 dan ortiq davlatlarining sarmoyalari ishtirokida qurilgan 4 mingga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsata boshladi (1996-yilga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir). Shunday qilib, 1999-yilda ro'y bergan bir qator iqtisodiy tushkunliklardan so'ng respublika sanoat korxonalarida ishlab chiqarish rivojlana bordi. O'zbekiston tovar aylanmasida import tovarlarni qisqarishi hisobiga eksport tovarlar va xizmat ko'rsatish sohalar kengayib bordi.

2000-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarining geografiyasi yanada kengayib, tashqi savdo aylanmasining 63,1%i Yevropa mamlakatlariga to'g'ri kelgan edi. Shu yili respublikamizning Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bo'ladigan savdo iqtisodiy aloqalari 7,2% ga, OPEK mamlakatlari bilan 1,4 barobarga, EKO mamlakatlari (Eron, Turkiya, Afg'oniston, Turkmaniston va boshqalar) bilan esa 1,2 marta o'sib, 2000-yilda O'zbekistonning umumiy savdo aylanmasining 31-32%i Osiyo va Yaqin O'rta Sharq mamlakatlariga to'g'ri kelgan edi.

Rossiya Federatsiyasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yildan-yilga kengayib, rivojlanib bormoqda. 1997-yilda Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi eksport-import savdo 65,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Hozirgi kunda ham O'zbekiston Rossiyaga asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini chiqarib, kamroq sanoat tovarlarini sotib olmoqda. Agar 1992-yilda Rossiyaga sotilgan mahsulotlarning 58-59%i paxta tolasiga, 7-8%i mashina va asbob-uskunalarga, 1-2%i esa xalq iste'moli tovarlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda paxta tolasining ulushi 21-22% ga qisqarganligini, mashina va asbob-uskunalar 30-31% ga, xalq iste'moli mahsulotlari savdosi uchun esa 14-15% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Xullas, respublikamiz o'zining qisqa iqtisodiy rivojlanish yillarida Rossiyadan xalq iste'moli mahsulotlarini import qiladigan mamlakatdan, ularni eksport qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Bugungi kunga kelib, respublikamizda 180 mingdan ortiq korxona mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayapti. Jismoniy shaxs sifatida, ya'ni yuridik shaxs maqomini olmay turib, yakka tartibda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 600 mingdan oshdi. Hunarmandchilik, kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarning soni esa yuz minglab hisoblanadi.

1998-yilning o'zida 15 mingta kichik va xususiy korxonalar, dehqon xo'jaliklari barpo etildi. Bu esa o'z navbatida:

– yangi ish joylarini tashkil etishga;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishiga;

– ichki iste'mol bozorining ta'minlanishiga;

– aholi daromadlarining ko'payishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasida bo'ladigan tashqi savdo aylanmasining 30-35%i Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orqali amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 1999-yildan boshlab mintaqa davlatlari o'rtasida tovar aylanma yildan-yilga o'sib, rivoj topmoqda. Agar 1999-yilda mintaqa davlatlari bilan respublikamiz o'rtasida tovar aylanma 525 mln. AQSH dollarini, 2002-yilda esa 568 mln. dollarni tashkil etgan edi. 2002-yilda Qozog'iston bilan O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanma 263,3 mln. dollarni, Tojikiston bilan 116,9 mln. AQSH dollarini, Qirg'iziston bilan 111,6 mln, Turkmaniston bilan esa 75,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan edi.

MDH davlatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar sezilarli rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2003-yilda O'zbekistonning Ukraina bilan bo'lgan savdo aylanmasi 1,5-2 barobarga, RF bilan 20-25% ga, Markaziy Osiyo davlatlari bilan 1,5-2 barobarga o'sgan edi. MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalari Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya va Gruziya kabi mustaqil davlatlar bilan ham yildan-yilga kengayib bormoqda. MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalarining borishida, ayniqsa, sanoati rivojlangan (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya) va rivojlanayotgan (Hindiston, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni) davlatlari alohida o'rinni egallab turibdi.

EI mamlakatlari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng muhim investorlar hisoblanadi. Respublikamiz hududida EIga a'zo-davlatlarning 150 ga yaqin firma va kompaniyalari akkreditatsiya qilingan. Respublikasida EIning 480 dan ortiq firma va kompaniyalari faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lib, ularning 114 tasi to'liq 100% li Yevropa kapitali hisobiga ishlamoqda. Xullas, 1995–2004-yillarda EI davlatlarining firma va kompaniyalari, shuningdek, ularning banklari O'zbekistonda miqdori 8,0 mlrd. dollar atrofidagi investitsion proektlarda qatnashgan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston bilan EI mamlakatlari – Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Belgiya va

boshqa davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorliklar yildan-yilga rivoj topib bormoqda.

2004-yilda O'zbekiston Respublikasida umumiy hisobda 3090 ta xorijiy investorlar hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 2497 tasi qo'shma korxonalarni tashkil etgan edi. Ushbu qo'shma korxonalarni tashkil etishda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, XXR, RF, Ukraina, Qozog'iston Respublikalari kabi davlatlarning investorlari faollik ko'rsatmoqda. O'zbekiston hozirgi kunda Turkiya bilan 50 ta, AQSH bilan 49 ta, RF bilan 56 ta, Buyuk Britaniya bilan 40 ta, Janubiy Koreya 23 ta, Shvetsariya bilan esa 18 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Xullas, O'zbekiston Respublikasi ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar doirasi shunchalik kengki, u BMT va uning tarkibidagi barcha tashkiliy va muassasalarni hamda MDH, Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, EI va boshqa ko'plab mintaqaviy tuzilmalarni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasining NAFTA davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari ham kengayib bormoqda. Respublikamizning AQSH bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlarini rivojlanib borishida «AQSH-O'zbekiston o'rtasidagi strategik hamkorlik» to'g'risidagi Dekloratsiya (2002-yil) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekistonda amerikalik investorlarning hamkorligida tashkil topgan 323 ta ishlab chiqarish korxonalari ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ularning 233 tasi qo'shma korxonalar hisoblanadi (90-100% ni xorijiy kapital hisobiga qurilgan). AQSH investorlari asosan respublikaning tog'-kon sanoati va neft-gaz komplekslarini qurilishlarida, agrokompleks bazasini texnologik rivojida, oziq-ovqat va transport infrastrukturasi sohalarida amal qilmoqda. Xullas, O'zbekiston respublikasining o'n, o'n besh yillik suveren mustaqilligi yillarida Amerika kompaniyalari va moliyaviy institutlari tomonidan amalga oshirilgan investitsion proektlar 2,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, ularning 1,4 mlrd. dollari Amerikaning moliyaviy institutlari tomonidan sug'urta qilingan.

O'zbekiston Respublikasini Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy hamkorliklari yildan-yilga rivoj topib bormoqda. Jumladan, mintaqaning yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan biri Yaponiya respublikamizni suveren mustaqilligini (1991-yilning 28-dekabrida) tan oldi. Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatilishida O'zbekiston – Yaponiya va Yaponiya – O'zbekiston komitetlari iqtisodiy va madaniy tashkilotlarni

tuzilishida (1994-yil) katta rol o'ynamoqda. O'zbekistonda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JAYKA) va tashqi savdo tashkiloti (JETRO) faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda respublikaning xomashyo resurslari bazasida, neft-gaz va yapon investorlari hamkorligida tashkil topgan 19 ta yirik kompaniya va ularning bo'limlari 8 ta hamkorlik komplekslari faoliyat ko'rsatib turibdi. Xullas, 2002-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanma 31,9 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 11,6 mln. dollari eksport tovarlarga, 20,3 mln. dollari esa import tovarlarga to'g'ri kelgan edi.

O'zbekiston Respublikasining Janubiy Koreya bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlarini rivojlanib borishida ikki davlat o'rtasida o'zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning huquqiy asoslari hisoblangan «Savdo to'g'risida»gi, «Investitsiyani himoya qilish va kengaytirish to'g'risida»gi, «Ilmiy-texnologik hamkorlik to'g'risida»gi bir qator 20 dan ortiq shartnomalarni imzolanishi (1994-yil) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2002-yilda ikkala davlat o'rtasidagi tovaraylanma 326,0 mln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 67,0 mln. dollari eksportga, 259,0 mln. dollari esa importga to'g'ri kelgan. O'zbekiston Respublikasi eksportida asosiy o'rinda paxta tolasi, xizmat ko'rsatish, mato va to'qimachilik mahsulotlari turgan bo'lsa, importida esa transport vositalari, mexanik va elektroasbob-uskunalar, xizmat ko'rsatish, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar turgan. 2003-yilning sakkiz oyi davomida O'zbekiston Janubiy Koreya o'rtasidagi tovaraylanma 179,2 mln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 39,1 mln. dollari eksportga, 140 mln. dollari esa importga to'g'ri kelgan. 2003-yilda Janubiy Koreyaning eksport import banki tomonidan O'zbekistonga ko'rsatgan krediti 96,4 mln. dollarni tashkil etib, ushbu yordam asosan respublikada telekommunikatsiya uzatishlarini, «O'zDeuAvto» qo'shma korxonasida bir qator yangi avtomobil rusumlarini yaratish, kasb-hunar kollejlarini yangi texnik vositalar bilan ta'minlash, «O'zbek ipagi» assotsiatsiyasini texnik qayta jihozlash ishlariga sarf etilgan edi.

O'zbekiston respublikasi bilan XXR o'rtasidagi hamkorlikni o'rnatilishida O'zbekiston – Xitoy o'rtasida o'zaro savdo iqtisodiy aloqalarni olib borish to'g'risidagi shartnomasini imzolanishi (1992-yil) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu shartnomaga muvofiq 2002-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovaraylanma 130 mln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 17,3 mln. dollari eksportga, 112,7 mln. dollari esa

importga to‘g‘ri kelgan edi. O‘zbekiston eksportida asosan xizmat ko‘rsatish, ipak mahsulotlari, neft va neft-kimyoviy mahsulotlar, paxta tolasi, kalava iplar tursa, importida esa mexanik va elektron-asbob-uskunalar, optik buyumlar va apparatlar, plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, transport vositalari, trikotaj kiyim-kechaklar, poyabzal, kauchuk va rezina buyumlar, kofe, choy va turli shirinliklar turadi.

Umuman olganda, bugungi kunda, Respublikamizdagi tadbirkorlikni xorijiy davlatlar ham qo‘llab-quvvatlayapti. Masalan, Ovrupa qayta qurish va taraqqiyot banki ikki yil muddatga 120 million dollarlik kredit liniyasi ochdi. Osiyo taraqqiyot banki esa 3 yilga 50 million dollar mablag‘ taqdim etdi va 1999-yilning ikkinchi yarmiga kelibоq 20,2 million dollarlik 16 ta loyiha mablag‘ bilan ta’minlash uchun qabul qilinadi.

Qisqa xulosa

Keyingi yillarda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada samaraliroq yuritishga, ishlab chiqarishni markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o‘tkazishga qat’iy bel bog‘laganligini bildiradi. Bu haqida hukumatimizning biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘yayotgan qadamlari ham dalolat berib turibdi.

Ushbu bobda MDH mamlakalarida tadbirkorlik, biznesning rivojlanishi, Yaponiya va G‘arb davlatlarida tadbirkorlik, tadbirkorlik va biznesning rivojlanishida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari, vatanimizda tadbirkorlik va biznesning rivojlanishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sifatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo‘llari kabilar xususida fikr bildirilgan, shuningdek, bu mavzu bo‘yicha berilgan materiallar talabalarga ishonarli tarzda bayon qilingan.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. MDH mamlakatlarida kichik biznes rivojlanishini gapirib bering.
2. Yaponiyada tadbirkorlik qachondan boshlab rivojlangan?
3. G‘arb davlatlaridagi tadbirkorlikka misollar keltiring.
4. Tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyot topishida MDH va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini gapirib bering.

5. Vatanimizda tadbirkorlik va kichik biznes qachondan boshlab rivojlangan?

6. Tadbirkorlik g'oyasi nima?

7. Raqobat deganda nimani tushunasiz?

8. Kichik biznes tadbirkorlikda qanday rol o'ynaydi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S. G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh. Shodmonov., R. Alimov, T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. Yo. Abdullayev, F. Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

4. E. Xo'jayev E., R. Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

V bob. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TADBIRKORLIKNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

5.1. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati.

5.2. Tadbirkorlik va kichik biznesning davlat tomonidan himoya qilinishi.

5.3. Kichik biznesda tadbirkorning faoliyati.

5.4. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni.

5.5. Tadbirkorlik tamoyillari.

5.1. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati

O'zbek xalqining azaliy orzusi ushalib, u ham siyosiy, ham huquqiy sohada mutlaqo mustaqil bo'ldi. Endigi vazifa iqtisodiy sohada ham to'liq mustaqillikka erishishdir. Buni amalga oshirish uchun asosiy e'tiborni bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratish lozimdir. «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz, - deb yozgan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, – Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzining har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»[1]

Bugungi kunda biz bozor munosabatlarimizga o'z modelimiz orqali o'tib bormoqdamiz. Bu jarayon Prezidentimiz rahbarligida sobitqadamlik, tinchlik, barqarorlikni saqlash va milliy xavfsizlikni ta'minlash, respublikamizning siyosiy, iqtisodiy hayotini, ijtimoiy sohalarini chuqur isloh qilish va yangilash asosida amalga oshirilyapti.

Bizningcha, tadbirkorlik va biznesning yuqorida aytilgan mohiyati va xususiyatlaridan kelib chiqadiki, biznesning yashashi va rivoj topishi uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: «O'zbekiston». 2009 y.

– mulkka egalik qilish va pirovard mahsuldorlikka erishish, shuningdek, moddiy ne'matlarga egalik qilish huquqini olish yoki u huquqni boshqalarga o'tkazish imkoniyati;

– xo'jalik subyektlarining nisbatan mustaqil faoliyat ko'rsata olishi, ularning xo'jalik faoliyatida iqtisodiy jihatdan erkin bo'lishi; jumladan, shartnoma tuzishda, qo'shilishda, faoliyat turini va iste'molchilarni tanlashda;

– ayirboshlash shakllarini rivojlantirish, ya'ni tovar-pul munosabatlarining o'zaro muvofiqligi, jumladan mehnatni erkin ravishda ayirboshlash, yollash, boshqacha aytganda – bozorga bemalol kirish imkoniyatlarining mavjudligi.

Biznes faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlari ichki va tashqi sharoitlarga bo'linadi:

– **ichki sharoitlar** – kapital yoki sarmoya egalari, menejerlar va yollangan mehnat xodimlari o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topadi;

– **tashqi muhit yoki sharoitlar** – biznes faoliyatini tashkil etuvchilar bilan davlat va ijtimoiy tashkilotlar, tuzilmalar, xomashyo yetkazib beruvchilar, kreditorlar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'liqlik, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri bilan ifodalanadi. Bunda ish bajarish mobaynidagi munosabatlar tizimiga jalb etilgan, tortilgan har bir kontragentlar, albatta, o'z manfaatlarini ko'zlaydilar. Bu manfaatlar 1-jadvalda keltirilgan.

Bizning nazarimizda, bunday xilma-xil manfaatlarni amalga oshirish ancha mushkul ish, ayrim hollarda bu talablarni amalga oshirish nizolarsiz bo'lmaydi. Shuning uchun biznes faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyati bu manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni alohida kontragentlar manfaatlari o'rtasidagi farqni iloji boricha kamaytirish darajasiga va ularning maqsadlari o'rtasida muvozanatni o'rnata olish darajasiga bog'liqdir.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish mamlakatimiz fuqarolarining muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, bu huquqlarni yuzaga chiqarilishiga davlat har tomonlama ko'maklashadi, ularni to'la kafolatlaydi. Zero, tadbirkorlik taraqqiy topgan yurtgina iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, gullab-yashnashi mumkin.

Ma'rifatli bozor iqtisodiga asoslangan davlat va jamiyat barpo etishga kirishgan bizning mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish shartlaridan biri sifatida fuqarolar birinchi navbatda tadbirkorlik va kichik biznesga oid munosabatlarda ishtirok etuvchi kishilar iqtisodiy

tafakkurini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, o'zini huquqiy jihatdan himoya qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash vazifalari ilgari surilgan.

1-jadval

№	Biznes faoliyati ishtirokchilari	Manfaatlar
	I. Ichki sharoitlar:	
1.	Sarmoya egasi, egalari	– sarmoyani saqlash va ko'paytirish; – muntazam foyda olib turish; – pirovard ravishda hal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqi.
2.	Menejerlar	– foyda olish va firmaning rivojlanishini ta'minlash; – xususiy manfaatlar (mukofot, mustaqil bo'lish, hukmdor bo'lish).
3.	Yollangan xodimlar	– yuqori ish haqi; ish joyini yo'qotmaslikka ishonch; – yaxshi mehnat sharoitlari va yuqori darajadagi ijtimoiy himoya.
	II.Tashqi muhit:	
1.	Davlat va jamoatchilik	– ish joylarini yaratish, ijtimoiy holat; – dunyo bozorida raqobat qilish qobiliyati; baho darajasining bir me'yorda saqlanishi; – yakkahokimlikka qarshi kurash choralari bilan bozor munosabatlarini qo'llab-quvvatlash; – atrof-muhitni va iste'molchilar manfaatlarini himoyalash.
2.	Xomashyo yetkazib beruvchilar	– yuqori daromad va kam xarajatlar; shartnoma aloqalarining barqarorligi.
3.	Kreditorlar	– yuqori foizlar; – kreditni qaytarish kafolati; – firmaga ta'sir etish imkoniyati.
4.	Iste'molchilar	– keng tanlov imkoniyati; – mahsulotning yuqori sifatda bo'lishi; – bahoning past darajada bo'lishi; – servis xizmatining yuqori darajada bo'lishi.

5.2. Tadbirkorlik va kichik biznesning davlat tomonidan himoya qilinishi

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilgan. Ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu sohaga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, me’yoriy hujjatlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotining asosini turli shakllarda amal qiladigan mulk tashkil etadi. Davlat iqtisodiy faoliyat erkinligini, tadbirkorlikni, barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy himoyasini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari singari daxlsiz va davlat tomonidan himoya qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyatining qonuniy asoslarini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida 1995-yilning dekabrida «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan edi. 1997–99-yillarda bu borada yana uchta – «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida», «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatalari to‘g‘risida», «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Nihoyat, 2000-yilning 25-martida ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish kafolatlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining yangi qonuni kuchga kirdi.

Shunday qilib, mamlakatimizda tashkil etilgan tadbirkorlik tizimini rivojlantirish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni yanada rivojlantirib borishga, shu asosda bozorni turli mollar bilan to‘ldirishga, narx-navoni arzonlashuviga, aholi turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

5.3. Kichik biznesda tadbirkorning faoliyati

Ma’lumki, bozor iqtisodiyotining mohiyati har bir fuqaroning ijodiy va mehnat faoliyatini takomillashtirish, boqimandalikka barham berish,

tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkka egalik tuyg'usini kuchaytirish, unga ishlab chiqarishga bo'lgan hukmronlik hissini singdirish, ishlab chiqarishni iste'molchi manfaatiga bo'ysundirish, ularning mahsulotga bo'lgan talabini aniq hisobga olib, shunga yarasha tezlik bilan ish tutish, xo'jalikda tejamkorlikka erishish, xarajatlarni kamaytirish, talon-taroj va suiiste'molchilikka qarshi kurash, yangiliklarga nisbatan sezgir bo'lish va fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini dadil joriy etishdan iborat. Mana shular hayotga tatbiq etilgandagina xalqimiz har qanday iqtisodiy tanglikdan tezroq chiqib olishi va farovon hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Endilikda bozor iqtisodiyoti turli xizmatlar ko'rsatish, tovarlar ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash munosabatlarining barcha sohalarini borgan sari keng qamrab olmoqda. Bu jarayon o'z navbatida har bir fuqarodan tadbirkorlik va biznes bilan ish ko'rishni, tadbirkor faoliyatini tobora rivojlantirib borishni taqozo etmoqda.

5.4. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli nihoyatda chuqur mazmunga ega bo'lgan kitobida respublikamizning mustaqillikka erishgan kunidan boshlab, to shu kungacha o'tgan davrda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda qilingan ishlar, erishilgan yutuqlar har tomonlama chuqur tahlil qilindi. Shu bilan birga kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy ishlar aniq belgilab berildi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi.

«Mehnat ko'p talab qilinadigan va xizmat ko'rsatish sohalari, qishloq joylarda kichik korxonalar tashkil etilsa va tez rivojlantirilsa, tadbirkorlik rag'batlantirilsa, hunarmandchilik-kosibchilik va xalq badiiy ustachiligi qayta tiklansa, respublika uchun g'oyat muhim muammo hal etiladi».[1] Shu sababli, tadbirkorlik va biznes sohasida mulkdor duch keladigan muammolarni yechish, unga keng yo'l ochib berish, ko'plab haqiqiy mulk egalarini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohotlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki:

[1] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995. 241-b.

Birinchidan, tadbirkorlik va biznes rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat yirik biznesning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishi, aholini ish bilan ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining yechimi ham ana shu tarmoqning nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liq.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida jahon bozorida raqobat yanada kuchayadi. Bunday sharoitda aynan tadbirkorlik va biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag' sarfini ham talab qilishi, ixchamligi bilan bir qatorda, zarur tamoyillarga, bozor konyunkturasining o'zgaruvchan talablariga hamda vaqt-vaqti bilan bo'lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha olish, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga ega.

Bizning tahlillarimiz bo'yicha, dunyo bozorida iste'mol mollari konyunkturasi hozirgi zamon sharoitida o'rtacha har 9 oyda o'zgarib turadi. Agar shuni hisobga olsak, tadbirkorlik va biznes iqtisodiyotning izchil rivojlanishida nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekani yaqqol ko'rinadi.

Ayni vaqtda ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatli va raqobatbardosh bo'lishiga erishish, bu ishni katta sarmoya va kapital mablag'larga ega bo'lmagan holda amalga oshirish zarur edi.

«Mana shuning uchun kichik korxonalarning, xususiy tadbirkorlikning ahamiyati nechog'li beqiyos ekanini isbotlab o'tirishga hojat yo'q»,[1] - deb ko'rsatdi Prezidentimiz I.Karimov.

Masalaning boshqa yana bir o'ta muhim jihati ham mavjud. Mamlakatimizdagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatini inobatga oladigan bo'lsak, bizda aholi, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o'sib bormoqda. Ularning soni yiliga taxminan 200-230 ming kishiga ko'paymoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ortiqcha ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish – mamlakatimizdagi eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir.

---

[1] Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir: 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza // Xalq so'zi gazetasi. – 30.01.2010.

Bizningcha, bu vazifani hal etishning eng samarali yo'nalishlaridan biri:

– kichik biznes korxonalar sonini ko'paytirish;

– xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Bundan tashqari, mamlakatimiz aholisining katta qismi deyarli 60 foizi qishloq joylarda yashaydi. Bugungi kunda aynan qishloq joylardagi odamlarni ish bilan band qilish, daromad manbalari bilan ta'minlash, ayniqsa, keskin muammo bo'lib turibdi. Bu muammo yer va birinchi galda, suv resurslarining cheklanganligi bilan bog'liqdir.

Tabiiyki, bu masalani qishloq xo'jaligi o'z holicha hal qila olmaydi. Buning ustiga, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish ishchi kuchlarini kamaytirib borishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida qishloq aholisini ish bilan ta'minlash borasida yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Bizning nazarimizda, qishloq joylarida, birinchi galda, tadbirkorlik va kichik biznesning jadal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish orqali yangidan-yangi ish joylarini tashkil etish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan tadbirkorlik va biznes tizimini rivojlantirish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bu esa o'z navbatida tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirib borishga, shu asosda bozorni turli mollar bilan to'ldirishga, narx-navoning arzonlashuviga, aholi turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

5.5. Tadbirkorlik tamoyillari

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek «Bugungi kunda aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lgan bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash o'quvchi-yoshlarni oila sharoitida tadbirkorlikka yo'llash uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarish korxonalari sonini oshirish;
- qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes subyektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalarini ko'paytirish;
- qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish;
- qishloq joylarda ish o'rinlari sonini ko'paytirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish va kengaytirish;
- ko'p mehnat talab qiladigan keng ko'lamli soha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Qisqa xulosa

Bozor iqtisodiyotining mohiyati har bir fuqaroning ijodiy va mehnat faoliyatini takomillashtirish, boqimandalikka barham berish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkka egalik tuyg'usini kuchaytirish, unga ishlab chiqarishga bo'lgan hukmronlik hissini singdirish, ishlab chiqarishni iste'molchi manfaatiga bo'ysundirish, ularning mahsulotga bo'lgan talabini aniq hisobga olib, shunga yarasha tezlik bilan ish tutish, xo'jalikda tejamkorlikka erishish, xarajatlarni kamaytirish, yangiliklarga nisbatan sezgir bo'lish va fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini dadil va g'ayrat bilan joriy etishdan iborat. Mana shular hayotga tatbiq etilgandagina xalqimiz har qanday iqtisodiy tanglikdan tezroq chiqib olishi va farovon hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ushbu bobda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik va biznesning davlat tomonidan himoya qilinishi, kichik biznesda tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik va biznesning bugungi kunda iqtisodiyotda tutgan o'rni xususida atroflicha fikr yuritilgan va bu mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotlar berilgan.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini misollar asosida gapiring.
2. Nima uchun tadbirkorlik va kichik biznes davlat tomonidan himoya qilinadi?
3. Kichik biznesda tadbirkorlik faoliyati qanday bo‘ladi?
4. Tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini asoslab bering?
5. Tadbirkorlik muhitini yaratish qanday o‘rin tutadi?
6. Tadbirkorlik faoliyatida qanday kasb egalari bo‘lishi mumkin?
7. Tadbirkorlik va biznes qanday tamoyillarga asoslanadi?
8. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlash muammolari bo‘yicha Sizning fikringiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. E.Xo‘jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

2. E.Egamberdiyev, H.Xo‘jamqulov. Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: «Ma’naviyat», 2003.

3. N.Xo‘jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika (O‘quv qo‘llanma). – T.: TDIU, 2002.

4. V.A.Chjen. O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi. – T.: 1995.

5. Sh.Sh.Shodmonov, R.H.Alimov., T.T.Jo‘rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

VI bob. ZAMONAVIY IQTISODCHI FAOLIYATINING TAHLILI

6.1. Zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar.
6.2. Tadbirkor – iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi.
6.3. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch.
6.4. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili.

6.1. Zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi shu bilan tushuntiriladiki, uzoq davrli iqtisodiy evolutsiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik qoidalari saqlanib qoldi.[1]

Tadbirkorlikning muhim xususiyatlari – uning harakatchanligi va jo'shqinligidir. Tadbirkor o'zining fikri bo'yicha muvaffaqiyatga olib keluvchi yangi harakat usullarini, mahsulot turini va texnologiyani, iste'molchilar doirasini, mahsulotini va ko'rsatadigan xizmatining sifatini yaxshilash yo'llarini tinimsiz qidiradi. Tadbirkor shunday insonki, u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jamlashtirib, yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi yoki ishni tashkil etishning takomillashgan usulini yaratadi.

Markazlashtirilgan iqtisoddan bozor iqtisodiga o'tish, venchur kapitali, ma'lumotlar vositalari, bozorlari taraqqiyoti tashabbuskor faoliyat uchun keng imkoniyatlar va erkinliklarni ta'minlaydi. Tadbirkorlar yirik byurokratik tashkilotlarning zamon bilan hamnafas qadam qo'yishga qobiliyatsizligini boshqalardan aniqroq ko'ra oladi. Shaxsiy javobgarlik, ixtirochilik va muomala san'ati negizida tashkil bo'lgan korxonalar bugungi, tinimsiz o'zgarib turuvchi, imkoniyatlardan foydalanishga ko'proq qobiliyatlidirlar.

[1] Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. –T., «Moliya», 2002.

Tadbirkor va biznes bilan shug'ullanuvchilar harakatchanlik, jo'shqinlilik, moslashuvchanlik va yangilikka intiluvchanlikka asoslangan zamonaviy xo'jalik yuritish usulini amalga oshirib, o'zining mavjudligini eslatib turadi. U axborot to'plab, odamlarga rahbar bo'lib, qarorlar qabul qiladi, ishni tashkil etadi, yangi turdagi mahsulot va xizmat turini ishlab chiqaradi yoki eskisini takomillashtirish yo'llarini izlaydi.[1]

Muammoni yechishning har xil yo'llarini izlash, ularni tanlash va o'zgartirish faqat ular bo'yicha muqobil spektrning mavjudligiga bog'liq. Bu esa tadbirkorlik, biznes va bozor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni belgilab beradi hamda bozor munosabatlari sharoitidagina iqtisodiy kenglikdagi maqsadga muvofiq harakat usulini tanlash erkinligi paydo bo'ladi.

Bizningcha, faqat bozor munosabatlari sharoitidagina iqtisodiy kenglikdagi maqsadga muvofiq harakat usulini tanlash erkinligi paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi korxonalarni uzoq va noma'lum davrga mo'ljallangan reja va topshiriqlarni bajarish uchun tashqi muhitga moslashishiga majbur qilar edi. Bozor sharoiti esa korxonalarning birinchi darajadagi diqqat-e'tiborini tezlik bilan tadbirkorlik muhitiga moslashuvga qaratishni talab qiladi.

Tadbirkor faqat bozorda qandaydir mahsulot yoki ish kuchining yetishmasligiga emas, balki ularni haddan tashqari ko'pligiga ham tezkorlik bilan diqqat-e'tiborini qaratadi.

Shuningdek, tadbirkor tashabbuskor kishi bo'lib, ishlab chiqarishga keng spektrdagi yo'nalishlar bo'yicha yangiliklar kiritadi, ya'ni novatorlik g'oyalarini o'zlashtirish, hozirgacha ma'lum bo'lmagan mahsulotlarni yaratish, yangi, istiqbolli resurslarga egalik qilish, kapitalni qo'yish uchun yangi sohalarni tanlash, ilg'or tarmoqlarni rivojlantirish kabilarni amalga oshiradi.

Tadbirkor uchun ijodiy faoliyat xayolning cheksiz parvozi emas, u hamma vaqt aniq muhitda qilinadigan qarorlar bilan bog'liq bo'ladi, sarf-xarajatlarni natija bilan taqqoslash va xo'jalik yuritishning eng kamxarajat yo'llarini topish, bugungi kunning tadbirkori uchun xos bo'lgan xususiyatdir.[2]

Hamdo'stlik davlatlaridagi taraqqiy topgan jamiyat qurishga qaratilgan keskin o'zgarishlar, bugungi kunda, hayotning barcha

---

[1] S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T., «Sharq», 2002.

[2] Yo.Abdullayev. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2002. 54-bet.

sohalarini egallab oldi. Bu murakkab va qarama-qarshiliklarga boy jarayondir. U doimo negizi bizning davlatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jamoatchilik munosabatlari tarixida chuqur kirib ketgan og'riqli muammolarga duch keladi. Ammo bu muammolarning hech qaysisi, yadrosini erkin tadbirkorlik va biznesni tashkil qiluvchi, muqobil iqtisodiy asosini yaratish muammosi kabi dolzarb emas. Uning atrofida, hozirda, ijtimoiy his-tuyg'ular junbushga kelmoqda, har xil nuqtayi nazarlar bilan bir-biriga qarshi turuvchi siyosiy kuchlar bu masalada o'yin ko'rsatmoqdalar.

Keyingi yillarda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada samaraliroq yuritishga, ishlab chiqarishni markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o'tkazishga qat'iy belbog'laganligini bildiradi. Bu haqida hukumatimizning biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish bo'yicha qo'yayotgan qadamlari ham dalolat berib turibdi.

Ammo bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, obod va farovon jamiyat qurish shartlari faqat puxta ishlangan dasturlar bilangina cheklanmaydi. Shu bilan birga, endigi taraqqiyot, iqtisodiy qonunlarni hisobga olgan holda bozorni boshqarish san'atini qanchalik chuqur egallashga ham bog'liq. Iqtisodiy bilim sohasidagi bo'shliqni to'ldirish, kishilarda yuksak iqtisodiy madaniyatni shakllantirish payti keldi. Bundan keyin iqtisodiy bilim asoslarini puxta egallamasdan xususiy biznes ishini boshlash va rivojlantirish amri mahol. G'arb va Sharq tuzilmalarida amal qiladigan «o'yin qoidasi»ni bilmasdan turib chet ellik hamkorlar bilan qo'shma tadbirkorlikda ham biron-bir jiddiy natijalarga erishish qiyin.

Jahon xo'jaligi rivojlanishi tarixi shundan dalolat beradiki, *tadbirkorlik* iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Haqiqiy tadbirkor ijodiy faollik va ishbilarmonlik fazilatlarini o'zida ifoda etar ekan, iste'molchilar talablarini o'rganish va uni qondirishga harakat qiladi.

Dastlabki avtomobillar, samolyotlar, sovutgichlar, fotoapparat va videokameralar hamda boshqa ko'pgina tovarlarni keng ko'lamda ishlab chiqarish aynan iste'dodli va ishbilarmon tadbirkorlar tomonidan yo'lga qo'yilgan. Hamfikr bo'lib, texnik yangiliklar ustida yakdillik bilan ishlagan kam sonli tadbirkorlar jamoasining keyinchalik moliyaviy jihatdan ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan yirik firmalarga aylanib ketganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Shu o'rinda butun

dunyoga mashhur «Xonda», «Ford», «Maykrosoft» firmalarining nomini keltirish kifoya.

Bugungi kunda zamonaviy iqtisodchi doimiy asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishidir. U dadil, muhim va murakkab maqsadlarni o'z oldiga qo'yib, amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va tavakkalchilik asosida ish yuritadi.

Zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar jamiyat taraqqiyotiga muvofiq ravishda bosqichma-bosqich boyib, takomillashib bordi. Zamonaviy iqtisodchi taraqqiyotining ilk bosqichida, masalan, tavakkalchilik hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, keyinchalik iqtisodchining boshqa xususiyatlari tadrijiy ravishda oldinga chiqa boshladi. Bu xususiyatlarga, eng avvalo, bozor imkoniyatlarini izlab topish va tadqiq qilish, ulardan foydalanish, novatorlik g'oyalarini amalga oshirish kiradi. Qolaversa, endi izlanuvchanlik, yuzaga kelgan yangi imkoniyatlardan maqsadga muvofiq foydalanish, sifatli tovarlar ishlab chiqarish, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, yangiliklardan xabardor bo'lish, iste'molchiga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini izlab topish, investitsiya kiritishga yangi sohalar axtarish muhim amaliyot kasb etadi.

6.2. Tadbirkor – iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun iqtisodiy resurslar: yer, mehnat resurslari va kapital zarur. Biroq bu resurslarning mavjud bo'lishi ishlab chiqarish jarayonida amalga oshadi, degan ma'noni anglatmaydi. Ularni bir joyga to'plash va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish zarur.

Bu vazifani odatda iqtisodchi-tadbirkor bajaradi. Iqtisodchi ushbu resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga birlashtiradi, ulardan foydalangani uchun mas'uliyat hamda iqtisodiy xavf-xatarni o'z bo'yniga oladi va haq to'laydi. Shu bilan birga zamonaviy iqtisodchi-tadbirkorning o'zi ishlab chiqarishning to'rtinchi omili sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda tadbirkor ishlab chiqarish omillari orasida markaziy o'rinni egallaydi, chunki u qolgan iqtisodiy resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga birlashtiradi.

Tadbirkor o'zining faoliyatini tashkil etish uchun dastavval kapitalga ega bo'lishi lozim. Tadbirkorlik kapitali quyidagi manbalar

hisobiga shakllanadi: *xususiy, qarz-kredit va qo'shma yoki hamkorlikdagi kapital.*

Xususiy kapital – tadbirkorning eng muhim va hal qiluvchi amaliyotga ega sarmoyasidir. Tadbirkor ish boshlashi uchun, avvalo ma'lum miqdordagi xususiy, erkin ishlatish mumkin bo'lgan pul mablag'iga ega bo'lishi zarur. Busiz uning javobgarligi haqiqiy va bozor sharoitida ish yurituvchi tadbirkor-sohibkor darajasida bo'lmaydi.

Tadbirkorlik qobiliyati moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ishchi kuchining samarali birikishini, iqtisodiy faoliyatdan maqsadga muvofiq natija olishni ta'minlaydi. Shuning uchun tadbirkor ishchi kuchi va moddiy omillar xususiyatlarini, ularning bozor narxlarini hisobga olishi lozim. Bu esa tadbirkorda boshqaruvchilik fazilati mavjud bo'lishini taqozo etadi.

6.3. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch

Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy kuch – foyda yoki tadbirkorlik daromadini olishdir. Shu maqsadga erishish uchun iqtisodchi-tadbirkor o'z qo'l ostidagi ishlab chiqarish vositalaridan, yollangan ishchi kuchlaridan umumiy foydalanib, o'z faoliyatini bozor talablariga moslashtiradi, zarur mahsulotlarni ishlab chiqarishga, xarid qilishga, sotishga, raqobatlashuvda faol qatnashishga harakat qiladi.

Zamonaviy iqtisodchi o'z ishi ustida astoydil mehnat qilar ekan ham o'zi foyda oladi, ham jamiyat farovonligiga o'z hissasini qo'shadi.

Zamonaviy iqtisodchida o'z mulkiga egalik qilish hissi yuqori bo'lib, u bunday tuyg'uning qadriga yetadi, uni ko'z qorachig'iday asraydi, rivojlantiradi. O'z mahsulotini bozor talablariga to'la javob beradigan darajada sifatli qilib chiqarishga harakat qiladi.

Tadbirkorlik deganda, avvalo, yangicha ishlash, yangi mahsulot, yangicha xizmat xillarini yaratish, yangi texnologiya va ularni qo'llash tushuniladi. Tadbirkorlik samaradorligi yangi ishlab chiqarish fan yangiliklari va yangi texnologiyani joriy qilish darajasi bilan belgilanadi.

Demak: Tadbirkorlik, avvalo yangilik bilan, yangi texnologiya bilan bog'liqdir, ya'ni u innovatsion tadbirkorlikdir.

Yangilikning darajalari sifatida, ular quyidagi uch ko'rinishda bo'ladi:

- oddiy yangilik;

- texnologik yangilik;
- inqilobiy kashfiyot.

Oddiy yangilik – tovardagi to‘xtovsiz o‘zgarishlar, ularning takomillashib borishidan iboratdir. Tovarlar xususiyatlarining yangilanib borishi, iste’mol qulayliklarini kengaytirib borish shular jumlasidandir.

Texnologik yangilik – xomashyolarni, materiallar, energetika xillarini o‘zgartirish, ishlab chiqarishning yangi usullarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bunda avtomatlashtirish, kimyoviy usullar juda qo‘l keladi.

Inqilobiy kashfiyot – yangi xil tovarlar va ularning majmuasi, ishlab chiqarishning tub o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bunda yangi tarmoqlar yuzaga keladi. Masalan, kompyuter tizimi, elektronika, videotexnika, yangi aloqa vositalari, kosmetika shular jumlasidandir.

Texnologiya iqtisodchi-tadbirkorlarga nimagadir erishish, yangilikni sinab ko‘rish, o‘z o‘rnini topish va o‘z mustaqilligiga ega bo‘lish kabi maylларni harakatga keltirib turadigan shaxs sifatida qaraydi. U faqat o‘z boyligigina emas, milliy boylikni ham ko‘paytiradi, ishlab chiqarish omillarini yaxshiroq ishga solish va birlashtirish usullarini izlab topadi, yangi ish joylarini vujudga keltiradi, yangiliklarni amalga oshiradi.

Shu sababli zamonaviy tadbirkorlikni, hozirgi paytda mavjud resurslardan qat’i nazar, texnologiyaga, bozorga doir imkoniyatlarni izlash va ishlab chiqarish sifatida ta’riflasa bo‘ladi.

6.4. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili

Bizning tahlillarimizcha, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi idoralari, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va boshqa ko‘plab mulkchilik shakllari o‘z faoliyatlari yangi iqtisodiy bozor o‘zgarishlariga moslashtirishlari uchun ularda faoliyat ko‘rsatuvchi boshqaruv xodimlari zamonaviy iqtisodiyot fanlaridan va ularni rivojlanish jarayonlaridan xabardor bo‘lishlari hamda ushbu fanlarning yutuqlaridan o‘z faoliyatlarida ishlata olishlari zarur. Masalan, bozorni, talab va taklifni o‘rganmay turib, biror mahsulotni ishlab chiqarish, tijorat va vositachilik ishlari bilan shug‘ullanishni yo‘lga qo‘yish, ish yuritish borasidagi to‘la savodsizlikdan dalolat beradi. Bu holat har bir iqtisodchi uchun oydek ravshandir.

Bizning nazarimizda, ko'p hollarda iqtisodiy fanlardan xabardor, ularni ma'lum darajada keng o'rganayotgan mutaxassislar ham har taraflarga e'tibor bermay turli xavf-xatarlarga, yo'qotishlarga yo'l qo'yadilar. Umuman olganda, iqtisodiy fanlardan to'g'ri foydalanmay, iqtisodiy qonunlarni buzganimizda turli xil yo'qotishlarga duch kelamiz. Fikrimizning dalili sifatida minglab olim va mutaxassislarning izlanishlari asosida boshqarilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi muvaffaqiyatsizlikka uchraganini ko'rsatishimiz mumkin. Bunday muvaffaqiyatsizlikning asosiy sabablaridan biri rahbar xodimlar va amaldorlarning iqtisodiy qonunlarga bo'lgan e'tiborsizligidir.

Shu sababli, mamlakatimizda Prezidentimiz I.Karimovning shaxsiy tashabbuslari bilan iqtisodiy fanlarni har tomonlama chuqur o'rganish va shu fanlar asosida ish yuritishni tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, universitetimizda har yili o'tkazilib kelinayotgan «Iqtisodiy ta'lim» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy ta'limning nazariy uslubiy asoslari to'g'risida fikr yuritilishi va iqtisodiy fanlarni o'rganishda boshqa fanlar taraqqiyotida yaratilgan ilg'or ilmiy asoslangan uslublardan kerakli o'rinda foydalanish zaruriyati haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Masalan, dasturlarni o'rganishda ta'lim texnikasini yo'naltirish uchun mutaxassislar matematika, kibernetika va boshqa ilmlarning yutuqlaridan keng foydalangan holda ish yuritadilar. Yoki tibbiyot xodimlari inson salomatligi haqida jon kuydirganida, unga murakkab tizim sifatida e'tibor beradilar. Yoki jarroh o'z operatsiyasini boshlashdan oldin kasalni har tomonlama o'rganib, unga munosib keladigan davolash uslublarini aniqlaydi, so'ngra jarrohlik qonun-qoidalariga rioya etgan holda ish boshlaydi. Yuqorida keltirilgan misollarda mutaxassislarning bunday ish yuritishiga sabab, ular ishining qisqa fursatda natija berishidir. Ammo iqtisodiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, iqtisodiy amaliyotlarning natijasi qisqa muddatda sezilmay, katta talofatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa iqtisodiy qonuniyatlarni yosh mutaxassislarga har tomonlama puxta va to'liq o'rgatish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Aniqroq qilib aytganda, bizning dasturimizda matematika fanining iqtisodchilarga o'rgatiladigan qismlari: algebra, matematik tahlil, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, iqtisodni modellashtirish, iqtisodiy axborotlar tizimi, kompyuter texnologiyasi, iqtisodiy-miqdoriy tahlil va qaror qabul qilishning matematik modellari, iqtisodiy statistika

va shu kabi aniq fanlarni iqtisodchi mutaxassislarga o‘rgatishni zamonaviy uslub va usullarini ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish zarurdir.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, iqtisodiyotni tarkibiy takomillashtirishda kompaniyachilikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, u birdaniga takomiliga yetib ham qolmaydi. Bu o‘zgarishlar muntazam da’vat etadigan ijtimoiy iqtisodiy jarayon bo‘lib, ular davr talabi va iqtisodiy siyosatdan kelib chiqib, tarmoqlararo hamda tarmoqlar ichida to‘xtovsiz davom etaveradi. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti tan oladigan tarmoqlar rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarishda ularning hissasi oshib boraveradi.

Monitoring maqsadi ta’lim muassasalari va ta’limni boshqarish organlarining ta’lim sohasida qabul qilingan hukumat qarorlarini amalga oshirish, ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish, talabalar bilim sifatini oshirish bilan bog‘liq faoliyatlarni o‘rganish va tahlil etish, aniqlangan kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish hamda muassasalar jamoalariga moddiy yordam berishdan iboratdir. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi, ya’ni:

Birinchidan – islohotlar bilan bog‘liq hujjatlar, yangiliklarning mazmuni, qanchalik qabul qilinishi idrok etilsa va, albatta, mazkur jarayonlarga qancha tez kirishilsa, yakuniy natijalar ham shunchalik salmoqli bo‘ladi.

Ikkinchidan – tashkiliy pedagogik ishlarning to‘g‘ri tashkil etilishi, ya’ni zamonaviy talablarga javob beruvchi, uzluksiz iqtisodiy ta’limning rivojlanishiga samarali ta’sir etuvchi, takomillashtirishga ijobiy yo‘l ochuvchi faoliyatning tegishli dasturini belgilash, ish uslubi va yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqish, maqbul ko‘rinishlarning mexanizmlarini ko‘rib chiqish.

Uchinchidan – kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar jarayonida mutaxassislarga fan bo‘yicha monitoring xizmati tizimining sir-asrorlarini o‘rgatish.

To‘rtinchidan – monitoring jarayonida yangi informatsion texnologiyalardan keng foydalanish, ma’lumotlarni xalqaro ta’lim andozalari asosida unifikatsiya qilish, olingan bilimlarning natijasini amalga oshirish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish mexanizmlarini tashkil etishda talabalarga uzluksiz iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishning monitoringini olib borish uchun:

– uzluksiz iqtisodiy ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini joriy etish mexanizmi aks etgan uslubiy qo'llanma va tavsiyalar;

– «Iqtisodiyot asoslari», «Kasb iqtisodi asoslari» «Mutaxassislikka kirish» fanlari bo'yicha darslarni rejalashtirish va darsliklardan foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar;

– iqtisodiyot fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan minimal talablar hamda namunaviy nazorat materiallari (test topshiriqlari, yozma ishlar, krossvordlar, muammoli vaziyatlar va boshqalar) va unga taalluqli manbalar;

– monitoring tahlillari va natijalarini mujassamlashtirish, aniqlangan ilg'or tajribalarni targ'ibot qilish maqsadida monitoring; muammolar, izlanishlar, yechimlar tenglamasi asosida yutuqlar, muammolar va navbatdagi vazifalarni belgilash zarur bo'ladi.

Bizning nazarimizda, uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiyani talabalarga berish jarayonida mavjud tasdiqlangan o'quv rejalarining o'zlashtirilishi va doimiy monitoring olib borish, fan bo'yicha sifat va o'zlashtirish darajasini aniqlash va zamin ta'minlash uchun poydevor bo'ladi. Bu darajalar ham shartli ravishda uchga bo'linadi, ya'ni:

1. Minimal daraja – iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha har bir talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan tayanch mazmundir. Bu daraja bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun poydevor vazifasini o'taydi va u barcha uchun majburiy hisoblanadi.

2. Asosiy daraja – oliy ta'lim doirasida minimal darajaga nisbatan to'liqroq va chuqurroq ma'lumot berishni nazarda tutadigan bilimlar hajmi.

3. Ixtisoslashtirilgan daraja – iqtisodiy bilim asoslari fanidan beriladigan bilimlarga qiziqadigan, bu bilimlarni muvaffaqiyatli tarzda chuqur o'zlashtirishga qodir bo'lgan o'quvchi va talabalarga mo'ljallangan maxsus bilimlar hajmi.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim monitoringini olib borish mexanizmi quyidagi tartibda amalga oshirilishi taklif etiladi:

– iqtisodiy ta'lim davlat standartlari asosida yaratilgan o'quv dasturlarini o'rganib chiqib, tahlil qilish nazoratini olib borish, shuningdek, muassasa ma'muriyati tomonidan talabalar, ularning ota-onalarining DTS bilan tanishib chiqishlari uchun sharoit yaratadi;

– muassasa rahbariyati iqtisodiy ta'lim uzluksizligini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlarini o'quv dasturlari bilan birgalikda

bosqichma-bosqich belgilangan tartibda joriy etilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, bu faoliyat doimiy ravishda kerak bo'ladi;

– monitoring olib borish natijasida ta'lim muassasasi o'qituvchilari, talabalarning DTS va o'quv dasturlari asosida tayyorlangan darslik, uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar va boshqa o'quv metodik materiallar bilan ta'minlanganini doimiy nazorat qilish imkonini beradi;

– tashqi nazorat ishlari uchun monitoring o'tkazishga sharoit yaratiladi;

– pirovard natijada talabalarning belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga erishishlari natijalari monitoringini o'tkazish ta'minlanadi;

– o'qituvchilar tomonidan darslarni samarali o'tkazilishida DTS va o'quv dasturlari uzluksizligi asosida tayyorlangan ish materiallari, didaktik materiallar va boshqa o'quv uslubiy materiallardan, o'zining ijodiy ishlaridan keng foydalanish uchun sharoit yaratiladi;

– o'qituvchilar va tashqi nazoratchilar tomonidan har yarim yillik yakunlar bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalari orqali talabalarning iqtisodiyot faniga oid tegishli o'quv dasturini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichini aniqlashga qaratiladi;

– iqtisodiyot fani bo'yicha o'qituvchilardan olingan monitoring tahlillari asosida guruhlar kesimida tahlilnoma jadvali tayyorlanadi va o'zlashtirilishi past bo'lgan talabalar bilimini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilashga imkon yaratiladi;

– ta'lim muassasalari rahbariyati va tashqi nazoratchilar tomonidan o'tkazilgan monitoring natijasida yuqori ko'rsatkichga erishgan yoshlarni, o'qituvchilarni rag'batlantirishga tavsiya etishga sharoit yaratiladi;

– ta'lim muassasasi o'qituvchi pedagoglarning DTSni joriy etish yuzasidan ilg'or tajribalari va yangi pedagogik texnologiyalari bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazilib, munosib ishlar olib boriladi va ommalash-tiriladi;

– muntazam ravishda DTMni joriy qilish va monitoring olib borish, monitoring natijalari yuzasidan talabalarga hamda ularning ota-onalariga muntazam ravishda ma'lumot berib boriladi.

Iqtisodiyot har bir kishi, oila va umuman jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy ahvolga qarab ijtimoiy hayot shakllanadi. Xalqimizda «Oldin iqtisod, so'ngra siyosat» degan ibora bejiz ishlatilmaydi. Iqtisodiyot bizning nafaqat bugungi, balki ertangi kunimiz, hozirgi va kelajakdagi farovonligimizdir.

Biz bozor iqtisodiyoti tomon ilk qadamlarimizni qo'ydik. Hali aralash iqtisodiyot, moddiy to'kinchilik, taqchillik degan narsalar bo'lmagan, ishlab chiqarish rivojlanib gurkiragan eng ilg'or jamiyat tomon borishimizga qancha vaqt bor, bunday jamiyatga o'tish davrining bosqichlari va qancha davom etishini oldindan aytish qiyin. Shunday ekan, hozirgi kunning asosiy talabi – jamiyatimiz yoshlaridan, qolaversa, har bir fuqarodan uning bozor iqtisodiyoti qonunlarini, ularning O'zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonuniyatlarni ishlab chiqishga tatbiq etishni, pirovard natijada talab darajasida xizmat ko'rsatish va tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning sir-asrorlarini bilish kabi vazifalarni shart qilib qo'yadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

– iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun imtihon topshiradigan abiturientlar uchun tuziladigan test savollariga ko'proq iqtisodiy muammolar nuqtayi nazaridan yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ma'lumki, respublikamiz oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy yo'nalish bo'yicha test topshiruvchilar matematika, onatili adabiyot va chet tilidan imtihon topshiradilar. Ayniqsa, chet tilidan barcha yo'nalishlarga bir xil savollar tushadi. Bizningcha, iqtisodiy yo'nalish uchun chet tilidan tuziladigan savollar asosan, bozor iqtisodiyoti asoslari, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy muammolari xususida bo'lishi kerak. Bu ikki tomonlama afzallikka ega. *Birinchidan,* umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan iqtisodiyot va biznes asoslari darsiga bo'lgan e'tibor yanada kuchayadi. *Ikkinchidan,* oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan talabalarning ko'pchiligi iqtisodiyotning asoslari bo'yicha dastlabki zaruriy bilimlarga ega bo'lganliklari tufayli barcha darslarni yuqori darajada o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida «Iqtisodiyot asoslari» fani bo'yicha yuqori sifatli o'zbek tilidagi darsliklarning nihoyatda kamligini oldini olish kerak. Shuning uchun o'quv muassasalarida bir guruh yetakchi professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalardan tuzilgan shunday bir markaz faoliyat ko'rsatishi kerakki, bu markazda asosiy iqtisodiy darsliklarni tezda tarjima qilinishi yo'lga qo'yilishi kerak. Ana shundagina tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassislar yanada yuqori malakaga ega bo'lishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtlari mutaxassislar tayyorlash borasida buyurtmalar portfelini shakllantiradi. Shu portfelga asosan, qabul qilinadigan talabalar miqdori belgilanadi. Afsuski, hozirgi kunga kelib, oliy o‘quv yurtlarini tamomlayotgan ko‘plab iqtisodchi mutaxassislar o‘z ish faoliyatlarini egallagan ixtisosliklari bo‘yicha davom ettirmayaptilar, shuningdek, ulardan ayrimlari ish topish masalasida qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Buning asosiy sababi – buyurtmalar portfelini shakllantirishda marketing tadqiqotlariga yetarlicha e’tibor bermaslikdir.

Har bir oliy o‘quv yurti shu jumladan, iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari ham o‘zlarining marketing strategiyalarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yishlari kerak. Bunda ular o‘z iste’molchilari va buyurtmachilari bilan mavjud munosabatlarni qaytadan tadqiq etishlari, ertangi iste’molchilarni izlab topishlari, SWOT tahlilini amalga oshirishlari kerak. Bunday strategiyaning afzallik tomoni shundaki, *birinchidan,* oliy ta’lim muassasasi tashqi bozorni o‘rganish natijasida qanday yangi iqtisodiy mutaxassisliklarga talab mavjudligini bilib oladi va shu asosda keyinchalik imkoniyat doirasidan kelib chiqib shu mutaxassislik bo‘yicha iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yishi mumkin. *Ikkinchidan,* mavjud iqtisodiy mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarga nisbatan iste’molchi va buyurtmachilar tomonidan qo‘yiladigan yangidan-yangi talablar xususida zarur ma’lumotlarga ega bo‘lishi mumkin va shu asosda tayyorlash tizimini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. *Uchinchidan,* iste’molchining aynan qaysi mutaxassisliklarga asosiy ehtiyojlari mavjudligini hisobga olgan holda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtiradi.

Yana shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy xavf-xatarlarni boshqarish va loyihaviy moliyalashtirish sohalarida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish kerak. Chunki, har qanday rivojlanayotgan tizimda xavf-xatarlarni to‘g‘ri hisobga olib, qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi hamda iqtisodiy manfaat keltiruvchi turli xil loyihalarni o‘z vaqtida to‘liq moliyalashtirish manbalarini izlab topish ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Shunday qilib, bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirib borish zaruriyatini ustuvor darajaga ko‘taradi.

Qisqa xulosa

Bugungi kunda zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar jamiyat taraqqiyotiga muvofiq ravishda bosqichma-bosqich boyib, takomillashib bordi. Zamonaviy iqtisodchi taraqqiyotining ilk bosqichida, masalan, tavakkalchilik hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, keyinchalik iqtisodchining boshqa xususiyatlari tadrijiy ravishda oldinga chiqa boshladi. Bu xususiyatlarga, eng avvalo, bozor imkoniyatlarini izlab topish va tadqiq qilish, ulardan foydalanish, novatorlik g'oyalarini amalga oshirish kiradi. Qolaversa, endi izlanuvchanlik, yuzaga kelgan yangi imkoniyatlardan maqsadga muvofiq foydalanish, sifatli tovarlar ishlab chiqarish, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, yangiliklardan xabardor bo'lish, iste'molchiga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini izlab topish, investitsiya kiritishga yangi sohalar axtarish muhim amaliyot kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ushbu bobda zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar, tadbirkor – iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi, zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili, iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch kabilar xususida atroflicha fikr bildirilgan hamda kerakli ma'lumotlar asosida mavzu bo'yicha yetarli ma'lumotlar berilgan va eng asosiysi talabalarga ishonarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlarni ta'riflab bering.
2. Tadbirkor – iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi deganda nimani tushunasiz?
3. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchni ta'riflab bering.
4. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini tahlil qilib bering.
5. Biznes va biznesmen deganda nimani tushunasiz?
6. Tadbirkorlikni huquq va majburiyatlarini ko'rsatib bering.
7. Sizningcha, zamonaviy iqtisodchi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
8. «Oldin iqtisod so'ngra siyosat» iborasiga Sizning munosabatingiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. N.Xo'jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2002.

2. L.V.Peregudov, M.X.Saidov. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: «Moliya», 2002.

3. D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi – T.: «Fan va texnologiya», 2007.

4. E.Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

5. Sh.Sh.Shodmonov, R.H.Alimov, T.T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

6. www. bilimdon. uz. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy veb sayti.

VII bob. ZAMONAVIY IQTISODCHI VA UNING KASBIY HAMDA AXLOQIY XUSUSIYATLARI

7.1. Zamonaviy iqtisodchining kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar.

7.2. Zamonaviy iqtisodchining fan, madaniyat va hozirgi zamon texnologiya yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi.

7.3. Zamonaviy iqtisodchining axloqiy, ma'naviy xususiyati.

7.4. Zamonaviy iqtisodchida axloq me'yorlari.

7.5. Biznesmenning axloq kodeksi.

7.1. Zamonaviy iqtisodchining kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kitobi, Oliy majlisning birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasidan kelib chiqib, respublikamizda kasblar yo'nalishi bo'yicha zamonaviy iqtisodchi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Iqtisodchilar tayyorlashda iqtisodiyotga oid fanlarni o'rganish alohida o'rin tutadi. Chunki mutaxassislikka oid fanlarni chuqur o'zlashtirmay turib, boshqa fanlarni o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham zamonaviy iqtisodchilar o'zlari bu fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qiladilar.

Ma'lumki, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadini kelajakda amalga oshiradiganlar yoshlar, ya'ni bugungi kunning zamonaviy iqtisodchilaridir. Demak, jamiyatning kelajagi qanday bo'lishi ko'p jihatdan ularning intellektual va axloqiy jihatdan qay darajada kamol topishlariga bog'liq.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, axborotlarni haddan tashqari ko'pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, umuman olganda hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to'g'ri qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassislar qilib tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Har qanday iqtisodchi biror ishni boshlashdan oldin, eng avvalo, u ikki muhim omilni, ya'ni:

– mazkur vaqtdagi shart-sharoitni;

– o'zining tutgan o'rni va imkoniyatini aniqlab olishi zarur.

Birinchi omil bo'yicha zamonaviy iqtisodchi o'zining ish faoliyatini firma yoki korxonaning tashqi muhitga nisbatan quvvati va kamchiligi, shuningdek, tashqi muhitdan kelib chiqadigan imkoniyatlar va tahlillarni inobatga olib belgilashi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, birorta jiddiy ish boshlashdan oldin iqtisodchi:

– qaysi ishlab chiqarish sohasida ish yuritish;

– qancha pul sarflash;

– hozirgi sharoitda qanday sohalar boshqalardan ma'lum ustunlikka egaligi;

– talab va uning qondirilishini;

– o'zining imkoniyatlarini erinmay o'rganib chiqmog'i lozim.

Bunday tahlil firma faoliyatining holati va biznes rivojlanishining yo'nalishlarini, kelajakdagi istiqbolini baholashga imkon beradi.

Ishni boshlashning ikkinchi omili – bu zamonaviy iqtisodchining salohiyati va uning qaysi bir turdagi faoliyatni to'g'ri tanlab olish masalasidir. AQSHdagi faoliyat yo'nalishini tanlashdagi xato kishiga moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham bizdagiga qaraganda ancha qimmatga tushadi.

7.2. Zamonaviy iqtisodchining fan, madaniyat va hozirgi zamon texnologiya yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik va biznes rivojlanib, quyidagi ijobiy natijalarga erishishga sabab bo'ladi:

– ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni turli aholi qatlamlari o'rtasida haqqoniy me'yorlar ustunligida taqsimlash;

– ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga qobiliyatsizlar yoki beg'araz sabablarga ko'ra unumsiz ishlovchi a'zolarga mablag' ajratib, ularning yetarlicha kun kechirish darajasini ta'minlash;

– past daromadli shaxslar sotib olish qobiliyatining turg'unligini ta'minlash;

– insonning asosiy huquqlarini, ayniqsa, shaxsning erkin taraqqiy topishi va uni iqtisodiy taraqqiyoti uchun teng imkoniyati bilan ta'minlanish huquqlarining joriy qilinishini ta'minlash;

– iqtisodiy va ijtimoiy toifadagi guruhiy manfaatlarga rioya qilish va ularni taraqqiy toptirish, yakka shaxs va jamiyat, ish beruvchi va ishlovchilar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarining o'zaro moslashuvini ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan uzviy bog'liqdir. Unda erkin tanlangan hayotiy pozitsiya (holat), shaxs oldida mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkin tanlab olingan hayotiy vaziyat gavdalanadi. Shaxs, millat, insoniyat ma'naviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir etishi mumkinligi qadim-qadim zamonlardan beri ma'lum. Tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, siyosiy kuchlar hayot saboqlari, tarix tajribasi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini e'tiborga olib ma'naviyatni kuchaytirish, rivojlantirish yoki ma'naviy buhronni chuqurlashtirish orqali jamiyat, millat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishga harakat qilganlar.[1]

Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlari, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan ma'naviy muhit va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Barcha tushkunliklar, turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy inqirozlar esa ma'naviy buhronning natijasi bo'lgan. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar va yuksalishlarning sababini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillardangina emas, balki kishilarning ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, axloqiy kamoloti darajasidan ham izlash kerak.

7.3. Zamonaviy iqtisodchining axloqiy, ma'naviy xususiyati

Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson kamolotidagi katta ahamiyatini e'tirof etish, uning mohiyati va mazmunini ham ilmiy tahlil qilishni talab qiladi. Shu vaqtga qadar ijtimoiy fanlarda bu kategoriyaning mohiyati va mazmuni to'la yoritib berilgan emas.

Ma'naviyat tushunchasi mohiyati va mazmuni jihatidan murakkab va serqirradir.

Inson ongli faoliyati, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Shu sababli ham ongli tafakkur sohibi bo'lgan kishilarda, iqtisodchilarda ma'naviyatlilik bilan bir qatorda, ma'naviy qashshoqlik, qoloqlik hollari ham ko'zga tashlanadi. Agar

[1] E.Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

jamiyat hayotida ma'naviy qoloqlik, ma'naviy tubanlashish bo'lmaganda, ma'naviyat uchun kurashishga zaruriyat ham bo'lmas edi.

Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, imoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir.

Ilg'or g'oyalar va yangiliklarning targ'ibotchisi bo'lgan zamonaviy iqtisodchi-pedagoglar eng madaniyatli, ma'naviyati o'ta boy insonlar bo'lib, bu fazilat ularning yurish-turishida, fe'l-atvorida, kiyinishida, oilada, ish joyida, odamlar bilan madaniy muomala qila bilishida, jamoat joylarida o'zini tuta bilishi, nutq madaniyati, ma'naviyati, insoniy fazilatlarida o'z aksini topadi. Bu fazilatlar har bir zamonaviy iqtisodchining go'zal ichki dunyosining tashqi ifodasidir.

Zamonaviy iqtisodchining ma'naviyati deganda odob va iqtidor o'rtasidagi dialektik bog'lanish tushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuasida o'z aksini topadi:

ADAB – aqlning suyanchig'i, barcha fazilatlarning mezoni. Adab – yaxshilik bilan yomonlikning farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovutni anglashdir. Adab vositasida kishi o'z jonini yomon xislatlardan davolaydi, yoqimsiz ayblardan poklaydi, chiroyli fazilatlardan bezaydi.

Adab zamonaviy iqtisodchini eng chiroyli xulq bilan qurollantiradi. Natijada aql egalari bunday tadbirkordan har ishda rozi bo'lishadi. Adabli tadbirkorning kundan-kunga obro'-e'tibori, nufuzi oshib, ishlari ravnaq topadi.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti jarayonida ma'naviyatning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq va odob inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning kamolotiga zamin yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'ladi. Demak, har bir inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va axloq normalarini, bilim va ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, kasb-hunar sohibi bo'ladi, malaka orttiradi, o'z qobiliyati va iste'dodini biror yoki bir necha sohada to'la namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Axloq, odob, bilim, iste'dod zaminida e'tiqod, ixlos, vijdon, imon shakllanadi.

Umuman olganda, ma'naviyatning bu jihatlari birgalikda insonda ijtimoiy, moddiy hayotning mohiyati va maqsadlari haqida muayyan dunyoqarash, mafkuraviy e'tiqodlar tizimi shakllanishiga olib keladi.

Bugungi kunda O'zbekiston buyuk burilish va taraqqiyot davrini o'z boshidan kechirmoqda. Bunday sifat o'zgarishlar davri axloqiy

tarbiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalarini yanada boyitishni, bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'rganishni talab etadi. Axloqiy tarbiyaning bosh maqsadi – mustaqillik g'oyasi asosida bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarni tarbiyalab borishdir. Albatta, milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, diliga, ruhiyatiga asoslangan holda har bir talabaga mehr-oqibat, insof, adolat, haqiqat, vijdoniylik kabi axloqiy his-tuyg'ularni singdirib borishga qaratilgan. Bu fazilatlar axloqiy tarbiya mazmuniga qadim-qadimdan kiritilgan bo'lsada, bugungi kunda ularni yanada rivojlantirish talab etilmoqda.

Hamma zamonlarda ham jamiyatda yashagan odamlar o'rtasida yurish-turish, o'zini tutish, muomala qilish, o'zaro munosabatda bo'lish, hayot maqsadi va manfaatlari bilan bog'langan ma'naviy qoidalar mavjud bo'lgan. Bu ma'naviy qoidalar, odob va axloq me'yorlari odamlar qalbida hayot tajribasi, zaruriyati va ehtiyojlari asosida shakllanib, ularning faoliyati, xatti-harakatida ko'zga tashlanadigan axloq normasiga aylangan. Axloq inson ma'naviyatining o'zagi, eng oliy belgisidir.

Axloq kishilarning bir-biriga, oilaga, jamiyatga, vatanga, tabiatga nisbatan bo'lgan, ma'naviy asoslangan, adolat mezonlariga tayangan munosabatlarining muayyan tizimini ifodalaydi. Kishilar o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida axloq normalari tizimini yaratibgina qolmagan, balki ularni ilmiy asoslashga, rivojlantirishga harakat qilib kelganlar.

Mutafakkirlarning fikricha, axloq odamlar o'rtasidagi munosabatlarning birlik, birdamlik, ahillik, hamkorlik, hamdardlik singari ma'naviy omillar bilan bog'langan shakllaridir. Shu sababli ham axloq va odob normalarining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri bo'lgan.

Tadbirkorlikda ham axloq va odob me'yorlari mavjud. Tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan, balki u insonlar, biznesmenlar, xizmat qiluvchi mutaxassislar doirasida ham axloq me'yorlariga rioya qilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat o'z kasbini puxta bilgan, madaniyatli, odobli tadbirkorlargina obro'-e'tibor qozonadi hamda tadbirkorlikning qonun-qoidalarini atroflicha bilishi talab etiladi.

7.4. Zamonaviy iqtisodchida axloq me'yorlari

O'zbekiston Respublikasi siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotning hozirgi bosqichida rivojlanish, yangilanish va demokratik jamiyat qurish sari shaxdam qadamlar bilan odimlab bormoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy sohada ham chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Axloqiy tarbiya ma'naviyatning asosi, ma'naviyat esa har qanday davlatning asosidir. Ana shu asosning bo'sh bo'lishi davlatni inqirozga olib kelishi mumkin. Shuning uchun Prezidentimiz I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q» degan so'zlarni qayta-qayta takrorlamoqdalar. Milliy istiqlol mafkurasi, ma'naviyatimizni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, uni yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllarida amalga oshirilishi kerak.

Axloq insoniyatning ma'naviy madaniyatining ko'rinishlaridan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori va yurish-turishini ifodalaydigan, ularning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradigan muayyan qoidalar yig'indisidir. Shuning uchun ham axloq murakkab ko'p qirrali jamiyat hodisasi bo'lib, u o'z ichiga insonning jamiyat, jamoa va boshqa kishilar bilan o'zaro aloqalarini belgilovchi tamoyillar, me'yorlar va qoidalarni qamrab oladi. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari orqali bir-biri bilan bog'langan kishilar o'zaro muayyan axloq normalariga asoslanib muomala qiladilar. Bir inson uchungina xos bo'lgan axloq bo'lmaydi. Axloqiy fazilatlar va axloqiy me'yorlar asosan ko'pchilik o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Axloq normalari uzoq tarixiy tajriba asosida shakllanib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni mushtaraklashtirib turadi. Axloqiy madaniyatni yuqoriroq bir pog'onaga ko'tarilishi ham siyosiy, ham iqtisodiy sohalarga bevosita ta'sir etadi va ularning yanada rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham hamma davrlarda axloqiy tarbiyani rivojlantirish, axloqiy madaniyatni yanada yuqoriroq darajada ko'tarish muammosi eng muhim masalalar qatoridan joy olgan va ma'rifatchilar, pedagoglarlarning diqqat markazida turgan.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – zamonaviy iqtisodchilarda axloqiy e'tiqodni, axloqiy onglilikni va axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash, ular asosida axloqiy xulq-atvorni odatlantirish, axloqiy malaka hamda axloqiy ko'nikmalarni hosil qilishdir.

Tadbirkor tug'ma qobiliyatga ega bo'lish kerak, degan fikr ko'p vaqtlardan beri hukm surib keldi. Ammo endilikda, bozor iqtisodiyoti sharoitida har kim ham tadbirkor bo'lishi mumkinligini ko'plar tan olmoqda. Xo'sh, buning uchun nima qilmoq kerak?

Bu savolga to'la-to'kis javob berish qiyin. Ammo fikrimizcha, hozirgi zamon tadbirkori quyida keltirilgan o'n fazilatga ega bo'lishi kerak.

1. **Halollik va rostgo'ylik.**

Bu tushunchalar tadbirkorlikning asosi bo'lib, halol foyda olish va ishda yaxshi munosabatlar o'rnatishning birdan bir shartidir.

Tadbirkor birinchi galda ishning ko'zini biladigan, halol va haromning farqiga boradigan shaxs bo'lishlari kerak. Sababi, tadbirkor qanchalik halol ishlasa, mahsulotlari sifatli bo'lsa, bozorda uning mavqei baland, mahsulotlari shuncha xaridorgir bo'ladi.

2. **Majburiylik, so'zsiz bajarishlik.**

Tadbirkor qachon o'z so'zining ustidan chiqsa, va'dasida tursa va berilgan topshiriqlarni bajarsagina ishi o'ngidan keladi. So'zining ustidan chiqish, kelishilgan shartnomada ko'rsatilgan murakkab va oddiy og'zaki vazifalarning bajarilishini o'z ichiga oladi. Haqiqiy tadbirkor o'z mijozini aldamasligi kerak.

3. **Mas'uliyatli bo'lish.**

Haqiqiy tadbirkor xatosi uchun o'z puli yoki mablag'i bilan javob beradi. Agar u aybdor bo'lsa, yo'l qo'ygan xatosini tuzatishi, ko'rilgan zararni qoplashi lozim.

4. **Boshqalar bilan munosabat chog'ida ularga nisbatan hurmatda bo'lish.**

Xushmuomalali, odobli bo'lish va kishilar bilan so'zlasha bilish – bu san'at. Tadbirkor boshqalarga shunday munosabatda bo'lishi kerakki, unga boshqalar ham xuddi shunday munosabat bilan javob qaytarishsin.

5. **Qonunga itoat qilish.**

Tadbirkor bo'lish istagida yurgan har bir kishi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarga itoat qilishi, ularni og'ishmay bajarishi shart. Qonun talablaridan chekinish qonunchilikni buzish huquq-tartibotga, pirovardida esa davlat tomonidan qo'riqlanadigan manfaatlar va o'zaro munosabatlarga tajovuz qilish demakdir.

6. **Saxiy, xayr-ehsonli bo'lish.**

Xalqqa xayr-ehson qilish eng ulug' fazilat. Saxovatli, saxiy tadbirkor shunday kishiki, birov narsa so'ramay turib, oldindan hadya qilib ulashadi. Saxovatning asli – bu ochiq qo'llilikdir.

7. Insofli bo'lish.

Insof – bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda, kishilar bilan munosabatda. O'zgani o'z o'rniga yoki o'z o'rniga o'zgani xayolan qo'yib ko'rish ham insofga kiradi.

8. Vazmin va sabrli bo'lish, ehtiroslarga berilmaslik.

Ba'zi shoshma-shoshar tadbirkorlar shoshqaloqlik yoki shumligidan pushaymonlik chuquriga yiqiladilar, o'ylamasdan shoshilib ish boshlaganlar balo girdobiga g'arq bo'ladilar.

Aqlli, tajribali va vazmin tadbirkorlar esa tadbir va sabrni o'zlariga yo'ldosh qilib oladilar, yengiltaklik va ehtiroslardan hazar qiladilar.

9. Xizmat etikasiga rioya qilish.

Eng avvalo, hukumatga hurmat bilan qarang. Davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy siyosatini o'zingizning asosiy qurolingiz qilib oling va ularga rioya qiling.

10. O'z ishining mutaxassisi bo'lish.

Biz shunday davrda yashayapmizki, bunda faqat mutaxassis va faqat o'z ishining ustasigina obro'-e'tibor topadi. Shuning uchun mutaxassis bo'ling. Bugungi kun uchun ushbu so'zlar dolzarbdir: qayerda aniq maqsad bo'lsa, o'sha yerda yo'l ham bor. Yangi g'oya ketidan quvib kelayotgan ishni qoldirish be'manilik, faqat tinimsiz mehnat natijasidagina yaxshi g'oya yuzaga keladi.

Shunday qilib, tadbirkor bo'lishga ahd qilgan har bir kishi, o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, shu jumladan, o'z izlanuvchanlik qobiliyatini hamda yuqorida qayd qilingan sifatlarning o'zida mavjudligini aniq o'lchay bilishi kerak.

7.5. Biznesmenning axloq kodeksi

Bugungi kunda tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan, u insonlar, o'zining qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchilar, ayniqsa, chet ellik hamkasblari – biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham baholanadi. Ishdagi muvaffaqiyatning yarmidan ko'prog'i uning odobiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga, ishbilarmonlik qoidalarini qay darajada bo'lishiga bevosita bog'liqdir.

Umuman, tadbirkorlik – bu madaniyat. Aytishlariga qaraganda: Madaniyatli odam tadbirkor bo'lishi shart emas, ammo tadbirkor inson madaniyatli bo'lishi lozim.

Arastu o'z zamonasida birinchi bo'lib axloq to'g'risida gapirib, Axloq – nimani qilishimiz va nimadan o'zimizni tiyishimiz kerakligini aniqlashimizga yordam beradi degan edi. Prezidentimiz I.A.Karimov axloq tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdi: Axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladan iborat emas. Axloq bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani.

Demak, axloq biz uchun – avvalo, insoniy munosabatlarni, shuningdek, insonlarning fe'l-atvorlarini, ularning qanchalik maqbul nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga va baholashga imkon beruvchi bilim sohasidir. Taraqqiy etgan davlatlarda, ayniqsa, Yaponiya va AQSHda firmalarning «Etika kodeksi» va biznesmenlarning alohida kasb ustalari guruhlarining «Ishbilarmonlik kodeksi» keng qo'llaniladi. «Biznesmenning axloq kodeksi» birinchi marta AQSHda 1913-yili ishlab chiqilgan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatini yuritishning asosiy qoidalari qabul qilingan. Bu qoidalar yagona asosga jamlangan bo'lib, ular biznes sohasidagi usul va siyosatni baholashda, haqiqat va adolatlilik tushunchalari bilan uyg'unlashishi belgilangan.

Qisqa xulosa

Jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti jarayonida ma'naviyatning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq va odob inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning kamolotiga zamin yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'ladi. Demak, har bir inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va axloq normalarini, bilim va ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, hunar-kasb sohibi bo'ladi, malaka orttiradi, o'z qobiliyati va iste'dodini biror yoki bir necha sohada to'la namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Axloq, odob, bilim, iste'dod zaminida e'tiqod, ixlos, vijdon, imon shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu bobda zamonaviy iqtisodchining kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, iqtisodchining fan, madaniyat va hozirgi zamon texnologiya yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi, uning axloqiy, ma'naviy xususiyati, iqtisodchida axloq me'yorlari kabilar bo'yicha kerakli ma'lumotlar berilgan.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchining kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablarni sanab bering?
2. Zamonaviy iqtisodchi fan, madaniyat va hozirgi zamon texnologiya yutuqlari bilan qanday qurollangan bo‘lishi kerak?
3. Iqtisodchining axloqi deganda nimani tushunasiz?
4. Zamonaviy iqtisodchining ma’naviy xususiyatini ta’riflab bering?
5. Zamonaviy iqtisodchiga xos axloq me’yorlarini ko‘rsating?
6. Biznesmenning axloq kodeksini sanab bering?
7. Zamonaviy iqtisodchi qanday talablarga javob berishi zarur?
8. Iqtisodchiga xos halollik va rostgo‘ylik fazilatlarini ta’riflab bering?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S.G‘ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh.Shodmonov, R.Alimov, T. Jo‘rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: «Moliya», 2002.

3. В.Г.Янчевский. Менежмент, маркетинг, бизнес. Деловым людам о предпринимательстве. – М.: 1992.

4. E.Yusupov. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

5. N.Xo‘jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika (O‘quv qo‘llanma). – T.: TDIU, 2002.

6. E.Xo‘jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

7. V.A.Chjen. O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi. – T.: 1995.

8. Sh.Sh.Shodmonov, R.H.Alimov, T.T.Jo‘rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

VIII bob. ZAMONAVIY IQTISODCHINING ETIKASI

8.1. Odob va axloq haqida tushuncha.
8.2. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida zamonaviy iqtisodchi odobining o'ziga xos tomonlari.
8.3. Iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari.
8.4. Zamonaviy iqtisodchining etikasi.
8.5. Zamonaviy iqtisodchining nufuzi.

8.1. Odob va axloq haqida tushuncha

Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, qanchalik milliy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir.

Olamshumulli asarlar yaratgan Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiylardan tortib XIX asrning oxiri XX asrning boshida ma'rifatparvarlar Abdulla Avloniy, Ahmad Donish, Furqat va boshqalar xalqimiz uchun tarbiya borasida ulkan va o'lmas asarlar yaratdilar.

Ibn Sinoning asarlarida ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, insonning ruhiyati, axloq va odobi kabi masalalar to'g'risida chuqur fikrlar ifodalangan. Uning fikricha, oilada otaning tabiatan yumshoq ko'ngil, shirin so'zli bo'lishi bola tarbiyasini buzishi mumkin. Oilada bosh tarbiyachi otadir, deydi. Ota bolalar tarbiyasida qattiqqo'l va hatto lozim bo'lsa, jazo berishga qadar ta'sir ko'rsatuvchidir.

Ibn Sino oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan va o'zining ta'lim-tarbiya haqidagi har tomonlama mukammal mulohazalarini bayon qilgan.

Asarning «Muqoyasa dar axloq» bobida ota-onalar va tarbiyachilarga quyidagicha maslahatlar berilgan: Ota-ona bolalarni tarbiyalashda ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Ayniqsa, bolaning xulqidagi kamchiliklarini uning shaxsiyatiga tegmasdan bartaraf etilishi lozim. Asarning eng katta bobi oila va ota-onalarning tarbiyadagi faoliyatini sharhlashga bag'ishlanib, bu xususda bir mutafakkir sifatida yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Ibn Sinoning uqtirishicha, oila tarbiyasi ham amaliy, ham nazariy ish ekanligini ota-

onalar yaxshi bilishlari zarur. Ota-ona bola tarbiyasida turli usullardan foydalansa, u oila baxtli bo'ladi. Shuning uchun «Nasihat yo'li» bobida ota-onalarning vazifalari ifodalanib, bu vazifalarni bajarish uchun ota va onada qanday fazilatlar bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq talaba yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri deb belgilandi. Chunki davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir» nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek «Bizning Respublikamizda o'zimizning ma'naviy qadriyatlarimizni, ta'limning milliy tizimini takomillashtirish hamda uning milliy asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda».

Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning axloqi, odobi. xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Demak, axloq insonning ijobiy sifatlari majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Odob – bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotiga hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari.

Madaniyat – jamiyatda yashovchi fuqarolarning faoliyat jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy intellektual fazilatlar majmuasidir.

Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi.

Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmualarining keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

8.2. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida zamonaviy iqtisodchi odobining o'ziga xos tomonlari

Insonlar qanchalik tajribali va bilimdon bo'lsalar ularni odob masalalari shunchalik qiziqtira boshlaydi. Xodimlarning axloqiy yuksakligi zamonaviy rahbarning boshqaruv faoliyatining muhim sifat

ko'rsatgichi hisoblanadi. Bunga erishish uchun, avvalo rahbarning ijtimoiy-odobiy tayyorgarligi (nazariy va amaliy) zarur. Ana shu maqsadda boshqaruv odobi tuziladi. Uning mohiyati ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning barcha ishtirokchilarining xulq-atvori tamoyil va me'yorlarini asoslashdadir, xizmat huquq va majburiyatiga kasb burchi sifatida munosabatda bo'lish zarurligidadir.

Zamonaviy iqtisodchining odobi ma'muriy va xo'jalik faoliyatini sifatli ado etishga yo'naltirilgan nazariy-amaliy etika bilimlari va amaliy tavsiyalar tizimidan iboratdir. Ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi, kasbiy pokizalik, mas'uliyatni his etish, tabiatni asrab-avaylash uning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodchining odobida axloqiy tavsifdagi, shaxs xulq-atvorini o'rganish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar, boshqaruv faoliyatiga bo'lgan axloqiy talablar, ishga aloqador etika qoidalari ishlanmalari va iqtisodchining xizmatdan tashqari xulqi, muomala odobi bo'yicha maslahatlar to'plamlari muhim o'rin egallaydi.

Quyidagilar zamonaviy iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari hisoblanadi:

– odamlarga keng ko'lamda o'z foydaliligini namoyon etish uchun hokimiyatga intilish;

– boshqaruv faoliyatida qatnashish uchun xodimlarni faol jalb etish;

– foydali tanqidni samimiy qabul qilish va jamoat fikrini hurmatlash;

– bo'ysunuvchilarga ishongan holda munosabatga moyillik, ularni o'z hamfikrlari deb bilish.

8.3. Iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari

Axloqiy his-tuyg'ular, qadriyatlar insonda axloqiy hislarni vujudga kelishiga olib keladi, bularga g'urur, vijdon, imon, adolat, mehr-muhabbat, ishonch kabilarni kiritish mumkin. Axloqiy his-tuyg'ular insonning o'ziga, boshqalarga nisbatan hayotga bo'lgan munosabatini o'zida aks ettiradi. Axloqiy hissiyotlar axloqiy qadriyatlarning insonning ichki qadriyatiga aylanishida muhim o'rin tutadi va axloqiy onglilikning rivojlanishiga yordam beradi. Bugungi kunda axloqiy tarbiyaning mazmuni quyidagi asoslarda quriladi:[1]

1. Umuminsoniy qadriyatlar.

[1] M.Hoshimova. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari. – T.: «O'qituvchi», 2004.

2. Milliy qadriyatlar.

3. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari va xalq pedagogikasi.

4. Bugungi kunning axloqiylikka bo'lgan ijtimoiy talablari.

Bu asoslarning har biri o'z o'rniga ega va aloqiy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiya insonning butun hayoti davomida rivojlanib boradi, chunki axloqiylikning o'zi inson hayotining uzluksiz rivojlanuvchi qismidir. Axloqiy tarbiya insonning, jumladan zamonaviy iqtisodchining butun hayoti davomida rivojlanib boradi, chunki axloqiylikning o'zi inson hayotining uzluksiz rivojlanuvchi qismidir.

Umumiy axloqiy talablar yoki axloqiy tamoyillar insonga lozim vaziyatda aniq axloqiy xatti-harakat shakllarini ko'rsatib bera olmaydi. U eng yuqori tamoyil sifatida mavjud bo'ladi. Shaxsdan esa ma'lum vaziyatda muammoni yechimini axloqiy tamoyillarga tayangan holda eng to'g'ri yechimni topish talab etiladi. Axloqiylik madaniyati ezgulik qilishning beg'araz istagidan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodchining axloqiy tarbiyalanganligi axloqiy his-tuyg'ularning ham qay darajada rivojlanganligida o'z aksini topadi. O'ziga xos hamdardlik, birovning yutug'iga chin dildan xursand bo'la olish xususiyatlari, odamlarni qadrlash va mehr-muhabbatli bo'lish kabilar axloqiy his-tuyg'ularning rivojlanish mezonlari bo'la oladi.

Bu borada I.Kantning axloqiy tarbiyaning ikki darajasini ajratishini eslab o'tish o'rinli. Uning fikricha, axloqiy qoidalarni rasmiy ravishda bajaruvchi va bu qoidalarning chuqur mazmunini farqlay olmaydigan odamlar – madaniylashgan odamlardir. Ular axloqiy onglilik darajasiga ko'tarila olganlari va axloqiy hissiyotlarni yetarli darajada, o'zlarida rivojlantira olganlari yo'q.

Axloq qoidalarining mohiyatini anglagan va axloqiy his-tuyg'ular bilan mustahkamlangan, axloqiy qarashlarga ega bo'lgan odamlarni eng axloqiy madaniyatga ega odamlar deb hisoblaydi.

8.4. Zamonaviy iqtisodchining etikasi

Zamonaviy iqtisodchi faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan u insonlar, o'zining qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchi-xodimlar, xorijiy biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham belgilanadi.

Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining muvaffaqiyati uning dunyoqarashiga bog'liq. Bularning barchasi «Zamonaviy iqtisodchi etikasi» tushunchasida o'z aksini topadi.

Iqtisodchi etikasi biznes olamida o'zini tutish tamoyillari yig'indisidan iborat bo'lib, ochiqlikka, rostgo'ylikka, so'zida turishda, qonunlarni hurmat qilishda, biznesni yurita olishda asoslanadi.

Etika *atamasi qadimgi yunonlarning «ethos» so'zidan olingan bo'lib, «uy», «yashash joyi» degan ma'noni bildiradi. Gomer ham o'z asarlarida etika tushunchasidan xuddi shu ma'noda foydalangan. Keyinroq borib etika so'zi «yirik mavjudotlarning yashash qoidalari» degan ma'noni anglatgan. Falsafada esa bu so'z kishilarning turmush tarzi, xarakterini ifodalash uchun qo'llanilgan. Aristotel bu so'zdan insonga xos fazilatlarning ijobiy tomonlarini ifodalash uchun foydalangan.*

Etika tushunchasi ikkita jihatni o'z ichiga oladi:

– etika – bu ma'lum jamiyat, kishilar guruhi, kasb-korlar uchun qo'llanadigan ruhiy va axloqiy me'yorlar tizimidir;

– etikaviy me'yorlar huquq bilan, ya'ni davlat tomonidan belgilangan yoki sanksiyalangan umummajburiy o'zini tutish qoidalari va me'yorlari majmuasi bilan bog'liqdir.

Demak, insonning har qanday faoliyati, shu jumladan ishbilarmonlik ham etika va huquqiy o'lchovlari bilan baholanadi. Amaldagi qonunchilik jamiyatga o'z xohish-irodasini biznesning axloqiy-huquqiy o'lchovlari asosida ifodalash uchun imkon yaratadi. Ishbilarmon qonunni buzganligi uchun ma'lum jazo belgilansa, uning biznesda etika va axloqiy-huquqiy me'yorlarni buzganligi uchun u jamiyatning qahr-g'azabiga duchor bo'ladi. Buning uchun jamiyatda yuqori etikaviy me'yorlarga amal qilinishi kerak.

Zamonaviy iqtisodchi eng avvalo, halol va rostgo'y bo'lishi lozim. Bu kishilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishning eng muhim shartlaridan biridir. Haqiqiy iqtisodchining yana bir muhim belgisi uning berilgan va'dani so'zsiz bajarishidir. U o'z so'zining ustidan chiqa olsa, va'dasida tursa va zimmasiga olgan topshiriqlarini o'z vaqtida bajarsagina bu sohada muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Bu shartnomada ko'rsatilgan shartlarni o'z vaqtida bajarishini taqozo etadi.

Zamonaviy iqtisodchi boshqalar bilan o'zaro hurmat, ishonch asosida xushmuomala munosabatda bo'lishi lozim. Uning boshqalarga nisbatan muomalasi ularning iqtisodchiga nisbatan muomalasini

belgilab beradi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodchi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarga itoat qilishi, ularni og'ishmay bajarishi shart.

O'z ishini qonun bo'yicha olib borish yetik va ruhiy-axloqiy o'lchovlarga rioya qilish bilan bir xil emas. Iqtisodiyotda deyarli tez-tez shunday vaziyatlar yaratiladiki, unda qonunni buzmay turib etikaviy me'yor va qoidalardan og'ish kuzatiladi. Bu esa iqtisodchining nafaqat o'zi uchun, balki jamiyat uchun ham salbiy natijalar keltirishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining muvaffaqiyati uning vazmin va sabrli bo'lishiga u yoki bu qarorlarni ehtirosga berilmasdan, sovuqqonlik bilan qabul qilishiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat o'z kasbini puxta bilgan, mahoratli mutaxassislargina obro'-e'tibor qozonadi. Shu sababli, u yoki bu sohada ish boshlamoqchi bo'lgan iqtisodchi o'z sohasini puxta egallashi, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini atroflicha o'rganishi zarur.

8.5. Zamonaviy iqtisodchining nufuzi

Zamonaviy iqtisodchi o'z faoliyatini amalga oshirar ekan, eng avvalo kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Zamonaviy iqtisodchining obro'-e'tibori, qolaversa, amalga oshirayotgan ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kishilar bilan bo'lgan muomalasiga bo'g'liq. Shu sababli, har bir iqtisodchi yoki tadbirkor atrofdagilarda ijobiy taassurot qoldirishga harakat qilishi lozim.

Iqtisodchi nufuzi (imidji) deganda atrofdagilar ongida zamonaviy iqtisodchi haqida shakllangan ishbilarmon kishi siymosi, u to'g'risidagi tasavvurlar tushuniladi.

Firma yoki korxona nufuzi esa uning bozordagi holatini ta'minlovchi firma siymosi, xaridorning firma belgisiga sodiqligidir.

Har qanday iqtisodchi yoki tadbirkor yuqori nufuzga ega bo'lishga harakat qilar ekan shuni nazarda tutishi lozimki, u faqat mehnat evaziga orttirilishi mumkin, xolos. Yuqori nufuzga ega bo'lish deganda, iqtisodchi va uning ish joyining ko'pchilik tomonidan tan olinishi hamda ularga nisbatan iliq munosabatning shakllanishi tushuniladi. Odatda, yuqori nufuzga ega bo'lgan iqtisodchiga nisbatan mijozlar alohida munosabatda bo'ladilar va ular to'g'risida ijobiy fikr bildiradilar.

Har bir iqtisodchi o'zining nufuzini oshirishga harakat qiladi. Biroq kishilar o'zlarini-o'zlari obyektiv baholashlari ancha qiyin kechadi. Shu munosabat bilan bu holat inson munosabatlarining alohida sohasi –

imijeologiyaning vujudga kelishiga olib keldi. Imijeologiya g'arb mamlakatlarida «pablik rileyshns» deb ataladi.

Pablik rileyshns ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish bo'lib, firmalar tomonidan ularning obro'-e'tiborini, nufuzini oshirish uchun qo'llaniladi.

Halol mehnat, tashabbuskorlik va o'z vazifasiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, jamoa a'zolariga talabchanlik va g'amxo'rlik qilish, o'z ishini chuqur bilish zamonaviy iqtisodchi nufuzining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, qog'ozbozlik, mahalliychilik, hadiksirash, balandparvozlik, xudbinlik, maqtanchoqlik kabi xususiyatlar unga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qisqa xulosa

Bugungi kunda zamonaviy iqtisodchi faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan u insonlar, o'zining qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchi-xodimlar, xorijiy biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham belgilanadi.

Shunga asoslangan holda ushbu bobda zamonaviy iqtisodchi odobining o'ziga xos tomonlari, iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari, iqtisodchining etikasi, bugungi kun zamonaviy iqtisodchisining nufuzi, obro'si xususida atroflicha fikr bildirilgan va bu mavzu talabalarga ishonarli tarzda bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchi odobining o'ziga xos tomonlarini sanab bering.
2. Iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalariga nimalar kiradi?
3. Zamonaviy iqtisodchining etikasi nima?
4. Zamonaviy iqtisodchining obro'si va nufuzini ta'riflab bering.
5. Zamonaviy iqtisodchi qanday talablarga javob berishi kerak?
6. Xizmat etikasiga rioya qilish deganda nimani tushunasiz?
7. Iqtisodchi qanday axloqiy qoidalarga rioya qilishi kerak?
8. Bugungi kunda axloqiy tarbiyaning mazmuni qanday asosda quriladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Yo.Abdullayev, F.Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

2. N.Xo'jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2002.

3. В.Г.Янчевский. Менежмент, маркетинг, бизнес. «Деловым людям о предпринимательств». – М.: 1992.

4. E.Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

5. Sh.Sh.Shodmonov, R.H.Alimov, T.T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

IX bob. ISHCHI-XIZMATCHILARNI O'QITISH. O'QITISHNING QOIDA VA USLUBLARI

9.1.Ishchi-xizmatchilarni o'qitish shakli va turlari.

9.2.Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash uslubi.

9.3.O'qitish dasturlari va ularning tahlili.

9.4.Iqtisodchi kadrlar kasb bo'yicha o'sishining o'zaro bog'liqligi.

9.1. Ishchi-xizmatchilarni o'qitish shakli va turlari

O'qitish va kadrlarni tayyorlashda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda yetarli ahamiyat beriladi. Bu omil iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarishni rivojlantirish omilidir. Rivojlangan davlatlarda insoniy resurslar 80% gacha tovar ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda uch bosqichli o'quv tizimi yo'lga qo'yilgan:

1. Oliy o'quv yurtlarida o'qish.
2. Malaka oshirish institutlari va fakultetlarda o'qish.
3. O'z bilimini mustaqil ravishda oshirish.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ishchilar doimo o'qish, o'rganish jarayonida bo'ladi. Ular tez-tez o'z faoliyat yo'nalishini o'zgartirib turishadi, yangi texnologiyalar ishlab chiqishadi, mavjudlari rivojlantiriladi. Bularning barchasi o'zagaruvchan mehnat faoliyatida insonni o'qishga majbur qiladi. Har bir yangi holatda, o'z ishini bajarish uchun xodim yoki menejer o'qishga kirishadi. Har bir tadbirkorlik tashkilotida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tadbirlari rivojlanish rejasiga kiritiladi. Bu quyidagi sharoitlarga bog'liq:

- yetarli kvalifikatsiyali ish kuchi yetishmasligi;
- raqobat kurashida mehnat resursidan samarali foydalanish;
- yangi bilimlarni egallash;
- yangi ishlab chiqarish jarayonlarining paydo bo'lishi;
- ishchilar potensialini rivojlantirish.

Xodimlarning rivojlanishi firma uchun ham, xodimlar uchun ham foydalidir. Insonning aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan, ammo shu imkoniyatlardan ham maksimal darajada foydalanilsa, iqtisodiy

rivojlanishni ta'minlash mumkin. Lekin kishilar mehnatini imkoniyat chegaralaridan oshirishga intilish xatolarni ko'paytiradi. Firma yoki korxona quyidagi omillarga ko'ra samarali bo'lishi mumkin:

1. Mehnat kishilarning jismoniy va aqliy imkoniyatlari chegarasida yetmasligi va undan o'tmasligi kerak, shunda ishda xatolik kam bo'ladi. Mehnatga bo'lgan ishtiyoq saqlanadi.

2. O'zgaruvchan mehnat sharoitlarida insonning moslashish imkoniyatlari yaxshilanadi, kengayadi, shu bilan birga, kadrlarning ishdan ketishi kamayadi.

3. Xodimlar malakasi oshadi.

Ishchi-xodimlarni o'qitish turli shakllarda amalga oshadi. Ularni tanlash bir necha omilga bog'liq. Bularga o'qishning yo'nalishi, o'qish predmeti, o'qish sharoitlari va da'vogarning imkoniyatlari kiradi.

Quyidagi o'qish turlari mavjud:

- yangi xodimlar bilan boshlang'ich o'qish;
- ishlab chiqarish o'qishi;
- boshqaruv o'qishi;
- kuzatuv o'qishi (bilimni oshirish uchun);
- rotatsiya yo'li bilan o'qish;
- mustaqil dastur bo'yicha o'qish va boshqalar.

Korxona va firmalarning ko'pchiligi yangi mutaxassislar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi. Bunday mashg'ulotlar 2-4 haftada maxsus o'quv markazlarida o'tkaziladi. Boshlang'ich o'qish yangi xodimlar uchun malaka oshirish ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Bunday o'qishlar seminar shaklida o'tkaziladi.

Ishchi-xodimlar uchun ishlab chiqarish o'qishi birinchi navbatdagi o'qish hisoblanadi. Bunda ish yuzasidan eng asosiy ma'lumotlar beriladi. Ishning xususiyati, kasb sir-asrorlari o'rgatiladi. Boshqaruv o'qishi mas'ul boshqaruv lavozimlariga ko'tarilayotgan yoki qabul qilinayotgan xodimlar uchun o'tkaziladi.

9.2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash uslubi

Bugungi kunda, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb emoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning

deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy ta'limning asosan quyidagi ikkita modeli asosida mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan:[1]

1. Ingliz – amerikacha iqtisodiy ta'lim tizimi. Bunday ta'lim mutaxassislikni egallashning ko'p darajaligiga va xilma-xilligiga asoslangandir. Bu tizimda ham o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi taklif etadigan ta'lim muassasalarining keng tarmog'i mavjud. Hozirgi kunda, Amerika Qo'shma Shtatlari va G'arbiy Yevropaning bir qator rivojlangan davlatlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy biznes maktablari, unversitetlar, kollejlar va boshqa bir qator mutaxassislar tayyorlash markazlarining turli-tumanligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

2. Olmoncha – ruscha iqtisodiy ta'lim tizimi. Bu tizim oliy iqtisodiy ta'limni bir darajada egallashga asoslanadi. Unda o'quv rejalari va bozor iqtisodiyoti uchun mutaxassislar tayyorlash dasturlariga jiddiyroq talablar qo'yildi.

Iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashning yaponcha tizimi ham o'z xususiyatlariga egadir. Texnologiya va menejment sohasida chuqur bilimlar berish bu tizimning o'ziga xosligini belgilaydi.

Hozirgi kunda xalqaro miqyosda iqtisodiy ta'limning inglizcha-amerikacha tizimi boshqalarga qaraganda, ko'proq ommalashgan. Uning xususiyatlari asosan quyidagilardan iborat:

– bozorga tayyorgarligi va malakasi, ilmiy darajasi va diplomi turlicha bo'lgan mutaxassislarni taklif etish. Bunday mutaxassislar iqtisodchi mutaxassisning yordamchisidan tortib, fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan yirik biznes menejerlarini namoyon etadi;

– talabaga yo'nalishni, mutaxassislikni, ixtisoslikni va bularga mos kurs va dasturlar modullarini erkin tanlash imkoniyatini berish;

– o'zaro farqlanuvchi bakalavriat (kasb bakalavri, fan bakalavri, biznes boshqaruv bakalavri) hamda magistratura (kasb magistri, fan magistri, biznes boshqaruv magistri) ning o'zaro farqlanuvchi dasturlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojga moslashgan iqtisodiy ta'limning turli variantlarini taklif etish.

Yuqorida keltirilgan ana shu uch dasturning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

---

[1] Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi», 2002.

Jamiyat taraqqiyoti darajasi, axborotlarni haddan tashqari ko'pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, umuman olganda hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda anglay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to'g'ri qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassislar qilib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas.

Hozirgi paytda tayyor bilimni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil etish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, o'z navbatida, mutaxassislar malakasi va mahoratini oshirishni, mutaxassislarga bo'lgan talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab etadi. Buning uchun iqtisodchi mutaxassislarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan edilar: «Biz hayotimizning turli jabhalarida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirib, yangilanish sari borar ekanmiz, ushbu islohotlarning turmush tarzimizni ijobiy tomonga o'zgartirishi, ma'naviy yuksalishimizga ko'mak berishi hamda milliy g'urur va iftixorimizni kuchaytirishi ko'p jihatdan har tomonlama yetuk kadrlarga bog'liq ekanini unutmasligimiz lozim. Respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan ravnaq topishida, bu sohalardagi muammolarni hal qilishimizda ham milliy kadrlar bosh omillardan biri bo'ladi».[1]

Fakultetlarda, kurslarda, maktablarda malaka oshirish o'qishlari maxsus ishlab chiqilgan dastur va zarur qo'llanmalar asosida olib boriladi.

Xodimlar malakalarini oshirish va qayta tayyorlash ham firma ichida va tashqarisida bo'lishi mumkin. Ularni tayyorlash uslubi quyidagicha amalga oshiriladi:

- boshqaruv masalalari bo'yicha maxsus seminarlar o'tkazish;
- xodimlarning sifat to'garagi deb nomlanuvchi o'qishlarda ishtiroki;
- yangi mutaxassislarning ishini kuzatish yo'li bilan o'qitish;
- kadrlar rotatsiyasi.

[1] Karimov I.A. «Zamonaviy kadrlar tayyorlash – islohotlar muvaffaqiyatining asosi» nutqidan. «Ma'rifat» gazetasi. 1998-yil 28-yanvar.

Kadrlar rotatsiyasi mutaxassis yoki menejer tarbiyalash va shakllantirishda keng tarqalgan uslubdir. Uni firmaning rahbarlari ishchini qisqa vaqt ichida bir ishdan boshqa ishga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

Malaka oshirish xodimning ilg'or korxonalarda, shu jumladan, chet ellarda ish o'rganishi (stajirovka qilishi) shaklida ham o'tkazilishi mumkin. Kadrlar ishida asosiy masalalardan biri, kadrlar rezervini tayyorlash va o'qitish tashkil etishdir. Kadrlar rezerviga kelajakda katta lavozimlarni egallovchi shaxslar kiradi.

9.3. O'qitish dasturlari va ularning tahlili

O'qitish – insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarining maxsus tayyorlangan shaxs (o'qituvchi, tarbiyachi, professor, instruktor) rahbarligida talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayoni, ma'rifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi guruhda alohida fanlar bo'yicha talabalarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi.

O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi:

1. Dasturning qat'iyligi. O'qitish dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim.
2. O'qitish dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borliqni aniq, haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi.
3. O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beriladi.
4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi.
5. O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi.

Bugungi kunda tadbirkorlik va kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarni o'qitish va malakasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Chet ellarda ularni tashkil qilishda maxsus o'rgatuvchi tashkilotlar ishtirok etadi (masalan, biznes maktabi, malaka oshirish fakulteti, boshqaruv universiteti). Hozirgi kunda chet el va mamlakatimiz olim va mutaxassislari yordamida ishlab chiqilgan tadbirkorlik bo'yicha yangi o'quv dasturlari keng qo'llanilmoqda.

Yo'nalish bo'yicha o'quv dasturlari quyidagilarga bo'linadi:

– boshlang'ich o'qish dasturlari;

– tadbirkorlik ishini kompleks o'qishini ta'minlab beruvchi dasturlar va uning alohida tomonlarini o'rgatuvchi dasturlar (masalan, marketing, bank ishi, qimmatbaho qog'ozlar);

– boshqaruv faoliyatini o'rganish dasturlari va mutaxassisni o'qituvchi dasturlar o'qish dasturini vaqtinchalik omili bo'yicha qisqa va uzoq muddatga bo'linadi.

O'qishning ko'lamiga qarab quyidagi dasturlardan foydalaniladi:

1. Doimiy tavsifga ega dasturlar, ko'pincha to'g'ri yoki qisman o'qish dasturi hisoblanadi. Ularga tadbirkorlarni o'qitish dasturlari kiradi.

2. Malakani oshirish dasturlari chet ellarda keng tarqalgandek, bizning respublikamizda ham keng tarqalmoqda.

9.4. Iqtisodchi kadrlar kasb bo'yicha o'sishining o'zaro bog'liqligi

Kichik biznes ham boshqa faoliyat kabi, doimo ishchilarni o'qitishni talab qiladi. Bu jarayon kadrlarni sifatini va rivojlanishini ta'minlaydi.

O'qish – bu odamning fundamental bilim olish jarayonidir. Aslida, u maktablarda, kollejlarda, institutlarda, universitetlarda yoki boshqa joylarda amalga oshadi. Islohotlar o'qishning turlariga ta'sir qiladi. Oliy ma'lumot ochiq, demokratik bo'ladi. Oliy ma'lumotni rivojlantirishning boshqa ko'rinishi – bu oliy va o'rta maxsus o'qishni integratsiya qilishdir.

Oliy ma'lumot islohoti o'z ichiga quyidagi yo'nalishlarni oladi:

1. Yangi takomillashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda xalqaro o'qish jarayonini tashkil qilish.

2. Auditoriya darslari va mustaqil ishlar orasidagi o'quv vaqtini eng qulay tarzda taqsimlash va boshqalar.

Bizningcha, jamiyatda aholining turmush darajasi, ijtimoiy va kasb yo'nalishi bo'yicha ijtimoiy qatlamlanishining yangi turini shakllantirish jarayoni boshlanganligi bois, buning oqibati sifatida xo'jalik harakatlarining bozor shakllariga moslashishining turli imkoniyatlari yuz beradi.

Oliy ta'lim muassasasi, tijoratlashtirish sharoitidagi endotizim sifatida, o'z manfaatlari tizimi shaklini o'zgartiradi. Shaxsiy mablag'lari hisobidan pulli bilim olish sharoitida o'qish shakli va muddatlariga nisbatan quyidagi holatlarda muammoli oqibatlar kelib chiqishi mumkin, qachonki oliy ta'lim muassasi:

– o'qish muddatlarini uzaytirish va shu asosda katta mablag'lar olishdan manfaatdor bo'lsa;

– bilim oluvchilar zimmasiga o'z xarajatlarining katta qismini yuklashga intilsa;

– o'qitishning kam mehnat talab qiladigan va tejamli shakllarini afzal ko'rsa.

Bu aspektda o'qitishni tijoratlashtirishning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin: kasbni baholash bo'yicha oliy ta'lim muassasining faoliyatida iqtisodiy tomonlarni rivojlantirish (marketing tadqiqotlari); iqtisodiy nuqtayi nazardan oliy ta'lim muassasalari faoliyatining samarali strategiyasini tanlash; oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini baholash, uning barqarorligi darajasini oshirish va boshqalar.

Pulli o'qish oliy ta'lim muassasasi hamda o'qish pulini to'lovchi shaxs nuqtayi nazaridan eng tejamli shakl sifatida *masofadan turib o'qitish* shakllariga qiziqishni orttiradi. Bu o'qitishning kechki, sirtqi, ekstrant, individual rejalar bo'yicha o'qitish kabi shakllaridir. Barcha ushbu shakllar ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilishini kuchaytirishi bilan tavsiflanadi.

Bizning nazarimizda, shaxsiy shaklda pulli o'qitishni ommaviy tarzda joriy etishni qo'llab bo'lmaydi: o'qish uchun pul to'lashning institutsional shakllari iqtisodiyot va jamiyatning barqarorlashuvi sharoitida rivojlanishi mumkin. Bu o'qitish shakli yuzaga kelgan qulaylikni pasaytirmagan holda, ta'lim xizmatlari sohasini kengaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Ta'lim ijtimoiy yoki jamiyat boyligini o'zida namoyon qiladi, u jamiyatning barcha a'zolari uchun yuqori darajada ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatdagi vazifalarni hal etish vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Jahon tajribasi shuni

ko'rsatadiki, ta'lim darajasi va sifati, pirovardida, fan-texnika taraqqiyotining joriy etilishi va mamlakat farovonligining oshishi sur'atlarini belgilab beradi.

Buyuk xorijiy ekspertlar va olimlarning baholashlaricha, iqtisodiy o'sish omillari ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etishi darajasiga ko'ra quyidagi holatlarni nazarda tutadi (3-chizmaga qarang).



3-chizma.

Davlatning zimmasiga ta'lim xizmatlarining bozori yo'naltiriladigan mehnat bozorining bo'lajak tarkibiy tuzilishining bashoratini ishlab chiqish funksiyasi qoladi. Intellektual mehnat bozorini bashorat qilish ilmiy jihatdan asoslanishi kerak, respublikamizda tayyorlanayotgan mutaxassislar talabi va taklifini o'rganish, ish o'rinlarining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan banklarini barpo qilish, ya'ni intellektual mehnat bozori sohasida marketing tadqiqotlarini o'tkazish lozim. Buning uchun esa quyidagilar zarur:[1]

1. Axborot va kadrlar hisobining yo'lga qo'yilgan tizimi.
2. Balandlikdagi tarkibiy siljishlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini tahlil qilish.
3. Intellektual mehnat bozorini shakllantiruvchi fan-texnika mahsuloti bozorini o'zgarishini tahlil qilish.

Hozirgi bosqichda menejment tizimi boshqaruvning to'rtta darajasini o'z ichiga oladi: umumdavlat, mintaqaviy, mahalliy, institutsional.

[1] D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi». 2002.119-bet.

Boshqaruvning umumdavlat darajasi oliy ta'lim tizimini boshqarishni markazlashtirishning yuqori pog'onasi sifatida, bizningcha, quyidagi vazifalarning hal etilishining ta'minlashga qaratilgan:

– ta'lim sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, uni me'yoriy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy jihatdan tartibga solish;

– yagona, butkul ta'lim hududini saqlash va rivojlantirish;

– uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

– ta'lim sohasiga doir qonun hujjatlarini rivojlantirish;

– ushbu strategiyani umummilliy dasturlar, yirik ijtimoiy-pedagogik va innovatsion loyihalar orqali amalga oshirish;

– jamiyat (pedagogik hamjamiyat) va ta'limni boshqarishning mintaqaviy darajasi bilan birga davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va qabul qilish;

– ta'lim sifatini, uning ta'lim standartlariga mos kelishini baholash va nazorat qilishning davlat tizimini barpo etish;

– ta'limni boshqarishning mintaqaviy organlari, faoliyatini muvofiqlashtirish.

Ta'limning asosiy maqsadi – zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi bugungi kun talabini hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.[1]

Ta'lim oluvchilar ishlab chiqarishdaga texnik va texnologik jarayonlar, qurilma va moslamalar haqida bilim olib amalda qo'llay bilishlari kerak. O'qitish jarayonida o'qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga o'qitishda quyidagilarga erishmog'i lozim:

➢ ta'lim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari va zamonaviy metodlar hamda qurilmalarda ishlashni o'rgatish;

[1] O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997

➢ mehnatni tashkil etish metodi ham ta'lim oluvchini zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab turli ish operatsiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish;

➢ ta'lim-oluvchini ish me'yorini bajarishga yondashishga o'rgatish;

➢ korxonadagi ish chizmalarini to'g'ri o'qishga, texnologik hujjatlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;

➢ korxona jamoasida ta'lim oluvchi ishidan muhim tarbiya sifatida foydalanish;

➢ ta'lim oluvchini mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilishga o'rgatish;

➢ ta'lim oluvchining ongiga ish o'rni va mehnat qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash hissini singdirish;

➢ ta'lim oluvchiga ish madaniyati haqida taassurot berish, ish joyini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida belgilanganidek, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan biri sifatida boshqaruvning demokratik davlat-ijtimoiy xususiyati tasdiqlangan. Ushbu tamoyil faqat ta'lim siyosatini shakllantirish ta'lim jarayoni subyektlarining manfaatlari mos kelishiga, oliy ta'lim tizimining o'zini-o'zi tashkil etishida yuzaga keladigan yangi g'oyalardan samarali foydalanishiga asoslangandagina samarali bo'ladi.

Qisqa xulosa

O'qitish – insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarining maxsus tayyorlangan shaxs (o'qituvchi, tarbiyachi, professor, instruktor) rahbarligida talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayoni, ma'rifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir.

Ushbu bobda ishchi-xizmatchilarni o'qitish va uning shakli, turlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, o'qitish dasturlari, ularning tahlili, iqtisodchi xodimlar kasb bo'yicha o'sishi kabilar bo'yicha fikrlar bayon qilingan va eng asosiysi talabalarga ishonarli tarzda berilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Ishchi-xizmatchilarni o'qitish shakli va turlarini gapirib bering.
2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash uslubi haqida fikr bildiring.
3. O'qitish dasturlarini tahlil qilib bering.
4. Iqtisodchi kadrlar kasb bo'yicha o'sishini ko'rsating.
5. Tadbirkorlik omillariga nimalar kiradi?
6. Tadbirkorlik faoliyatining umumiy va huquqiy asoslari nimalarni ko'zda tutadi?
7. O'quv dasturida qanday qoidalarga amal qilinadi?
8. Ta'lim xizmatlari bozori deganda nimani tushunasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Педагогика профессионального образования. Под.ред. В.А.Сластенина. – М.: «Академия», 2004 .

2. Э.Н.Пронина, В.В.Лукашевич. «Психология и педагогика». Учебник для студентов ВУЗов. –М.: «Элит», 2004 .

3. O'. Tolipov., M.Barakayev., Sh.Sharipov. Kasbiy pedagogika. – T.:TDIU, 2001.

4. N.Xo'jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika. – T.: TDIU, 2002.

5. www.inter-pedagogika.ru.

X bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODCHI KADRLARNI ISH BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI

10.1. Iqtisodchi kadrlarni tanlashdagi ichki va tashqi chegara.

10.2. Korxona va firmaning mehnat rezervlari.

10.3. O‘zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta’minlash va mehnat shartnomasini tuzish.

10.4. Vazifalarning mansabga ko‘ra taqsimlanishi.

10.5. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodchi kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish usullari.

10.1. Iqtisodchi kadrlarni tanlashdagi ichki va tashqi chegara

Mamlakatimiz xalq xo‘jaligini yanada yuksaltirish, aholi aql zakovat salohiyatini o‘stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari va dasturlari ishlab chiqildi. Ta’lim tizimining moliyaviy va moddiy ta’minoti qonuniy yo‘l bilan ijobiy hal etildi.

Faqat o‘tish davrining o‘zida bu dastur uchun 65 mlrd. so‘m ajratish ko‘zda tutilgan. 1999-yilda bu maqsadlar uchun 34 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizga teng qismi ma’rifat, ta’lim va tarbiyaga ajratilmoqda – bu katta miqdordagi mablag‘dir. Masalan, respublikamizda «Kadrlar tayyorlish milliy dasturi» doirasidagi ta’lim xarajatlari 1999-yili 159,2 mlrd. so‘m, 2000-yili 248,8 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2001-yili 336, 1 mlrd. so‘m sarflangan.

1997-yilda tashkil topgan «Umid» va boshqa jamg‘armalar orqali iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlardagi eng nufuzli o‘quv markazlarida tahsil olmoqdalar. Yoshlar xorij hayotini ko‘rib, xalqaro hayotiy tajriba orttirib, chet tillarini mukammal egallab, zamonaviy bakalavrlik va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi kadrlar xorijiy ta’lim markazlarida tajriba va malaka orttirib

kelmoqdalar. Bunday yondashuvlar ham O'zbekiston ta'lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Butun iqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi bo'lgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimining asosiy tamoyillari ana shu maqsadlarga tayanadi. Mamlakatimizda 1996-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida iqtisodiy ta'lim va bozor iqtisodiyoti asoslari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu kengash ishida BMTning, Yevropa Ittifoqining, Jahon bankining, Xalqaro valuta fondining O'zbekistondagi vakolatxonalari, Kondrad Adenauer nomidagi fondning Toshkentdagi vakolatxonasi kabi g'oyat nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirok etmoqda. Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

– umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirib turish;

– iqtisodiy ta'lim sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirib turish;

– bozor iqtisodiyoti bo'yicha dasturlar, o'quv-uslubiy materiallar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratish, shuningdek, yetakchi xorijiy iqtisodchilarning o'quv adabiyotlari hamda monografiyalarini tarjima qilish va ularni respublikada nashr etish ishlarini muvofiqlashtirib turish;

– xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy ta'lim sohasidagi universitetlari, o'quv markazlari, ta'lim va boshqa tizimlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlarini muvofiqlashtirib turishdan iborat.

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning umumiy mazmuni va o'ziga xos xususiyati shundan iboratki:

– u bozor iqtisodiyotining fundamental asosi;

– zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri;

– aholi kasb ta'limining obro'li sohasi;

– uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta'limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta'limi tizimi bilan uyg'unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, – «Iqtisodiyot, siyosat sohasidagi barcha islohotlarimizning asosiy maqsadi insonga qaratilgan. Mana shuning uchun ham milliy uyg'oni g'oyasini amalga oshirishga qobil yangi avlodni tarbiyalash ishi davlat ishi, uning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi».[1]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson mehnati mashina, material va kapitalga o'xshab ishlab chiqaruvchi omil hisoblanadi.

Kichik ishbilarmonlikda tasodifiy ishchilarni ishga olish juda ham xavfli bo'lib, bu korxona uchun zarar keltirishi mumkin. Ishchilarni to'g'ri tanlash uchun ikki xil ichki va tashqi chegara mavjud.

Ichki chegara – bu korxona yoki muassasa tomonidan qabul qilingan va tatbiq qilingan me'yordir.

Tashqi chegara – bu o'z ichiga qonunlashgan me'yorlarni olgan, reglamentlangan hujjatlardir, masalan, mehnat va mehnatning sanitariya normalari. Kadrlar bo'limi ishining mazmuni ishchilarni ishga yollash va korxonaning mehnat rezervlarini saqlash va rivojlantirishdan iborat.

U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– mutaxassislarni mas'uliyatli mansabga tanlash;

– ishchilarni mansabga yollash;

– ishchilarni ishdan bo'shatish;

– mutaxassislarni saqlash umumiy rejasini bajarish tizimi.

Birinchi bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mansabga nomzod bo'lgan shaxslar haqida ma'lumot to'plash.
2. Mutaxassislarni o'z ishini bajara olishini tekshirish.
3. Mansabga har xil nomzodlarni qo'yib, solishtirish tahlilini o'tkazish.
4. Mansabga mos keladigan nomzodni tanlash.
5. Mansabga tayyorlash.

---

[1] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1995-yil.

[2] G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T. «Sharq». 2002. 139-bet.

6. Ishchining ishbilarmonlik va shaxsiy sifatini tekshirish uchun sinov o'tkazish muddatini aniqlash.

10.2. Korxona va firmaning mehnat rezervlari

Firma yoki korxonani tashkil qilishdan avval menejerlar, ishchilar va xizmatchilarning ish faoliyatiga tegishli bo'lgan vazifalarni qanday taqsimlashni o'ylab chiqish zarur. Umumiy faoliyat yurituvchi bo'limlar vazifalari bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Bunga ko'ra, ishlab chiqarish, sotish, pul bilan ta'minlash va boshqarish bo'limlari amalda bo'lishi mumkin. Bu bo'limlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardagi ishchilar hamkorlikda faoliyat yuritishadi.

Vazifalarni taqsimlashning mohiyati shundaki, rahbar o'z qo'l ostidagilarga ba'zi bir masalalarni yechishda to'la harakat erkinligini berib qo'yadi, ya'ni o'zining huquq vaa majburiyatining bir qismini ularga ishonib topshiradi, ammo to'la javobgarlikni rahbarning o'zi olib boradi.

Vazifalarni taqsimlashning foydali tomoni shundaki, u jamoada ijodiy mehnat vaziyatini vujudga keltiradi. Vazifaning ma'lum qismini olgan ishlovchi mustaqil bir bo'lim bo'yicha mas'uliyatni o'ziga oladi va rahbar oldida uning uchun javob beradi, bu esa, o'z-o'zidan xodimlarni mehnatga ijodiy yondashishga safarbar qiluvchi omildir.

10.3. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta'minlash va mehnat shartnomasini tuzish

O'zbekiston Respublikasida chuqur keng ko'lamli islohotlar amaliyotga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz qiyin sharoitda kelajagimiz poydevorini qurib oldik. Bunga o'rnimizga kelayotgan yosh avlod qanday baho beradi, loyihalarimiz, ishlarimizni taroziga solib ko'rib nima deydi, har birimiz mana shu savolni dilga tugib mehnat qilishimiz lozim. Mening ishonchim komilki, O'zbekiston xalqi farovon turmush kechiradigan buyuk davlat bo'ladi».

Kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyorashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan

bog'liqdir, hozirgi kunda yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi haqiqat taqozosidir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda ulardagi biznes va tadbirkorlik talablariga yetarli darajada ko'nikmalar hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy ixtisosliklarning keng turlarini taklif etadigan oliy biznes maktablarining faoliyat ko'rsatayotganligi alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'p ukladliligi keng qamrovli iqtisodiy muammolar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan iqtisodchi mutaxassislarga talabning kun sayin ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Shunday ekan, makroiqtisodiyot va davlat boshqaruvi bo'yicha iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi sifat jihatdan qayta tashkil etilishi zarur. Shuningdek, yirik tadbirkorlik va boshqaruv bo'g'ini mutaxassislari malakasini oshirish tizimi ham rivojlantirilishi lozim.

Mehnat Kodeksida belgilangan qonunlardan muhimi mehnat shartnomasi hisoblanadi.

Mehnat shartnomasi – bu korxona bilan ishga olinadigan inson o'rtasidagi rozilik bo'lib, bunda ishga olingan xodim korxonaning mehnat tartiblariga rioya qilgan holda o'z vazifalarini bajarishi kerak. Korxona esa unga mehnat qonuniga binoan ish haqi to'laydi va mehnat sharoitini ta'minlab beradi.

Mehnat shartnomasi og'zaki va yozma holda tuzilishi mumkin. Bitim va konkurs asosida ishga olinishga qarab mehnat shartnomalari ham turli xil bo'ladi.

Ish kuchini taqsimlashning *uchinchi bosqichi* – bu ishdan bo'shatishdir. Bu mehnat qonunlari va korxonaning ichki shartlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Agar mehnat shartnomasida ishchi bilan korxona o'rtasida kelishilgan muddat tugagan bo'lsa, unda ishchi qonun asosida ishdan bo'shatiladi.

Uzrli sabablarga ko'ra ishdan bo'shatish o'ziga xos yaqinlashuvni talab qiladi, bunda ma'muriy boshqaruv apparati ishchi ariza bermaguncha, uni ishdan bo'shatishga haqli emas. Mehnat shartnomasida shunday shartlar borki, agar ular bajarilmasa, ma'muriy boshqaruv organi ishchini bo'shatishga haqlidir.

10.4. Vazifalarning mansabga ko‘ra taqsimlanishi

Mamlakatimizda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar, shu jumladan, iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o‘zining bir qator afzalliklari bilan mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Keskin o‘zgarishlar bilan xarakterlanadigan bozor iqtisodiyoti sharoitida har jihatdan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo‘la oladigan mukammal strategiyani rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega. Mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi har qanday o‘zgaruvchan vaziyatga moslasha oladigan va samarali faoliyat ko‘rsatadigan yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan barcha turdagi tadbirlar ham ushbu strategiyada o‘z ifodasini topadi va ular strategiyaning asosiy bo‘linmalari hisoblanadi.

10.5. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodchi kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish usullari

Ma’lumki, mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish muammolari hal etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, biz mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasini ikki ko‘rinishga bo‘lib o‘rganamiz. *Birinchisi,* davlat darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi bo‘lib, bu bevosita yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. *Ikkinchisi* esa alohida tarmoq, korxona yoki tashkilot darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasidir.

Kadrlar qo‘nimsizligi deb – ma’lum vaqt oralig‘ida o‘z xohishlari va ma’muriyat qarori bilan ishdan bo‘shagan ishchi-xizmatchilar sonining tekshirilayotgan vaqt oralig‘ida korxonadagi ishlovchilarning o‘rtacha umumiy sonidagi salmog‘iga aytiladi. Ko‘pincha kadrlar qo‘nimsizligi ishchi va xizmatchilarni mutaxassisligi bo‘yicha ishdan bo‘shatish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ba’zi bir salbiy oqibatlarga olib keladi – jumladan, yangi ishlovchini qabul qilish va o‘qitish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar sarf etish zarurati kelib chiqadi.

Hozirgi zamon mehnat amaliyotida kadrlar qo'nimsizligini kamaytirishning quyidagi usullari qo'llanilmoqda:

- ishchilar ish joylarini kengaytirish;
- mehnatni sifat jihatidan boyitish;
- ish vaqtini moslashuvchan shaklda tashkil etish;
- mehnat gigiyenasini yaxshilash;
- yuqori sifatli va unumli mehnat uchun mehnatga haq to'lashning ilg'or usullarini qo'llash hamda boshqa rag'batlantirish tadbirlarini amalga oshirish;
- ishlovchilar o'rtasidagi mehnat mojarolarini hal etishda oddiy usullardan foydalanish.

Shunday qilib, korxona rahbarlarining ishlovchilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qilishi, jamoada yaxshi ruhiy iqlim o'rnatish va mehnatdan manfaatdorlikni oshirish kadrlar qo'nimsizligiga qarshi kurashning usullaridan deb qaraladi.

Qisqa xulosa

Mamlakatimizda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar, shu jumladan, iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'zining bir qator afzalliklari bilan mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu bobda iqtisodchi kadrlarni tanlashdagi ichki va tashqi chegara, korxona va firma, uning mehnat rezervlari, iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta'minlash, mehnat shartnomasini tuzish, vazifalarning mansabga ko'ra taqsimlanishi, kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish va uning usullari bo'yicha materiallar berilgan hamda eng asosiysi talabalarga ishonarli tarzda bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Iqtisodchi kadrlarni tanlashda ichki va tashqi chegara qanday bo'lishi kerak?
2. Korxona va firmaning mehnat rezervlari haqida gapiring.
3. Iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta'minlash qanday amalga oshiriladi?
4. Mehnat shartnomasi deganda nimani tushunasiz?

5. Vazifalarni mansabga ko'ra taqsimlanishi Sizningcha qanday bo'ladi?

6. Iqtisodchi kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish usullari haqida tushuntiring?

7. Tadbirkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi qanday qonunlarni bilasiz?

8. Korxona deganda nimani tushunasiz?

9. Korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S. G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh. Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. Yo. Abdullayev, F. Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

4. N. Xo'jayev. J.Hasanboyev Iqtisodiy pedagogika (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2002.

5. E.Yusupov Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

6. Профессиональная педагогика. Учебник для студентов. – М.: Педагогика, 2002.

7. Педагогика профессионального образования. Под. ред. В.А.Сластенина. – Москва. Академия, 2004 .

8. N.Xo'jayev va boshqalar. Pedagogika asoslari. –T.: TDIU, 2003 .

9. www.school.edu.ru.

10. www. bilimdon. uz. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy veb sayti.

XI bob. ZAMONAVIY IQTISODCHINING SHAXSIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

11.1. Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy fazilati.
11.2. Iqtisodchining sheriklari bilan o'zaro aloqasi.
11.3. Zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlari.
11.4. Globallashuv sharoitida zamonaviy iqtisodchida shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish yo'llari.

11.1 Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy fazilati

Zamonaviy iqtisodchi shaxsiy sifatlarining strukturaviy modelini ikki xil tizim ko'rinishida namoyish etish mumkin. Birinchi modelda iqtisodiyotning umumijtimoiy sifatlari keltiriladi. Ikkinchi modelda esa kasb sifatlari yig'indisi keltirilgan. Birinchi model doimo muvaffaqiyatga erishayotganlarning shaxsiy tavsifini ajratib ko'rsatishga yordam beradi, bular:

a) doimo imkoniyat qidirish va tashabbuskorlik;

b) qo'yilgan maqsadlarga erishishda sabot va matonat;

d) samaradorlik va sifatga tomon tinmay harakat qilish;

g) maqsadga qarab intilish, qisqa muddatli masalalar yechimini oldindan ko'ra bilish;

f) zamonaviy iqtisodchi nafaqat o'z sohasini, balki mumkin qadar boshqa sohalarni ham uzluksiz tahlil qilish va oldindan ko'ra bilish.

Zamonaviy iqtisodchi mijozlari bilan aloqa o'rnatishda quyidagilarni bajarishi zarur:

– ishontirish va aloqa bog'lash qobiliyati;

– mustaqillik va o'ziga ishonish;

– darrov ilg'ab olishlik va avval to'plangan bilimlarni yangi o'zlashtirilgani bilan bog'lash;

– faoliyatning tanlangan sohasida murakkab ishni shaxsan bajara olishlikka tayyor bo'lishlik.

Umuman olganda, iqtisodchi bo'lishga ahd qilgan kishi, o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, shu jumladan o'z izlanuvchanlik qobiliyatini aniq o'lchay bilishi kerak.

11.2. Iqtisodchining sheriklari bilan o'zaro aloqasi

Ishdagi muvaffaqiyat ma'lum darajada iqtisodchining sheriklari bilan aloqasi qanchalik to'g'ri tuzilganligiga bog'liq. Sherik deb, biror bir birgalikdagi faoliyatning ishtirokchisiga aytiladi. Bir yoki bir necha iqtisodiyotga oid loyihalarini hamkorlikda amalga oshirayotgan korxona va tashkilotlar ham sherik bo'lishlari mumkin.

Iqtisodchining sheriklari bilan aloqalarini mustahkamlashda quyidagilar katta ahamiyatga ega:

– umumiy g'oyaga qiziqqan va ularni amalga oshirishga tayyor bo'lgan sheriklar bilan aloqa o'rnatish. Sheriklarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari uchun emas, balki birgalikda unumli ishlash uchun tanlash kerak;

– qarindosh va do'stlar bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berish kerak;

– boshliq bilan tuzilgan kelishuv shartlariga qattiq rioya qilinishi kerak;

- haq to'lash shartlari;

– ijtimoiy imtiyozlar (berilgan bo'lsa);

– ishdan o'z xohishi bilan yoki turli xildagi nojo'yaliklar oqibatida bo'shagandan o'z ulushini olish va hokazolar ta'minlanadi.

11.3. Zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlari

Zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlariga: ma'naviy sifatlar, ijtimoiy, ruhiy va tabiiy-genetik sifatlar kiradi.

Ma'naviy sifatlar – bu iqtisodchi faoliyatida zarur bo'lgan sifatlardan bo'lib, unga tadbirkorning dunyoqarashi, tarbiyasi, e'tiqodi kabilar kiradi.

Ijtimoiy-ruhiy sifatlar – bu iqtisodchining jamiyatga foydali bo'lishini ta'minlovchi, unga tabiat tomonidan berilgan sifatlardir.

Zamonaviy iqtisodchining kasb sifatlariga quyidagilar kiradi: ishni miridan-sirigacha bilish, intellektual-irodaviy, tashkilotchilik sifatlari.

Ishni miridan-sirigacha bilish – bu kishini lavozimga saylashda eng muhim bo'lgan sifatdir.

Kompetentlik – degani iqtisodchining biror masalani yechish yuzasidan va tajribaning yetarliligi va huquqiy jihatdan asoslanishi, ya'ni masalani hal qilishga haqqi borligini bildiradi. Shuning uchun iqtisodchi

huquq, tadbirkorlik, menejment, marketing asoslari sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Intellektual irodaviy sifatlar – bu zamonaviy iqtisodchining aqli, irodasi, sabot va matonati kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Tashkilotchilik sifatlariga esa iqtisodiyotni boshqarish, ishchi-xizmatchilarni ishga yollash, ularni ishontira olish va ilhomlantirish kabi sifatlar kiradi.

Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy sifatlari tarkibini yana quyidagi sifatlar bilan to'ldirish mumkin: odamlar bilan ishlay olish tajribasi, oliy ma'lumot hajmidagi maxsus bilimlar, ijodiy faollik, vaziyatga baho bera olish, kelajakni ko'ra olish va boshqalar. Ammo yuqorida qayd qilingan hamma sifatlarga ega bo'lgan to'kis bir iqtisodchini topish qiyin, chunki, odatda, bir kishida bunday xislatlarning hammasi jamul-jam bo'lishi mumkin emas.

11.4. Globallashuv sharoitida zamonaviy iqtisodchida shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish yo'llari

Tadbirkorlik va biznesga nisbatan minglab vatandoshlarimizning maishiy ong darajasidagi salbiy munosabatlariga bir necha o'n yillar hukmronlik qilgan g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy qoidalarning biznesni noinsoniy mashg'ulot darajasiga tushirib qo'yishi bo'ldi. Tadbirkorlik va biznesga bu kabi munosabat, shuningdek, biznesning qorong'i tomonlari: olibsotarlik, iste'molchilarni aldash, ochiqdan-ochiq nohaq bitimlarni amalga oshirish va hokazolar oqibatidir.

Shunga qaramay, tadbirkorlik va biznes faoliyatining hozirgi taraqqiyot davrida tadbirkorlik va biznesga nisbatan jamoat fikrining o'zgarayotganini kuzatish mumkin. Tadbirkorlik va biznes barcha jamiyat tizimlarida yuksalib boruvchi qoniqmaslik hissining ifodalanishi sifatida qaraladi. U barcha ijtimoiy qatlamlar orasida murosachilikni ta'minlaydi, chunki u ijtimoiy mahsulotni ko'paytirish va uni turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida to'g'ri taqsimlash imkonini beradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik va biznes rivojlanib, quyidagi ijobiy natijalarga erishishga sabab bo'ladi:

– ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni turli aholi qatlamlari o'rtasida haqqoniy me'yorlar ustunligida taqsimlash;

– ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga qobiliyatsizlar yoki beg'araz sabablarga ko'ra unumsiz ishlovchi a'zolarga mablag' ajratib, ularning yetarlicha kun kechirish darajasini ta'minlash;

– **past daromadli shaxslar sotib olish qobiliyatining turg'unligini ta'minlash;**

– **insonning asosiy huquqlari, ayniqsa, shaxsning erkin taraqqiy topishi va uni iqtisodiy taraqqiyoti uchun teng imkoniyati bilan ta'minlanish huquqlarining joriy qilinishini ta'minlash;**

– iqtisodiy va ijtimoiy toifadagi guruhiy manfaatlarga rioya qilish va ularni taraqqiy toptirish, yakka shaxs va jamiyat, ish beruvchi va ishlovchilar, ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar manfaatlarining o'zaro moslashuvini ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan uzviy bog'liqdir. Unda erkin tanlangan hayotiy pozitsiya (holat), shaxs oldida mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkin tanlab olingan hayotiy vaziyat gavdalanadi.

Bizningcha, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadini kelajakda amalga oshiradigan yoshlar, ya'ni bugungi kunning zamonaviy iqtisodchilaridir. Demak, jamiyatning kelajagi qanday bo'lishi ko'p jihatdan ularning intellektual va axloqiy jihatdan qay darajada kamol topishlariga hamda shaxsiy xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.[1]

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biror turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum huquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

[1] Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi», 2002. 64-bet.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan, mahsulot va olingan daromadga mulkchilik huquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, tadbirkorlik xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan ham uzviy bog'liqdir.

Tadbirkorlik yuqoridan belgilanuvchi qat'iy ruxsat– taqiqlar bilan bog'liq emas. Bu o'z shaxsini ko'rsatishga harakat qilish bilan bog'liq ijodiy faoliyatdir. U ish manfaati uchun o'zini-o'zi tarbiyalash va cheklashga, burch hissi va shaxsiy axloqiy javobgarlikka asoslangan bo'ladi.

Demak, tadbirkorlik faoliyati axloqiy burch, tanlash va uning uchun shaxsiy javobgarlik kabi tadbirkorning hayot tarzi va hayotning mazmuniga aylangan tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Tadbirkorning burchi – faqat «veksel bo'yicha, ya'ni haqdorlar oldida «to'g'rilik», o'zining shartnomaviy majburiyatlariga sodiq qolish bo'lmasdan, balki insonning o'z oldida erkin shaxs sifatida his qilishi hamdir.

Qisqa xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan uzviy bog'liqdir. Unda erkin tanlangan hayotiy pozitsiya (holat), shaxs oldida mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkin tanlab olingan hayotiy vaziyat gavdalanadi.

Ushbu bobda zamonaviy iqtisodchi va uning shaxsi fazilati, iqtisodchining sheriklar bilan o'zaro aloqasi, zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlari, iqtisodchida shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish xususida atroflicha fikrlar bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy fazilatini ta'riflab bering.
2. Iqtisodchining sheriklari bilan o'zaro aloqasi qanday bo'lishi kerak?

3. Zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlariga nimalar kiradi?

4. Zamonaviy iqtisodchida shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

5. Zamonaviy iqtisodchi qanday talablarga javob berishi kerak?

6. Muzokaralarda tadbirkor nimalarga ko'proq e'tibor berishi kerak?

7. Zamonaviy iqtisodchining madaniyati deganda nimani tushunasiz?

8. Mehnat shartnomasini ta'riflab bering?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: «Moliya», 2002.

2. D. Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: «Moliya», 2003.

3. E. Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

4. E. Egamberdiyev, H. Xo'jamqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: «Ma'naviyat», 2003.

5. Педагогика профессионалного образования. Под.ред. В.А.Сластенина. – Москва. «Академия», 2004 .

6. Е.Н.Пронина, В.В.Лукашевич. «Психология и педагогика». Учебник для студентов ВУЗов. – М.: «Элит», 2004.

7. O'. Tolipov, M.Barakayev, Sh.Sharipov Kasbiy pedagogika. – T.:TDIU, 2001.

8. N.Xo'jayev, J.Hasanboyev. Iqtisodiy pedagogika. – T.:TDIU, 2002.

9. www.inter-pedagogika.ru.

XII bob. MEHNATNI RAG'BATLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

12.1. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga qo'yiladigan talablar.

12.2. Iqtisodchini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tartibi.

12.3. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga haq to'lashning ijtimoiy, ma'naviy va moddiy asosi.

12.4. Zamonaviy iqtisodchi mehnatini rag'batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.

12.1. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga qo'yiladigan talablar

Respublikamizda demokratik va bozor islohotlari talablaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan maxsus milliy dastur ishlab chiqilayotganligi alohida e'tiborga sazovordir.

Hozirgi murakkab o'tish davrida, mamlakatimizning har jihatdan rivojlanishi va mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishi samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat o'zining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor jihatlari bilan mamlakatimizda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish, uni jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda tejamkorlik va raqobatbardoshlik tamoyillariga tayangan holda qayta takomillashtirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini chuqur integratsiyalashuv asosida rivojlantirish kabilar uchun yetarlicha imkon yaratmoqda. Biroq mamlakatda zamonaviy sharoitlarda samarali faoliyat ko'rsata oladigan hamda tadbirkorlik bilan har qanday iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta oladigan mutaxassislarning yetarli darajada emasligi iqtisodiy rivojlanish modelini samarali amal qilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini yangi tamoyillar asosida rivojlantirishni nihoyatda dolzarbligidan dalolat bermoqda.

12.2. Iqtisodchini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tartibi

Boshqaruv faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan rahbar xodimlarni mehnatga manfaatdor munosabatini uyg'ota bilishiga bog'liq. Mehnatga qiziqtirish tizimi xodimda o'z kasbiy faoliyati natijasidan faxrlanishni uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Mehnatni rag'batlantirish tartibi qanday? Bu – mujassama ijtimoiy-iqtisodiy, yetik, pedagogik-psixologik shartlar, kishilar ongida mehnatga halol munosabatda bo'lish, yuqori natijalarga erishishga intilishni shakllantirish maqsadida yo'naltirilgan shakl va usuldir.

Demak, birinchi o'rinda kishilar ongiga ta'sir, ya'ni mehnatga qiziqtirishning psixologik usullari turadi. Quyidagilar shunday usullar hisoblanadi:

– asosiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish usuli;

– rag'bat va asoslar birgalikda ta'sir etish usuli.

Ehtiyojlar va manfaatlar iqtisodchilarni harakatga undaydi, xatti-harakatini asoslaydi va muayyan yo'nalish bag'ishlaydi. Lekin faoliyatga tayyorgarlik aniq ko'rinishga ega bo'lishi uchun rag'bat va asoslar birgalikda harakatlanish usuli amalga oshishi kerak.

Quyidagilar iqtisodchi-tadbirkorlar mehnat faoliyatida eng barqaror asoslar bo'lishi mumkin: pul topish ishtiyoqi, shaxsning o'zini ko'rsatishi, Vatanni yuksakka ko'tarish, huquqiy yoki axloqiy jihatdan qoralanishdan qo'rqish.

Zamonaviy iqtisodchining mehnatga ongli munosabatda bo'lishining psixologik asosi – shaxsiy manfaatdorlik bo'lib, ehtiyoj va manfaatlarga taalluqli maqsadlarni amalga oshirishdir. Shaxsiy manfaatdorlikni uchburchak tarzida tasavvur qilish mumkin. Uning bir tomoni – iqtisodiy manfaat (mehnatga haq to'lash), ikkinchisi – ijtimoiy manfaat (dorilomon muomala), uchinchisi – ma'naviy manfaatlar. Har bir tomon qanchalik uzun bo'lsa, uchburchak egallagan maydon shuncha katta, desak inson shaxsiy manfaatdorligi ham, ya'ni:

– moddiy va ma'naviy rag'batlantirish birligini ta'minlash lozim;

– rag'batlantirish va jazolash kishilarni moddiy va ma'naviy mohiyatlashning aniq chorasi bo'lishi lozim.

Mazkur holda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: o'z vaqtidalik (rag'batlantirish yoki jazolashning o'z o'rnida qo'llash); oshkoralik(keng xabardorlik va rag'batlantirish chorasi hamda mehnat natijalarining taqqoslanarligi); ko'rgazmalilik (rag'bat-lantirish chorasining yaqqol ko'rinarli bo'lishi).

12.3. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga haq to'lashning ijtimoiy, ma'naviy va moddiy asosi

Ish haqining mazmunini tushunib olish uchun, eng avvalo, yaratilgan milliy mahsulotning taqsimlanish tartibi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim. Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning (tovar va xizmatlarning) taqsimlash tamoyillari bo'yicha turlicha nazariyalar mavjud (J.B.Sey, J.B.Klark).[1]

Yaratilgan ichki milliy mahsulotni uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi fondi deb yuritiladi. Ish haqi hozirgi davrda hamma mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham iqtisodchi olimlar ish haqining mazmuniga katta e'tibor beradilar. Ish haqining mazmunini aniqlashda iqtisodchilar turli tomondan yondashib, unga har xil ta'rif beradilar.

Masalan, «Yashash uchun vosita minimumi» (D.Rikardo va T.Maltuslarning) konsepsiyasida ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb hisoblaydi. Lekin ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb qarash mumkin emas. Bu minimum o'z ichiga ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug'dirgan ehtiyojlarni ham oladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotidagi ish haqining darajasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchi bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur jismoniy vositalar minimumiga qaraganda ancha yuqori darajada o'rnatilgan.

Ish haqi – ishchi va xizmatchilar, iqtisodchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir.

Ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilar, iqtisodchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iboratdir.

Bugungi kunda ishchi kuchini takror hosil qilishda ish haqidan tashqari foiz, renta, foyda, devidend, turli imtiyozlar va nafaqalarning ham roli bor.

Ishlab chiqarishning texnik asoslaridagi, iqtisodchilar mehnatining mazmunidagi, ularga bilim berish va kasb-korlikka o'rgatish borasidagi

[1] Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi – T.: «Moliya», 2002.

o‘zgarishlar munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham o‘zgarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi.

Vaqtbay ish haqi xodimning malakasi, sifati va ishdagi vaqtiga qarab to‘lanadigan ish haqidir. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo‘lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog‘liq bo‘lmagan paytlarda qo‘llaniladi. Ishbay ish haqi xodimning ishlab chiqargan mahsulot miqdori yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladigan ish haqidir.

Xodimlarning ish haqini tabaqalashtirish, eng avvalo, davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo‘yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi-xodimlarning ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

12.4. Zamonaviy iqtisodchi mehnatini rag‘batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot shu qadar jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqdaki, mutaxassislarning kasbiy bilimlari har yili ma’lum darajada qadrsizlanmoqda hamda ularda tez-tez yangilash ehtiyoji sezilmoqda. Bozor iqtisodiyoti, raqobat sharoitida, texnika va texnologiyalar jadal o‘zgarayotgan sharoitda mutaxassislarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi.

Mehnat sharoitini insonga moslashtirish hisobiga kadrlarni saqlab qolish masalasi – bu o‘ziga xos katta hajmdagi va keng qamrovli masaladir. U shunday sharoitlarni yaratish bilan bog‘liqki, ular hisobiga ishlovchi ishdan qoniqish olishi va ushbu korxonada ishlashni xohlashi lozim.

Bugungi kunda har bir iqtisodchi odatda o‘z ishidan qachonki, qilayotgan ishi o‘zining xizmat vazifasi (egallagan lavozimi), oladigan maoshi uni qanoatlantirsa va jamoada o‘zini qulay sezsagina mamnun bo‘ladi.

Insonning o‘z ishidan qoniqishining muhim omili uning qobiliyati, tajribasi va mas’uliyati hisobiga yuqori maosh bilan ta’minlanishidir. Kadrlar barqarorligini ta’minlashda boshqa korxonalarga qaraganda ma’qulroq xizmat va imtiyozlar o‘rnatilishi katta rol o‘ynaydi.

Qisqa xulosa

Ushbu bobda zamonaviy iqtisodchi mehnatiga qo'yiladigan talablar, zamonaviy iqtisodchini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tartibi, iqtisodchi mehnatiga haq to'lashning ijtimoiy, ma'naviy va moddiy asosi, zamonaviy iqtisodchi mehnatini rag'batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari kabi mavzular o'rin olgan va talabalarga ishonarli tarzda bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga qo'yiladigan talablarga nimalar kiradi?
2. Iqtisodchini moddiy rag'batlantirish tartibini ko'rsating.
3. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga haq to'lashning ijtimoiy, ma'naviy va moddiy asosiga nimalar kiradi?
4. Zamonaviy iqtisodchi mehnatini rag'batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari haqida tushuntiring?
5. Mehnat shartnomasi Sizningcha qanday bo'lishi kerak?
6. Ma'naviy rag'batlantirishga nimalar kiradi?
7. Vaqtbay ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
8. Ish haqining asosiy vazifasi nimadan iborat?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S.G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Yo. Abdullayev, F.Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

3. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2002.

4. E. Egamberdiyev, H. Xo'jamqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: Ma'naviyat, 2003.

XIII bob. BOSHQARUVCHINING ODOBI VA UNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

13.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkor-rahbar faoliyatiga qo'yiladigan talablar.

13.2. Boshqaruv odobi haqida tushuncha.

13.3. Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish.

13.4. Zamonaviy iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari.

13.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkor-rahbar faoliyatiga qo'yiladigan talablar

Tadbirkor o'z navbatida rahbar hamdir. Shu nuqtayi nazardan u bir qator talablarga javob berishi kerak. «Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'rif berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar qondirishi zarur bo'lgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

1. Ma'naviy yetuklik.

– siyosiy yetuklik; huquqiy yetuklik; axloqiy yetuklik.

– ma'rifatlilik va madaniyatlilik;

– xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;

– topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik;

– tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

2. Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

– mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;

– atrofdagilarda mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;

– ishni rejali olib bora bilish.

3. Bilim darajasi.

– iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;

– boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishini bilishi;

– istiqbolni bilishga qodirligi.

4. Tashkilotchilik qobiliyati.

– xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olishligi;

– qo‘l ostidagilarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalashni bilish;
– jipslashgan jamoani vujudga keltira olish.
5. Boshqarish samaradorligini ta’minlay olish.
– boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
– ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;
– turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
– boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta’minlay bilish.

13.2. Boshqaruv odobi haqida tushuncha

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak. Shular yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashishlariga ta’sir etuvchi shakl hamda usullarning yanada samaraliligini topish mumkin.

Rahbar quyidagi muammolarni hal etishi kerak:
– aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma’lumoti);
– ma’naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, yetik muammolarni yechish);
– muomalani dorilomonlashtirish.

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:
– ezgu ideallar bilan mashg‘ul bo‘lish;
– shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta’sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog‘liq:
– xodim madaniyati va ma’lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasi qay darajada rivojlanganligi;
– jismonan sog‘lomligi, ma’naviy barkamolligi;
– individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlari;
– mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;
– axloqiy-ma’muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta’sir umumiy va qotib qolgan bo‘lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar har bir muayyan shaxs uchun farqlidir. Shuning uchun tarbiyaviy ta’sir har bir shaxsning o‘ziga qaratilgan bo‘lishi kerak, bu rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo‘lishini taqozo etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta’sirni amalga oshirishining quyidagi ta’bir joiz bo‘lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

1. Ruhiy o‘ziga xoslik, ya’ni shaxsga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim.

2. Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish.

3. Yakka tartibda yondashish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash.

4. Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish.

5. Shaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Salening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan xoli emas: «Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadanmiz va muammolarimiz ham turlicha».

13.3. Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish

Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish degani – bu boshqarishning barcha unsurlariga e'tiborni kuchaytirish demakdir. Eng avvalo, tadbirkor yuqoridagi nuqsonlardan xoli bo'lishi va ish uslubini quyidagi ijobiy fazilatlar zamirida tashkil qilishi lozim:

1. Tadbirkor o'z huquq va vakolatidan umumdavlat manfaatlarini jamoa va xodimlarning shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un olib borishda mohirona foydalanishi zarur. Ammo davlat manfaatlariga putur yetkazmasdan, shaxsiy manfaatlar umummanfaatlarga bo'ysunishi lozim.

2. Ishlab chiqarishni faqat jamoada obro'-e'tiborga ega bo'lgan tadbirkorgina yaxshi boshqara oladi. Ayni paytda shuni unutmaslik kerakki, obro' faqat xizmat mavqei bilan emas, balki bilim, tajriba, ishga va xodimlarga munosabat bilan orttiriladi.

3. Rahbar vazmin, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta biladigan, odobli va xushmuomala bo'lishi zarur. O'z xatti-harakatini nazorat qila oladigan, kayfiyati vaa sezgilarini tiya biladigan, yurish-turishida bo'ysunuvchilarga o'rnak ko'rsatadigan bo'lishga majburdir.

4. Buyruq hammaga ham yoqavermaydi. Shu sababli bo'ysunuvchi xodimlarga beriladigan farmoyish faqat bevosita buyruq shaklida bo'lmasdan, balki topshiriq va vazifa, maslahat tarzida ham bo'lishi kerak.

Demak, tadbirkor insonlarda o'ziga nisbatan iliqlik, izzat-hurmat hissini uyg'otmoqchi bo'lsa, u salbiy xislatlardan, ya'ni buyurish, ko'rsatma berish ohanglaridan voz kechib, maslahat solishi, ulardan fikr olishi kerak. Shunda uning umumiy ishga ko'proq nafi tegadi. Rahbar

intizom va tartibga rioya qilishini qat'iy talab qilishi va bo'ysunuvchilarning biron nojo'ya harakatini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Talabchanlik tarbiyaning asosi va ongli intizomning eng mustahkam zaminidir.

13.4. Zamonaviy iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor boshqaruvchi rahbar vazifasini ham bajaradi. U bozor talablaridan kelib chiqqan holda firmaning har bir faoliyat sohasi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Shu munosabatlar bilan tadbirkor oldiga bir qator talablar qo'yiladi.

Tadbirkor, eng avvalo, iqtisodiyot, texnika va texnologiya, boshqarish va uning vazifalari to'g'risida chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib, yangilab borishi lozim. Shu bilan birga uning xodimlarni tanlay bilish, ulardan samarali foydalanish, jamoa o'rtasida intizom va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish, jamoa a'zolarini yagona maqsad atrofida jipslashtirish qobiliyatlari ham firmani boshqarish tizimida muhim o'rin egallaydi.

Tavakkalchilik va noaniqlik hukm surgan bozor munosabatlari sharoitida tadbirkor tomonidan boshqarishning bamaslahat tarzida tashkil qilinishi uning samaraliroq oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida qo'l ostidagilar fikrlarini tinglash va ulardan tegishli xulosalar chiqara olishni taqozo etadi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat asosida manfaatdorlik yotadi. Shu sababli boshqaruvchi-rahbar xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Firma va xodimlar manfaatdorligining uyg'unlashuviga erishish tadbirkorlik faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Rahbar boshqaruv qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish va boshqarish tarkibini takomillashtirib borish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Bu esa ko'zda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishiga, yuzaga kelgan muammolarni tezda hal etishga, boshqaruv qarorlariga tuzatishlar kiritishga imkon yaratadi.

Qisqa xulosa

Ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabat mustaqillik, ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida ta'lim islohotlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha o‘quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ma’naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar. O‘quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o‘quv muassasasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu bobda tadbirkor-rahbar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, boshqaruv odobi, zamonaviy iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari, rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish, firma va xodimlar manfaatdorligini ta’minlashda rahbar faoliyatining muvaffaqiyati, boshqaruv hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Tadbirkor-rahbar faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni sanab ko‘rsating.
2. Boshqaruv odobi deganda nimani tushunasiz?
3. Zamonaviy iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalariga nimalar kiradi?
4. Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsating.
5. Firma va xodimlar manfaatdorligini ta’minlashda rahbar faoliyatining muvaffaqiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
7. Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etishning qanday usullarini bilasiz?
8. Qaysi xislatlar tadbirkor rahbarni el nazaridan qolishiga olib keladi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya. 2002.

2. D. Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma). – T.: Moliya, 2003.

3. E. Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

4. E. Egamberdiyev, H. Xo'jamqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: Ma'naviyat, 2003.

5. Е.Н.Пронина, В.В.Лукашевич. «Психология и педагогика». Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Элит, 2004 г.

6. O'. Tolipov., M.Barakayev., Sh.Sharipov. Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001 yil.

7 . N.Xo'jayev va boshqalar. Pedagogika asoslari. –T.: TDIU, 2003 yil.

8. www.inter-pedagogika.ru.

9. www. bilimdon. uz. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy veb sayti.

XIV bob. KADRLARNI KASBIY TAYYORLASH SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

14.1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar.

14.2.Zamonaviy iqtisodchi kadrlarni kasbiy o'qitish va uning shakli.

14.3.Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesda kadrlar siyosati (Boshqarish san'ati, kadrlar strategiyasi va kadrlar siyosati konsepsiyasi).

14.4.Kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillar.

14.1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining muhim sharti sifatida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish muammosi ilgari surildi. Milliy meros va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida erishilgan yutuqlarni ta'lim tizimiga tatbiq etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da alohida qayd etib o'tilgan.[1] Kadrlar tayyorlash tizimining mazmuni – mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirgan, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish hamda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishini ta'minlashdan iborat. Bunga esa faqatgina uzluksiz ta'lim tizimini doimiy takomillashtirib borish orqaligina erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» malakali kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur tarixiy hujjatda o'z ifodasini topgan kadrlar tayyorlash milliy modeli barkamol shaxs va malakali mutaxassisni shakllantirish jarayonining mazmunini ilmiy jihatdan asoslash bilan birga uning

[1] Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. 1997.

ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik, pedagogik va boshqa asoslarini yoritib beradi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da mavjud sharoitda malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonida yechimi ijobiy ta'minlanishi zarur bo'lgan vazifalar ko'rsatib berilgan. Ushbu vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi: uzluksiz ta'lim tizimini barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalarini malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, ularning mavqeini oshirish, axloqiy-ma'naviy tarbiyalashning samarali shakl, metod va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish, ta'lim jarayonining sifati hamda samaradorligini ta'minlash, o'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida qo'lga kiritilgan yutuq va tajribalari bilan tanishish, ularning ijobiy jihatlarini o'zlashtirish, ta'lim sifatining jahon ta'limi standartlariga to'la javob bera olishini ta'minlashdan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish sanaladi. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining asosiy subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Uzluksiz ta'lim tizimida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqaruvchisi bo'lgan fan hamda shaxs o'rtasidagi munosabatlar bevosita kadrlar tayyorlash tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Bo'lajak mutaxassislar qiyofasida barkamol shaxs va malakali mutaxassis kadrlarga xos bo'lgan sifatlar o'z aksini topa olishi zarur. Mazkur sifatlarning namoyon bo'lishi bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasini tavsiflaydi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da shakllangan shaxs ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat ekanligiga urg'u beriladi:[1]

- mustaqil, erkin fikrlovchi;
- mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq, vatanparvar;
- yuqori malakali mutaxassis;
- ijtimoiy-siyosiy faolikka ega shaxs;
- ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi;
- ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olganligi;
- fikrlash va munozara yuritish madaniyatiga egalik;
- boy dunyoqarashga ega shaxs.

[1] Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qarori // Ma'rifat gazetasi – 17.08.2001. – №121.

Shu bilan birga bo‘lajak kadrlar Davlat ta’lim standartlariga kiritilgan talablarni bajarishlari shart. Kadrlar malakasini oshirish tizimida esa shaxs kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning me’yoriy ko‘rsatkichlariga asoslanuvchi hamda davlat attestatsiyasi talablariga javob bera olishi zarur.

Kasbiy faoliyat (mehnat) tavsifi ham kasbiy faoliyat mohiyatini yorituvchi muhim me’yoriy hujjatlarning biri sanalib, unda kasbiy faoliyatning ijtimoiy xususiyati, ahamiyati, uning ommaviylashganlik darajasi, mehnat sharoitlari, shuningdek, mazkur faoliyatni tashkil etishda qo‘llaniluvchi mehnat qurollari to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi.

Kasbiy faoliyat tavsifi mazmunida quyidagi holatlar ifoda etiladi:

1. Kasb (kasbiy faoliyat)ning ijtimoiy yo‘nalganligi, vazifasi, uning jamiyatdagi o‘rni va roli (moddiy va ma’naviy mahsulot (g‘oya)lar ishlab chiqarish, turli ijtimoiy sohalarda xizmat ko‘rsatish, axborotlarni to‘plash, saqlash va tarqatish), uning inson ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga yo‘naltirilganligi.
2. Kasb (kasbiy faoliyat)ning ommalashganlik darajasi.
3. Kasbning mehnat predmeti mutaxassis tomonidan mehnatni tashkil etish jarayonida uning shaxsi hamda mehnati samarasiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarning mavjudligi.
4. Bo‘lajak mutaxassisga kasbiy bilimlarni uzatishning ijtimoiy zaruriyati.
5. Samarali natijaga erishish uchun faoliyat jarayonida qo‘llaniluvchi texnika, texnologiya, faoliyat hamda ularning ko‘lami, umumlashtirilganligi, avtomatlashtirilganligi.
6. Mehnat vositalari zarur mehnat mahsulotini olish yo‘lida xususiy maqsadni amalga oshirish, mehnat predmetiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida inson tomonidan foydalaniladigan ijtimoiy (moddiy va ma’naviy omillar). Ayni o‘rinda mehnat vositalari sifatida e’tirof etiluvchi ashyolar (ish qurollari, asbob-uskunalar, kompyuterlar hamda mantiiqiy fikrlash, axloqiy va estetik baholash tizim va ko‘rsatkichlari) ham sanab o‘tiladi.
7. Mehnat sharoitlari (mehnat va dam olish tartibi, ularni o‘zgartirish va o‘zaro muvofiqlashtirish imkoniyatlari, mehnatning sanitariya-gigienik omillari; ish joyi, mehnat sur’ati, ishning davomiyligi).

8. Mutaxassis kadrning ma'naviy-axloqiy qiyofasi.

9. Mutaxassislik majburiyatlari (kasbiy malakani egallash, kasbiy xulq-odob qoidalarining majburiyligini bilish), kasbdoshlari bilan munosabatda samimiy, axloqli bo'lish, hujjatlarni to'g'ri yuritish va hokazolar.

10. Kasbning inson xulq-atvori va yashash tarziga ko'rsatuvchi ta'siri.

Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan kadrlar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar malakaviy tavsifnomalar asosida aniq yoritib beriladi. Malakaviy tavsifnoma me'yoriy hujjat sanalib, unda muayyan yo'nalishda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrning shaxsi va ular tomonidan amalga oshiruvchi faoliyat mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni aks ettiradi.

Oliy o'quv yurtlarining amaliy faoliyatida asos sifatida foydalanib kelinayotgan malakaviy tavsifnomalar bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarligini avvaldan tashxislash hamda u tomonidan o'zlashtiriluvchi nazariy va amaliy bilimlar darajasini bashoratlash imkonini beradi.

Shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlash ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida ro'y beradi. Ta'lim ijtimoiy tizim sifatida, bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy qiziqishlari, hayotiy maqsadlarini rivojlantiruvchi, erkin, individual ta'limni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Bu holat zarur darajada talabalarga bilimlar berishni yo'lga qo'yish bilan ta'minlanadi. Ushbu jarayonda shaxsning individual va takrorlanmasligini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Demak, shaxsni, uning rivojlanishini hamma bosqichlarida kuzatib borish zarur. Shaxsning rivojlanishi – ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u individual xususiyatlar negizida qaror topadi. Har bir talabaning o'z rivojlanish, shaxsiy yo'lini tanlash huquqini tan olish (o'qishning moslashtirilgan, variativ shakli, metod va vositalari bilan) lozim.

Shunday qilib, ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yangi qadriyatlar shakllanadi. Turli faoliyat yo'nalishlarida o'zini idrok va namoyon etish uchun zarur sharoitlarni yaratish masadga muvofiq. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi to'g'ri yo'l – pedagogikada hamkorlik, o'zaro aloqalar, o'z hissasini qo'shish va o'zaro yordamdan iboratdir. Xususan, zarur vaziyatlar yaratishda hamkorlikda faoliyat yuritish tamoyili – demokratiya, ishonch, bir-birini amalda individual

qiziqishlarni qabul qiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish, mutaxassis kadrning qobiliyati va iste'dodini ochib berishga qaratiladi.

14.2. Zamonaviy iqtisodchi kadrlarni kasbiy o'qitish va uning shakli

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodchi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ilgari sobiq ittifoq davrida iqtisodchilar faqatgina Toshkent xalq xo'jaligi instituti va uning viloyatlardagi filiallari, Samarqand kooperativ instituti kabi sanoqli oliygohlarda tayyorlangan bo'lsa, mustaqillik yillarida bunday oliygohlarning soni bir necha barobarga ko'paydi. Endilikda, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida nafaqat ichki iqtisodiyotimiz uchun mutaxassislar, balki tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida ham yetuk malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi amal qilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayoigan mamlakatlarining deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'p ukladliligi keng qamrovli iqtisodiy muammolar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan iqtisodchi mutaxassislarga talabning kun sayin ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Shunday ekan, makroiqtisodiyot va davlat boshqaruvi bo'yicha iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi sifat jihatdan qayta tashkil etilishi zarur. Shuningdek, yirik tadbirkorlik va boshqaruv bo'g'ini mutaxassislari malakasini oshirish tizimi ham rivojlantirishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi mutaxassislar tayyorlashning nisbatan yangi yo'nalishi hisoblanadi, bugungi kunda xalqaro biznes, xalqaro marketing va menejment, xalqaro moliya hamda bank ishi, bojxona ishi, xorijiy sarmoyalar va boshqa ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislarga talab ortib borayapti. Shu boisdan ixtisoslashgan iqtisodiyot universitetlari va biznes maktablari uchun rivojlanib borayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan

mutaxassislarni tayyorlash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir mutaxassis kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.[1]

Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish, fanlarni o'qitishda o'quv-uslubiy kompleks va uning o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llash muhim rol o'ynaydi.

Biz eng avvalo kimni, qanday kadrlar tayyorlashni aniq tasavvur qilishimiz kerak. Bu maqsad davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topadi.

Standart (inglizcha Standard–norma, namuna) mahsulotni sifati, tarkibi jihatidan qat'iy belgilangan parametrlardan tashkil topgan mahsulot, qoida va ko'rinishdir. Standart keng ma'noda bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo'lgan obyektlarni solishtirish uchun qabul qilingan namuna, modeldir. Standartlar texnik normativ hujjat sifatida ishlab chiqilib, qabul qilingan ma'lum mezonlar, qoidalar, talablar kompleksidan iborat. Ular vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishidan maqsad tayyorlanayotgan kadrlarimizni zamon talabi darajasida bo'lishini ta'minlashdir.

Bu standartlarda ta'lim muassasasini bitirib chiqayotgan talabalar qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning qo'lidan nima ish kelishining minimal darajasi belgilab qo'yiladi.

Bizning tahlillarimizcha, ta'limni standartlashtirish bu butun dunyo miqyosida ta'limni isloh qilishdagi eng asosiy tendensiyalardan biridir. Unga bozor iqtisodiyoti talabalari nuqtayi nazaridan yondashiladi.

---

[1] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: «O'zbekiston», 1997-yil.

Jamiyat bilan ta'limning o'zaro moslashishini ta'minlash bugungi kunning asosiy masalasidir. Jamiyatda sodir bo'ladigan yangiliklar, iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi va amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalardan biri, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga talablarini, ularning madaniy va ma'naviy ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va uni tatbiq etishdir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish:[1]

1. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda ta'lim ekvivalentligini, turli ta'lim muassasalari diplomlarini taqqoslab, mamlakatimiz ishchi va mutaxassislarini xalqaro mehnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishini ta'minlaydi.

2. Ta'lim xizmatlari sifatiga aniq talablarni belgilab qo'yilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

3. Ta'lim muassasalari ishi samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

4. Iqtisodiyot va biznes talablarini tezda ilg'ash va hisobga olish imkoniyatlarini yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan so'ng uning talablarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 5-yanvarda «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari»ni ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi va shu qaror asosida «Davlat ta'lim standartlari to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi.

Nizomning 1.1 bandida: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonunining 7-moddasida, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunish va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Davlat ta'lim standartida kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablar, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda ta'lim muassasalarining bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari, o'quv yuklamasining zarur hajmini, ta'lim

[1] O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun darsliklar va o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 341-sonli qarori // Ma'rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.

muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilash qayd etilgan.

Nizomda davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari ko'rsatilgan. Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini ta'minlash hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar asosida rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- ta'limning demokratlashuviga insonparvarlashuviga, ijtimoiy-lashuviga ko'ra, ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning jamiyat va davlatning vazifalarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyati mezonlari va tartibini baholash;
- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Shu maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlarining vazifalari belgilandi, ular:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga nisbatan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilim va malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;
- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining samarali shakllari va usullarini joriy etish;

➢ ta'limning barcha turlari mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish, ularning o'zaro bog'liqligini uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

➢ o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

➢ ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis qismini, ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

➢ kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

➢ milliy standartlar talabi bilan ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashning xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Nizomda ta'limning barcha turlarini standartlashtirish ko'zda tutilgan.

Ta'limning standartlashtirish obyektlari:

➢ ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasining hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati;

➢ talablar me'yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek, ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar;

➢ ta'lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va ilmiy pedagog xodimlar sifatini baholshani o'z ichiga oladi.

Davlat ta'lim standartiga o'zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ravishda ta'lim darajasi va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar o'zgarishi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, bugungi kunda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagilardan iborat, ya'ni:

- davlat ta'lim standartlari;
- asosiy qoidalari bo'yicha tayanch o'quv rejasi ishlab chiqiladi;
- tayanch o'quv rejalari ta'lim muassasalarining ishchi–o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

14.3. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesda kadrlar siyosati (Boshqarish san'ati, kadrlar strategiyasi va kadrlar siyosati konsepsiyasi)

Kadrlar xalq xo'jaligining turli sohalaridagi mutaxassislar, shuningdek, yuqori malakali ishchilar – o'rta maxsus o'quv yurtlari, kollejlarning bitiruvchilaridir.

Boshqaruv kadrlari bu malakaviy faoliyati to'la yoki asosan korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tijorat, moliyaviy yoki ishlab chiqarish boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi xodimlarga aytiladi.

Kadrlar siyosati va boshqarish san'ati bu xalq xo'jaligida eng yaxshi boshqaruv kadrlarini uzoq muddatga tayyorlashdir. Kadrlar siyosati korxonalarda, firmalarda, korporatsiyalarda mutaxassislarni qayta tayyorlash, uzoq muddatli dasturlarda ishlab chiqiladi. Masalan, yangi biznes usullarida tadbirkorlik faoliyati sohalari bilan shug'ullanuvchi kadrlar kerak, shuningdek menejment, marketing, bank faoliyati sohalarida ishlashni biladigan mutaxassislar zarur.

Kadrlar strategiyasi bu kadr bilan ishlash usullarining asosiy maqsadini aniqlaydi. Ishlab chiqish uchun texnik, marketing, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tahlil qilish kerak. Bu tahlil asosida firma kadrlar konsepsiyasi shakllanadi, tashkilot faoliyatini samarali boshqarish uchun qanday kadr kerak bo'lishi aniqlanadi. Bunday konsepsiya quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tarmoq rivojlanishining strategik yo'nalishini hisobga olish;
- haqqoniylik;
- iqtisodiy va siyosiy hayotning o'zgaruvchan muhitiga mo'ljal olish;
- korxonani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga yo'naltirilganlik.

Kadrlar siyosati deganda, kadrlar bilan joriy ishlash usullari tushuniladi. U aniq sharoitlarda kadrlar siyosati prinsiplarini amalga oshirish ketma-ketligini nazarda tutadi. Uning ahamiyati shundan iboratki, kadrlarni to'g'ri tanlash, o'rniga qo'yish, o'qitish, tarbiyalash, ishlatish va qayta tayyorlashdir.

Kadrlar ishining asosiy maqsadi quyidagilar:

1. Kadrlarga talabni rejalashtirish.
2. Kadrlarni tanlash va baho berish uslubini ishlab chiqish.
3. Yosh kadrlarni tarbiyalashni rejalashtirish.
4. Boshqaruv uslubini takomillashtirish va boshqalar.

14.4. Kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillar

Respublikamizda vujudga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, milliy an'analarimizning o'ziga xos xususiyatlari, oliy ta'lim tizimining oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar uning maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, ularning mahoratini yuqori darajaga ko'tarish, kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun qator zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va joriy etishning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning barcha bo'g'inlari va darajalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Kadrlar malakasini oshirish tizimining eng zarur vazifalaridan biri mutaxassis kadrlarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini yangilash, ularda o'z faoliyatiga ijodiy yondashishni shakllantirishdir. Bu ish albatta, zamonaviy iqtisodchilarda o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash, kadrlar ishidagi muhim asosiy tomonlarni topib, ulardan ish jarayonida foydalanishlarida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish kadrlar tayyorlash tizimi barcha bo'g'inlarining o'zaro aloqasi va izchilligiga bog'liq. O'qitishning samarali shakl va metodlarini izlab topish, iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik faoliyatini kuchaytirish, ularning mahoratini oshirish shart-sharoitlarini belgilash bugungi kunda hal qilinishi lozim bo'lgan ishlardandir.

Bugungi kunda kadrlar malakasini oshirishni tinglovchilarning talab va ehtiyojlari asosida tashkil qilish lozim. Chunki iqtisodchilar malaka oshirish davrida ma'lum bilim, ko'nikma, malakalar va yangiliklarga ega bo'ladilar. Bu esa o'z ish joylariga borganda ishni yangi texnologiyalar asosida olib borishlari uchun zamin hozirlaydi.

Demak, iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish ishini rivojlantirish va yuqori darajaga ko'tarish dolzarb vazifalardan biriga aylanishi kerak. Shu sababli ham zamonaviy iqtisodchilarning malakasini oshirishning

yuqoridagi yo'nalishlarini amalga oshirish orqali bu sohadagi ishlarning samaradorligini orttirish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirayotgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'zining bir qator ustuvor yo'nalishlari va afzalliklari bilan iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti talablariga javob beradigan zamonaviy yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir, Dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarning barchasi to'laligicha bajarilsa, u holda mamlakatimiz mavqeini ko'tarilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan yetuk malakali mutaxassislar, shu jumladan iqtisodchi mutaxassislar yetishib chiqadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning bir qator muhim omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:[1]

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlar va tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyotining kengayotganligi.

3. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligining qaror topganligi.

4. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanganligi, boy milliy, madaniy, tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga bo'lgan hurmat e'tiborning oshib borayotganligi.

5. O'zbekistonning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi va boshqalar.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan mutaxassislar tayyorlash tizimining asosiy maqsadi, dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda, shakllanib kelgan ta'lim salohiyatining ijobiy qirralarini takomillashtirish asosida yetuk malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

---

[1] Tojiboyeva D., Xo'jayev N. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 255 b.

Qisqa xulosa

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarining deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar.

Ushbu bobda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, iqtisodchi kadrlarni kasbiy o'qitish va uning shakli, kichik biznesda kadrlar siyosati, kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar haqida fikr bildiring.
2. Zamonaviy iqtisodchi kadrlarni kasbiy o'qitish va uning shakli haqida gapiring.
3. Kichik biznesda kadrlar siyosati nimalardan iborat?
4. Kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillarga nimalar kiradi?
5. Malaka oshirish qanday amalga oshiriladi?
6. Ishchi-xizmatchilarni kasbiy o'qitishning qanday shakllari mavjud?
7. Kadrlar ishining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari nimalarda o'z ifodasini topgan?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S. G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh. Shodmonov, R.Alimov, T. Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. Yo. Abdullayev, F. Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

4. N. Xo'jayev, J. Hasanboyev Iqtisodiy pedagogika (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2002.

5. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: «Moliya», 2002.

6. D. Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: «Moliya», 2003.

7. Янчевский В.Г. Менеджмент, маркетинг, бизнес. Деловым людям о предпринимателстве. – М.: 1992.

8. Профессионалная педагогика. Учебник для студентов. – М.: Педагогика, 2002.

9. N.Xo'jayev va boshqalar. Pedagogika asoslari. –T.: TDIU, 2003 .

10. www.school.edu.ru.

11. www. bilimdon. uz. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy veb sayti.

XV bob. ZAMONAVIY IQTISODCHINING MA'NAVIYATI

15.1.Zamonaviy iqtisodchida adab fazilatlari majmuasining mavjudligi.

15.2. Iqtisodchining o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan madaniyati.

15.3. Ishchi-xodimlarni qabul qilish, kengash va majlislarni olib borishdagi madaniyat.

15.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida iqtisodchi shaxsiga xos sifatlar va iqtisodchining ma'naviyati.

15.1. Zamonaviy iqtisodchida adab fazilatlari majmuasining mavjudligi

Zamonaviy iqtisodchining ma'naviyati deganda, avvalo odob va iqtidor o'rtasidagi dialektik bog'lanish tushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuasida o'z aksini topadi: ya'ni axloqiy kamolot – inson ijtimoiy takomillashuvining tarkibiy qismidir. Axloq insonning ijtimoiy, ma'naviy takomillashuvi jarayonidagi o'ziga va boshqalarga munosabatini belgilovchi ma'naviy, amaliy fazilatlar va harakatlar tizimidir.

Axloqiy ong bilan bog'liq bo'lgan bunday munosabatlar ibtidoiy jamoa davridayoq shakllana boshlagan. Bunday munosabatlar odam zotining yashash, ovqat topish, o'zini himoya qilish, xo'jalik yuritish, nasl qoldirish, bolalarni tarbiyalash singari tabiiy, ijtimoiy ehtiyojlari bilan belgilangan. Jamiyat rivojlangani sari odamlarning bir-biri bilan axloqiy munosabatda bo'lish ehtiyoji ham ortib, tobora katta ahamiyat kasb etib boravergan. Shu sababli ham jamiyat odamlarning miqdoriy yig'indisi emas, balki mustahkam ijtimoiy-ma'naviy birligidir.

Axloqiy tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlar va o'zbek mutafakkirlarining axloqiy qarashlaridan foydalanish bilan bir qatorda, bugungi kunda ilm-fan erishgan yangi bilimlardan foydalanishni yo'lga qo'yish ham muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki fanning rivoji axloqiy bilimlarimizni boyitishga va axloqiylikning ilmiy asoslarini anglab yetishga yordam beradi. Ushbu ilmiy-axloqiy bilimlar

zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarning axloqiy qarashlarini, e'tiqodini tarbiyalaydi va dunyoqarashini yangi bir pog'onaga ko'taradi.

Zamonaviy iqtisodchilar o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi va bu dunyoqarash uning o'z shaxsiga, odamlarga, hayotga bo'lgan munosabatini yo'naltiruvchi asos sifatida maydonga chiqadi. Hayotiy maqsadni tanlash va unga intilish ham ma'lum axloqiylikni talab etadi. Axloqiy madaniyat darajasi shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari qanchalik axloqiy ekanligi va ularga erishish uchun foydalanilayotgan vositalar axloqiy nuqtayi nazardan qanday ekanligini belgilaydi.

Insonning axloqiy takomillashganligi uning motivatsiyasida, insonparvarlikning egoizmdan, umuminsoniylikni xususiydan ustunligida namoyon bo'ladi. Ammo bunday maqsadga erishish uchun, avvalombor, axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy-pedagogik asosda rejalashtirish ishini bajarish talab etiladi. Axloqiy tarbiya jarayonini rejalashtirish uchun zamonaviy iqtisodchilarning axloqiy tarbiya darajasini o'rganish talab etiladi.

Bugungi kunda axloqiy tarbiya oldiga qo'yilayotgan jamiyat talablarini o'rganish va bu talablarni bajarish yo'llarini qidirish ham axloqiy tarbiya vazifalaridan biri hisoblanadi. Nafaqat bugungi, balki ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishimiz va tashkil etishimiz lozim.

15.2. Iqtisodchining o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan madaniyati

Amaliyotda tadbirkor yoki rahbar madaniyati aniq ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Ularni quyidagi 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Tadbirkorning o'ziga nisbatan madaniyatliligi.

– so'z bilan ishning birligi;

– o'z kasbiy mahoratini, iqtidori-ma'naviy komilligini o'stirish ustidan qayg'urish;

– o'z-o'zini tanqid asosida o'z kamchiliklarini bo'yniga olmoq;

– o'z malakasini oshirishga bo'lgan intilish va uning uddasidan chiqa olish;

– o'ziga va mehnat faoliyatiga bo'lgan talabchanlik.

2. Tadbirkorning jamoaga nisbatan madaniyatliligi, xalqparvarligi, ya'ni:

– kishilarga e'tibor va hurmat;

– kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;

– olijanoblik va beg'arazlik, xolislik.

Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish.

– odamlarga ishonch, kishilarning o'z kuchiga, qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlay olish, uning shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;

– yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lishi va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;

– salbiy fazilatlarga ega bo'lgan, qonun-qoidalarga rioya qilmaydigan, adabsiz kishilarga, shu jumladan, qavmu qarindosh va yaqin tanish-bilishlariga nisbatan toqati yo'q.

Mehnat va do'stlikdagi sherikchilik.

– o'zaro yordam va quvvatlash;

– hozirjavoblik va majburiylik, so'zsiz bajarishlik;

– talabchanlik.

3. Tadbirkorning jamiyatga nisbatan madaniyatliligi.

– yuqori darajadagi fuqarolik, vatanparvarlik va baynalmilallik;

– jamiyat baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, yurt boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish;

– ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, jamiyat manfaatlari buzilishiga nisbatan shafqatsiz bo'lish;

– ko'pfikrlilikka, ochiq ko'ngillik bo'lish va uni hurmat qilish.

Har qanday holatda ham iqtisodchi yoki tadbirkor qaysi bo'g'inda rahbar bo'lishidan qat'i nazar, o'zining asosiy majburiyati, ya'ni qo'l ostidagilarni o'zining misolida tarbiyalashni unutmasligi kerak. Chunki rahbar nafaqat mansabdor, u o'z navbatida ham tarbiyachi, ham sotsiolog, ham psixologdir, sodda qilib aytganda, rahbar – bu kishilar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni sozlovchi, uyg'unlashtiruvchi «muhandisdir».

15.3. Ishchi-xodimlarni qabul qilish, kengash va majlislarni olib borishdagi madaniyat

Tadbirkor o'z navbatida rahbardir. U xodimlarni qabul qilish madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, xodimlarni qabul qilish, ularning tashvishlariga quloq solish, og'irlarini yengil qilish har bir rahbarning burchi va vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham qabul

madaniyatiga rioya qilish uchun rahbar quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:

1. Suhbatdoshingizni qancha vaqtingiz borligi to'g'risida ogohlantiring;
2. Faqat suhbatdoshingiz gaplarini inobatga olib, vaziyatni ko'z oldingizga keltiring;
3. To'xtatib bo'lmaydigan, uzil-kesil munozaradan o'zingini tiying;
4. O'z fikringizni ishonchli va batafsil ayting;
5. Ovozingizni baland qilmasdan gapiring, so'zlaringiz dona-dona va ravon bo'lsin;
6. Savollarni shunday tuzingki, ularni tushunish bir xilda bo'lsin;
7. Suhbatdoshingizning yumushi o'zi uchun o'ta muhim ekanligini unutmang.

Qabulingizda bo'lgan shaxsning muammosini hal etishga imkoniyat bo'lmagan taqdirda ham siz uni samimiy, iltifot bilan kuzating va xayrixohlik bilan ishining o'nglanib ketishiga umid baxshida eting.

Tashkilotda rahbarlardan qaysi biri, qanday masala yuzasidan kishilarni qabul qilishi aniq belgilab qo'yilishi zarur. Bo'ysunuvchilarni iltimosiga ko'ra, qabul qilganda rahbar ularga iltimos va takliflarini qisqa bayon qilishni o'rgatishi lozim. Umuman, rahbar o'zi taklif qilib qabul etsa, bo'ysunuvchi bu haqida oldindan xabardor qilinishi talab etiladi.

15.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida iqtisodchi shaxsiga xos sifatlar va iqtisodchining ma'naviyati

Mustaqil O'zbekistonning jahon rivojlangan mamlakatlari darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq.

Bu to'g'rida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, – biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz,

mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishi yoki boshqacharoq qilib aytganda, qanday kadrlar kelishiga bog'liq, - deydi.

Mamlakatimizda mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan boshlab ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ma'naviyatga, milliy g'oya tamoyillariga bo'lgan munosabat alohida o'ringa ega bo'lib, shu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar jamiyat hayotining barcha qirralarida o'z aksini topmoqda.

Shu bois milliy istiqlol g'oyasini «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmuni bilan uyg'un holda yosh avlod ongiga singdirish, e'tiqodi mustahkam, vatanparvar, istiqlol va demokratiya g'oyalariga sodiq fuqaroni shakllantirish – ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim masalalardan sanaladi.

Milliy istiqlol g'oyasi vazifalarini amalga oshirish, milliy mafkurani shakllantirish va uni yoshlar ongiga singdirish pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab etadi. Shuning uchun ham iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlashda iqtisodiy o'quv yurtlarining asosiy vazifasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkura ruhida tarbiyalangan, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan yuksak qurollangan o'qituvchilarni yetishtirish sanaladi.

Iqtisodchi-pedagoglarning ma'naviy shakllantirish asosan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Pedagogik ta'lim jarayoni esa, talabaning ijodiy, axloqiy, ma'naviy, jismoniy potensialini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan shaxsni ma'naviy shakllantirishda ijtimoiylik kasb etadi. Ya'ni ta'limni ijtimoiylashtirish kishini o'z-o'zini anglashiga imkon yaratadi.

Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning ma'naviy rivojlanishi bir- biri bilan bog'langan uzviy jarayon. Ma'naviy jihatdan yetuk kishilargina jamiyat hayotida faol ishtirok etib, uni rivojlantirishga munosib hissa qo'sha oladi. Shu bois ham mustaqil O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, ma'rifiy - tarbiyaviy ishlarni muntazam amalga oshirishga qaratilgan qator farmoyishlar qabul qilinib, ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. Eng muhimi, jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shaxsning ma'naviy rivojlanishi odamlar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy hayotdagi sharoit va imkoniyatlar, madaniy, ma'rifiy tadbirlar, mafkuraviy ishlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi. Inson tarbiyasiga oid har bir tadbir ma'lum maqsadga

yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimov yosh avlodni tarbiyalashda ma’naviy - mafkuraviy ishlarni yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarish, uning samaradorligini oshirish uchun milliy g‘oya, milliy tafakkurni shakllantirishni muhim vazifa qilib qo‘yadi.

Qisqa xulosa

Ushbu bobda zamonaviy iqtisodchida adab fazilatlari majmuasining mavjudligi, iqtisodchining o‘ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan madaniyati, ishchi-xodimlarni qabul qilish, kengash va majlislarni olib borishdagi madaniyat, iqtisodchi shaxsiga xos sifatlar, zamonaviy iqtisodchi ma’naviyati, iqtisodchi siymosiga qo‘yilgan talablar va unda sharqona fazilatlarning namoyon bo‘lishi kabilar bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchida adab fazilatlari majmuasining mavjudligini aniqlang.
2. Iqtisodchining o‘ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan madaniyati Sizningcha qanday bo‘lishi kerak?
3. Ishchi-xodimlarni qabul qilishdagi rahbar madaniyati haqida gapiring.
4. Kengash va majlislarni olib borishdagi rahbar madaniyati qanday bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi?
5. Zamonaviy iqtisodchi shaxsiga xos sifatlarni belgilang.
6. Iqtisodchi ma’naviyatiga misollar keltiring.
7. Zamonaviy iqtisodchi siymosiga qo‘yilgan talablarni sanang.
8. Iqtisodchida sharqona fazilatlar qanday namoyon bo‘ladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Yo.Abdullayev, F.Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.

2. N. Xo‘jayev, J. Hasanboyev Iqtisodiy pedagogika (O‘quv qo‘llanma). – T.: TDIU, 2002.

3. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: «Moliya». 2002.

4. D. Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: «Moliya», 2003.

5. Бордавская Н.В., Реан А.А. Педагогика. –М.: Питер, 2004.

Профессионалная педагогика. Учебник для студентов. -- М.: Педагогика, 2002.

6. Пронина Е.Н, Лукашевич В.В.. Психология и педагогика. Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Элит, 2004 г.

XVI bob. MUTAXASSISNING O'ZINI-O'ZI TARBIYALASHI VA BOSHQARUVINING NAZARIY ASOSLARI

16.1. Boshqaruv nazariyasi va boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi.

16.2. Zamonaviy iqtisodchining o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni.

16.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy boshqaruv va uning tamoyillari.

16.4. Boshqarish tamoyillari va uslubi.

16.1. Boshqaruv nazariyasi va boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi

Boshqaruv moddiy va mehnat resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishga qaratilgan faoliyat bo'lib, alohida kasb turi ham hisoblanadi.

Boshqaruv bilan yonma-yon menejment atamasi ishlatiladi. Menejment deganda asosan firma doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tushuniladi. Boshqacha aytganda, firma faoliyatini boshqarishga firma menejmenti deyiladi. Firma faoliyatini boshqaruvchi shaxs menejer hisoblanadi. Menejerlar odatda yollanib ishlovchi xodim bo'lib, ular faqat firma mulkini boshqarish huquqiga ega bo'ladilar. Menejerlar boshqaruv to'g'risidagi bilimlarini puxta o'zlashtirgan va bozor sharoitida firmani boshqarish malakasiga ega bo'lgan rahbarlardir.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etish, raqobatbardosh mahsulot yaratish va uni sotish tavakkalchiligi yuqori bo'lgan muhit hisoblanadi. Bunday sharoitda firmani boshqarish to'fonli dengizda kemani boshqarish kabi murakkab va qiyin. Kema qanchalik mustahkam bo'lmasin, uni tabiat stixiyasi ixtiyoriga topshirish halokatlidir. Mohir kapitangina kemani bus-butun sohilga yetkaza oladi. Xuddi shunday, har qanday yirik, foyda ko'rib ishlayotgan firmani ham boshqarishga ehtiyoj seziladi.

Boshqaruvning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyatning pirovard natijasi hisoblangan foydani ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun boshqaruvchilar ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri

tashkil etish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, xomashyo va materiallardan chiqitsiz, tejamli foydalanish, tajriba va malakali ishchi va xodimlarni ishga jalb etish, ularning ishga ijodiy, vijdonan yondashishlariga shart-sharoit yaratish kabilarga ahamiyat beradilar.

16.2. Zamonaviy iqtisodchining o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni

Zamonaviy iqtisodchining sifat xislatlarini belgilovchi mezonlar juda ko'p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega:

Dovyuraklik – bunday tadbirkor rahbarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo'ladi. Ular omadsizlikdan qo'rqmaydi. Qo'rquv ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi.

Sabrlilik – bunday tadbirkor rahbar muvaffaqiyatga birdaniga erishishi mumkin. Unga faqat bardosh va sabr-toqatli bo'lib, sabot-matonat bilan qiyinchiliklarni yengish orqali erishish mumkinligini bildiradi.

Yaxshi niyatlilik – bunday rahbar xayrixoh va iltifotli hamda kishilarga nisbatan doimo ezgu niyatda bo'ladi. O'zidagi qanoatsizlikni g'irrom raqobatchilik yo'li bilan emas, balki xayrixohlik yo'li bilan bartaraf qilishga harakat qiladi.

Kamtarinlik – bunday tadbirkor kamtarlikning deyarli har doim iste'dodga to'g'ri proporsional ekanligini, kamtarlikning yetishmasligi esa nodonlikning darakchisi ekanligini yaxshi tushunadi.

Samimiy xushmuomalalik – bunday tadbirkor sofdil, ochiq ko'ngil bo'ladi, chin yurakdan gapiradi. Qo'l ostidagilarga sadoqat bilan ixlos qo'yib xizmat qiladi. Ular samimiylikning og'ir va juda nozik masala, ma'naviy odobni talab etishini, shuningdek, kimki o'zgalar bilan nosamimiy munosabatda bo'lishga odatlangan ekan, u pirovard natijada o'ziga ham samimiy bo'lolmay qolishni yaxshi tushunadi.

Shunday qilib, zamonaviy iqtisodchi o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuqoridagi fazilatlarga ega bo'lsa, uning ishi doimo samarali bo'ladi va jamoada katta obro'-e'tibor qozonadi.

16.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy boshqaruv va uning tamoyillari

Iqtisodiy boshqaruvchilar avvalo, tavakkalchilik darajasini, bank-rotlik ehtimolini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rishlari lozim.

Shundan kelib chiqib, firma menejmenti oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

– ishlab chiqarishni yuqori texnologiya va malakali xodimlar bilan ta'minlash;

– qulay mehnat sharoitlari yaratish va yuqori maosh belgilash orqali xodimlarni samarali ishlashga rag'batlantirish;

– firma faoliyatini doimiy nazorat qilish;

– firma bo'limlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

– yangi bozorlarni qidirib topish va o'zlashtirish;

– xomashyo va materiallarning doimiy ta'minotiga erishish;

– firma faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

– xo'jalik faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarni aniqlash va ularni yechishning aniq yo'lini ishlab chiqish.

Firma yoki korxonaning boshqaruv strategiyasi deganda, maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni bajarishning asosiy yo'llarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun tanlab olingan umumiy boshqaruv qoidalari hamda usullar tushuniladi. Umuman olganda, boshqaruv strategiyasi «qanday qilib va qaysi usullar bilan» degan savolga javob beradi.

16.4. Boshqarish tamoyillari va uslubi

Agar samarali boshqaruv bo'lmasa, rejalashtirish, tashkil qilish, o'qitish, tarbiyalash, mohiyatlash va nazorat qilish vazifasini samarali bajarish mumkin emas.

OTMni boshqarish samarali bo'lishi uchun o'quv-tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarning – talabalar, professor-o'qituvchilar tarkibi, o'quv-yordamchi soha va ma'muriyat xodimlari va boshqalarning manfaatlari bunday rang-barangligi, tabiiyki, ularni boshqarishning tegishli tamoyillarini tanlashni talab qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni boshqarishning sakkizta asosiy tamoyilidan foydalaniladi. Shulardan 1-4 tamoyillar topshiriqni bajarishga – buyurtmachilar (mehnat bozori, fan, xizmat ko'rsatish sohasi va h.k.) ning talablariga muvofiq malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchilar tarkibi, ma'muriyat xodimlari va boshqalarga qaratilgan.

1. Ijodiy yondashish tamoyili, odatda, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo'llaniladi.

[redacted] faoliyati muntazam rejalashtirish tamoyili ham ta'lim muassasalari turli bo'linmalarda, ham o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda keng qo'llanadi.

3. Rahbariyat uslubining moslashuvchanlik tamoyilidan tez-tez o'zgarib turadigan vaziyatda ishlovchi ko'pchilik rahbarlar foydalanadi.

4. Bir-birini tushunish va hamfikrlilik boshqaruv g'oyasini belgilaydi.

5. Guruh (jamoa) hamkorlik tamoyilidan, odatda kafedra, laboratoriya, fakultet, OTM ilmiy va boshqa bo'linmalarni boshqarishda foydalaniladi.

6. Buyurtmachini nazarda tutish tamoyilidan o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda, ayniqsa, buyurtmachining talabiga muvofiq mutaxassislarni ixtisoslashtirishda foydalaniladi.

7. Ijobiy fikrlash va qulay muhit tamoyilidan hamisha boshqaruvning boshqa tamoyillarini ham qo'shgan holda foydalaniladi.

8. Vakolatni berish tamoyilidan, odatda, OTM bo'linmalarida ular xodimlari kasbiy mukammallashuviga ko'maklashish maqsadida foydalaniladi.

Boshqaruv tamoyillari samarador majmuini tanlash – muvaffaqiyatga erishish garovi, xolos. Boshqaruv muvaffaqiyatining muhim omili rahbarlik uslubi hisoblanadi. Odamlar bilan ishlay bilishlik rahbarning asosiy kasbiy da'vati hisoblanadi.

Rahbar uslubi rahbarning quyidagilarga qanchalik moyilligiga bog'liq:

– boshqa rahbarlar bilan hokimiyatni bo'lisha olishligiga;

– o'ziga bo'ysunuvchilar tadbirkorligiga va tashabbuskorligidan foydalana olishiga;

– qo'l ostidagilarga harakat rejasini ishlab chiqarish va amalga oshirishlikni ishonib topshirishiga.

Demak, boshqaruvning biror uslubini mutlaqlashtirish maqsadga muvofiq emas. Muhimi – muayyan vaziyatlarga muvofiq boshqaruv faoliyatida ularni qo'shib olib bora bilishdadir.

Qisqa xulosa

Ushbu bobda boshqaruv nazariyasi va boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi, zamonaviy iqtisodchining o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni, iqtisodiy boshqaruv tamoyillari, boshqaruv va uning nazariy

asoslari kabilar xususida fikrlar bidirilgan va talabalarga ishonarli tarzda berilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Boshqaruv nazariyasi va boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi xususida fikr bildiring.
2. Zamonaviy iqtisodchining o'z-o'zini tarbiyalashi jarayoniga nimalar kiradi?
3. Iqtisodiy boshqaruv va uning tamoyillarini ko'rsating.
4. Boshqaruv va uning nazariy asoslarini ta'riflang.
5. Mehnat sharoitlari qanday bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi?
6. Firma faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlang.
7. Boshqaruv strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. Boshqaruvning qanday tizimini bilasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. L.V. Peregudov, M.X. Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: «Moliya», 2002.

2. D.Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – T.: «Moliya», 2003.

3. E.Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbir-korlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

4. E.Egamberdiyev, H.Xo'jamqulov Kichik biznes va tad-birkorlik. – T.: Ma'naviyat, 2003.

XVII bob. ZAMONAVIY IQTISODCHINING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATI

17.1. Zamonaviy iqtisodchining sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabati.

17.2.Tadbirkorning ishchilar bilan jamoadagi o'zaro munosabati.

17.3. Zamonaviy iqtisodchining xizmat yuzasidan mijozlar bilan munosabati.

17.4. Mijozlarni qabul qilishda zamonaviy iqtisodchining madaniyati.

17.1. Zamonaviy iqtisodchining sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabati

Biznesdagi muvaffaqiyat ma'lum darajada tadbirkorning sheriklari bilan aloqasi qanchalik to'g'ri tuzilganligiga bog'liq.

Sherik deb, biror bir birgalikdagi faoliyatning ishtirokchisiga aytiladi. Bir yoki bir necha tadbirkorlik loyihalarini hamkorlikda amalga oshirayotgan korxona va tashkilotlar ham sherik bo'lishlari mumkin.

Tadbirkorning sheriklari bilan aloqalarini mustahkamlashda quyidagilar katta ahamiyatga ega:

– umumiy g'oyaga qiziqqan va ularni amalga oshirishga tayyor bo'lgan sheriklar bilan aloqa o'rnatish. Sheriklarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari uchun emas, balki birgalikda unumli ishlash uchun tanlash kerak.

– boshliq bilan tuzilgan kelishuv shartlariga qattiq rioya qilinishi kerak. Bunda qaysi sherikning faoliyatga qo'shadian hissasi (puli, xom-ashyo, jihoz, mehnat sarfi) albatta aks ettirilishi kerak;

– agar sherik firmaning mehnat jamoasiga qo'shilmoqchi bo'lsa, u holda uning majburiyatlarini bajarish muddati, ishga kirish vaqti va ish kunining davomiyligi belgilab berilishi kerak;

– ishdan o'z xohishi bilan yoki turli xildagi nojo'yaliklar oqibatida bo'shagandan so'ng o'z ulushini olish va hokazolar ta'minlanadi.

Firma yoki tadbirkor tomonidan tovar yetkazib beruvchilarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Ular munosabatining tavsifi buyurtmachi firmasining tijorat muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Kichik biznesdagi

tadbirkor tuzilmalar quyidagilarni hisobga olgan holda o'zlarining munosabatlarini o'rnatishlari kerak:

1. Xomashyodagi sarfni, ularning sifati va yetkazib berish muddatiga zarar yetkazmasdan kamaytirish;

2. Buyurtmachi korxonalar tomonidan bir necha tovar yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni yo'lga solish maqsadga muvofiqligi;

3. Turli yo'nalishlarda, boshqaruvning turli pog'onalarida ko'p miqdorda aloqa o'rnatish;

4. Umumiy ishlab chiqarish muammolarini birgalikda yechishga, yangi mahsulot texnologiyalarini ishlab chiqishga subpudratchilarni jalb etish.

17.2.Tadbirkorning ishchilar bilan jamoadagi o'zaro munosabati

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'kidlangangidek: «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy etishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodini shakllantirishni ta'minlaydi».

Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlar sifatida quyidagi komponentlar kirtilganligidadir:

– shaxs–kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;

– uzluksiz ta'lim–kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

– fan–yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;

– ishlab chiqarish–kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

– davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, jamiyat hayotiga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart- sharoitlarni yaratishni, oila, jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Biznes faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun bir qator yo'l-yo'riqlarga, tajribalarga, dasturlarga amal qilish talab etiladi. To'g'ri tanlangan yo'l, aniq belgilangan maqsad va maqsadni amalga oshirish usullari muhim hisoblanadi. Tadbirkorning ish faoliyatida muhim hisoblangan menejment va marketing dasturlarini yaxshi biladigan, ulardan ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatida to'g'ri foydalana olgan shaxsgina iqtisodiy faoliyatga erishadi. Kadrlar tayyorlash jarayonida shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashning ustuvorlik tamoyiliga to'la amal qilmaslik ta'lim sohasida muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim mazmuni va uni tashkil etish asosan talabalarga nazariy bilimlarni berishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qisman gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar doirasidagina e'tibor qaratilmoqda.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati juda ko'plab omillar, bir qator vaziyatlar kadrlarning o'zaro munosabati, shuningdek, muloqotlarini tashkil etish chog'ida amal qilinuvchi qoidalarga ham bog'liq bo'ladi.

Muloqotlar – zamonaviy iqtisodchilar mehnatining ajralmas qismi asosidir. U mutaxassisdan kasbiy faoliyat asoslarini bilishni, faoliyatni hamda o'zining ruhiy holatini boshqara olishni, muloqotlarni tashkil etish mahoratiga ega bo'lishni taqozo etadi.

17.3. Zamonaviy iqtisodchining xizmat yuzasidan mijozlar bilan munosabati

Biznes yutug'i nafaqat firma ishini iqtisodiy ko'rsatkichlariga, balki sezilarli darajada tadbirkorning o'z xizmatchilari bilan munosabati naqadar to'g'ri qurilganiga bog'liq. Yuqori natijaga erishayotgan ishbilarmonlar o'z ishida inson omiliga katta e'tibor beradilar, ya'ni o'z xizmatchilari bilan munosabatlarini o'zaro hurmat, tartib, haqgo'ylik, odillik asosida quradilar. Tadbirkor va ishchilarning munosabatlari asosiy ish bitimida belgilanadi.

Qisman ularda quyidagilar izohlanadi:

– ishchi majburiyatlari;
– ish haqini to'lanishi va muddati;
– ish kunining davomiyligi;
– malaka oshirish, ish haqini oshirish sharti va boshqa masalalar;
– mehnat ta'tilining davomiyligi va sharti;
– ishga olinayotgan har bir kishiga uch oydan olti oygacha sinov muddati belgilash ma'qul. Shu davr ichida yangi ishchining aynan biror ishni mutaxassislik darajasiga va malakasiga, lavozim talablarini hisobga olgan holda o'rganish mumkin.

Insonning jamoa bilan birga kirishib ketish, intizomiylik va uning kasb sifatiga bevosita bog'liq bo'lmagan sifatlari kuzatish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Tekshirish davomida kuzatilayotgan ishchilarning zarur bilim va amaliy mahorati aniqlanadi. Tadbirkor boshliqlar, mutaxassislar va xizmatchilarning majburiyatlari hajmi haqida qo'shimcha ko'rsatma va nizomlarda ko'rsatib qisqartirish yoki ko'paytirish mumkin.

17.4. Mijozlarni qabul qilishda zamonaviy iqtisodchining madaniyati

Tadbirkorlik va kichik biznesda mijozlar bilan munosabatga muhim ahamiyat berish kerak. U mijozlarni qabul qilish madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, mijozlarni qabul qilish, ularning tashvishlariga quloq solish, og'irlarini yengil qilish, har bir rahbarning burchi va vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham qabul madaniyatiga rioya qilish uchun rahbar quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:
– mijozingizni qancha vaqtingiz borligi to'g'risida ogohlantiring;
– to'xtatib bo'lmaydigan, uzil-kesil munozaradan o'zingizni tiying;
– o'z fikringizni va g'oyangizni ishonchli va izchillik bilan bayon eting;
– qarshi tanbeh hollarda o'zingizga nisbatan tanqidiy yondashing;
– shunchaki fikrlash yoki haqiqatan ham shunaqami – bular o'rtasidagi farqni biling;
– muammo muhokamasini aniq yechim bilan tugating, ishni qalashtirmang;
– mijozingizning yumushi o'zi uchun o'ta muhim ekanligini unutmang.

Mijoz kim bo'lishidan qat'i nazar: tashkilotmi, korxonami, firmami yoki yakka shaxsmi – avvalo tadbirkor oldida o'z muammolari bilan murojaat qilayotgan inson ekanligini esda tutishi lozimdir.

Tadbirkorning vazifasi – mijozni o'z qo'liga olib ushlab qolmoq. Har bir tadbirkor shu maqsadda o'z ishini mijozga bag'ishlamog'i kerak. Shuning uchun har bir xodimning xushmuomala, e'tiborli, ishonchli va tartibli, halol bo'lishi uchun tarbiyalash kerak.

Qisqa xulosa

Ushbu bobda zamonaviy iqtisodchining sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabati, tadbirkorning ishchilar bilan jamoadagi o'zaro munosabati, zamonaviy iqtisodchining xizmat yuzasidan mijozlar bilan munosabati, mijozlarni qabul qilishda zamonaviy iqtisodchining madaniyati xususida atroflicha fikr yuritilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Zamonaviy iqtisodchining sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabati qanday bo'ladi?
2. Tadbirkorning xodimlar bilan jamoadagi o'zaro munosabatini izohlab bering.
3. Zamonaviy iqtisodchining xizmat yuzasidan mijozlar bilan munosabatini ko'rsatib bering.
4. Mijozlarni qabul qilishda zamonaviy iqtisodchining madaniyati qanday bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi?
5. Tadbirkorlik faoliyatida qanday kasb egalari bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
6. Tadbirkorlik omillariga nimalar kiradi?
7. Tadbirkorlik muhitini yaratishda raqobat qanday rol o'ynaydi?
8. Zamonaviy iqtisodchiga xos fazilatlarni ko'rsatib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S.G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.
2. Yo. Abdullayev, F. Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000.
3. E.Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.
4. E. Egamberdiyev, H. Xo'jamqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: Ma'naviyat, 2003.

XVIII bob. ZAMONAVIY IQTISODCHIDA MILLIY ONGNI TARBIYALASH

18.1. G'oya – inson tafakkurining mahsuli.

18.2. O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi.

18.3. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy iqtisodchida milliy ongni tarbiyalash.

18.4. Zamonaviy iqtisodchiga xos ijtimoiy sifatlar (aql, odob, ilm, iste'dod, mehnatsevarlik, bilimlilik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy g'urur, milliy ong, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy barkamollik, yetuklik).

18.1. G'oya – inson tafakkurining mahsuli

Boy ma'naviy qadriyatlarimizga munosabatni belgilashda Prezidentimiz I.A.Karimov maqsad faqat ilmiy madaniy merosni o'rganish emas, balki betakror xazinamizning ilmiy, amaliy tamoyillarini yangi davrga xizmat qiluvchi qirralari, xizmatlarini ochish, ularni hayotga tatbiq qilishdan iborat ekanligini mustaqilligimizni ilk kunlaridanoq belgilab bergan edilar.

I.A.Karimov milliy g'oya, milliy mafkura har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishi bilan birga har bir fuqaroning, davlatning, millatning istiqbolidan ham kelib chiqishini «Fidokor» gazetasining muxbiri bilan (2000, iyun) «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» nomli muloqotlarida bayon qilgan edilar.

G'oya – o'tmish saboqlariga tayanib, hozirgi kun ehtiyojlari va imkoniyatlarini chuqur bilish, tahlil etish asosida istiqbolni chuqurroq, aniqroq anglashga imkon beradigan, jamiyat taraqqiyotining asosiy, muhim yo'nalishlarini ifodalaydigan, odamlar faoliyatini muayyan, mo'tadil maqsadlar va manfaatlar asosida birlashtiradigan, ilmiy asoslangan, amaliy ehtiyojlar bilan taqozo etilgan umumiy fikrlar, qarashlar, xulosalar, maqsadlar tizimidir. G'oya hal etilmagan, etilishi lozim bo'lgan muhim muammolar, vazifalar tizimini o'z ichiga oladi va asosan istiqbolga yo'naltirilgan bo'ladi.

I.A.Karimov g'oyani «odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni paytda shu

xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida ko‘proq bo‘lishga qodir bo‘lgan» ma’naviy kuch deb ta’riflaydi.

18.2. O‘zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi

Odam tug‘ilishi bilan o‘zida insoniy xislatlarni shakllantira boshlaydi. Bu xislatlar shaxsiy xarakter, mijoz, hissiyot, diqqat, idrok va xotira ta’siridan o‘tib, shaxsiy xislat tusini ola boshlaydi. Inson sekin-asta shaxs degan maqomga ega bo‘ladi Shaxslar egallagan bilimlari hajmi va odamlar taqdirini o‘zgartira olish doirasiga qarab oddiy, kuchli va buyuk shaxslar toifasiga bo‘linadilar.

Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo‘lib, kishining irsiy birliklaridagi dasturi (taqdiri azal), shaxsiy shijoati va tashqi ijtimoiy, shu jumladan, maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya muhitlarining ta’siri ostida kechadi.

Tarixiy taraqqiyot – odamlarning muayyan tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarga tayanib, ular bilan bog‘liq maqsad va manfaatlarni anglab, bir-biri bilan turli shakl va darajalardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy munosabatlar tizimi asosida bog‘lanib faoliyat ko‘rsatishidir. Bu faoliyat o‘z-o‘zidan, stixiyali, qandaydir g‘ayritabiiy kuchlar tomonidan amalga oshirilmaydi. Ma’naviyatli ijodiy o‘ylash, fikrlash salohiyatiga ega bo‘lgan inson o‘z faoliyatini tarix saboqlari, o‘tgan avlodlarning tajribasiga tayanib, ularni muayyan davr, sharoitlarga moslab rejalashtiradi, shu asosda istiqbolga intiladi.

Insoniyat tarixi turli g‘oyalar, ular asosida shakllangan mafkuralarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va kurashi tarixidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko‘rsatib o‘tganidek, «O‘zining hayotini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan millat hech bir davrda milliy g‘oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo‘lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson yo‘lini yo‘qotishi muqarrar».

Mafkura insonga o‘z mohiyatini, shaxsiy va umumiy manfaatlar nisbatini, muayyan millatga ijtimoiy-siyosiy guruhlarga mansubligini anglashiga, shu asosda o‘z hayotiy mo‘ljallarini, faoliyatining mohiyati va maqsadlarini belgilashiga imkon beradi. Mafkura va g‘oya insonlarga shaxsiy, ijtimoiy, milliy o‘zlikni anglashga imkon beradigan ma’naviy omillardir.

18.3. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy iqtisodchida milliy ongni tarbiyalash

Inson tarixi - g'oyalar tarixi. G'oya – inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Milliy ong bir millatga mansub bo'lgan kishilar o'z vatanining, xalqining tarixi, ajdodlari qoldirgan meros va amaliy tajribani umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda chuqur o'rganishi va o'zlashtirishi, millat qadr-qimmati, obro'-e'tiborini baland ko'tarishi, mamlakat imkoniyatlari, milliy manfaatlarini chuqur anglagan holda istiqlol va istiqbol yo'lida fidokorona xizmat qilish, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo'lish, ularning moddiy va ma'naviy manfaatlarini hurmat qilish asosida shakllanadi. Milliy har bir etnik guruh, uning vakillari o'zini ijtimoiy-tarixiy jarayonning, jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi, muayyan manfaatlar, meros va qadriyatlarning sohibi sifatida anglashdir.

Milliy ong o'sishi milliy ma'naviyat rivojlanishi darajasi, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Yetuk milliy ong barkamol milliy ma'naviyatning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham milliy ong milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy o'z-o'zini anglash, o'z navbatida, ma'naviy kamolat yangi imkoniyatlar, ufqlar ochadi. I.Karimov ko'rsatib o'tgandek «haqqoniy tarixni bilmasdan turib... o'zlikni anglash mumkin emas».

Shundan ko'rinadiki, milliy ong oddiy his, tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy, huquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir.

Mustaqillik sharoitida yoshlarni tarbiyalashda milliy ongning quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor berish zarur.

Milliy ong – milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishi va rivojlanishining asosi.

Milliy ong – milliy mas'uliyat hamdir.

Milliy mas'uliyat har bir fuqaro o'z manfaatlarini millat, milliy davlat manfaatlari bilan bog'lay olishidir. Bozor munosabatlariga o'tish,

ishbilarmonlik, tadbirkorlikka keng yo'l ochilishi milliy va fuqarolik mas'uliyati masalasini tushunishga ham yangi jihatlar kiritdi. Milliy mas'uliyatning muhim jihati milliy manfaatlarni anglashda ko'rinadi. Shaxs va uning manfaatlarini siyosiy aqidalar soyasida qoldirib ketgan, mavhum ijtimoiy manfaatlarning to'liq hukmronligini ta'minlashga moslashtirilgan siyosat va mafkura barham topdi.

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

18.4. Zamonaviy iqtisodchiga xos ijtimoiy sifatlar (aql, odob, mehnatsevarlik, bilimlilik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy g'urur, milliy ong, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy barkamollik, yetuklik)

Ma'naviyatning yana bir muhim jihati bilim, ilm, malaka, iste'dod va qobiliyat bo'lib, ular ham muayyan axloqiy kamolot zaminida shakllanadi.

Zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunarni egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yosh mutaxassislarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar. O'zbek milliy pedagogikasidagi ta'lim-tarbiya ishlari tizimida ham axloq, odob tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'rifatparvar alloma Avloniy inson ma'naviy kamolotining yo'llari haqida to'xtab, shunday deb yozadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur,

zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur».[1]

Bilimga, ilmga ehtiyoj ham obyektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyatdir, ya'ni anglangan maqsadlar tizimidir.

Inson faoliyati turli darajadagi aniq bilimlar, ilmiy nazariyalar, xulosalar asosida amalga oshadi. Bilim, ilm, tajribaga asoslangan faoliyat biror aniq sohalar bo'yicha yo'nalib, ularni chuqurroq egallash, ijodiy mehnat qila bilish bilan bog'liq bo'lgan malaka, hunar, kasbga aylanadi.

Imon, vijdon, e'tiqod, ixlos insonning faoliyatiga, maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, ularga baho bera olishga imkoniyat yaratadigan ma'naviy zaminlardir. Bu ma'naviy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lsa ham, imon ularning o'zagi, poydevoridir.

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga hissa qo'shayotgan zamonaviy iqtisodchilarning imoni mustaqillik ishiga fidoyilik, millatparvarlik, baynalmilalchilik, mamlakatimizning porloq kelajagiga ishonch, sadoqat, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularini o'zida tarbiyalash, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik va tadbirkorlik singari yangi axloqiy-amaliy qadriyatlarni bilishdan ham iborat.

Qisqa xulosa

Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo'lib, kishining irsiy birliklaridagi dasturi (taqdiri azal), shaxsiy shijoati va tashqi ijtimoiy, shu jumladan, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muhitlarining ta'siri ostida kechadi.

Yuqoridagi mulohazadan kelib chiqqan holda ushbu bobda milliy istiqlol g'oyasi, zamonaviy iqtisodchida milliy ongni tarbiyalash, iqtisodchiga xos axloqiy xususiyatlar, iqtisodchiga xos milliy g'urur, milliy ong, ma'naviy barkamollik, yetuklik kabi ijtimoiy sifatlarni tarbiyalash bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Respublikamizda ma'naviyat-ma'rifat bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

[1] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: 1992.

2. Tarbiya mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?

3.Oliy maktabda ta'lim-tarbiya ishlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?

4. Talabalarda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?

5. Tarbiyaviy ishlar mexanizmini ta'riflab bering.

6. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi qanday tartibda amalga oshiriladi?

7. Talabalarning aqliy faoliyati xususiyatlari qanday izohlanadi?

8. Madaniyat, ma'naviyat, axloq, odobga ta'rif bering.

9. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi haqida so'zlab bering.

10. Sharq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan misollar keltiring.

11. O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi.

12.Zamonaviy iqtisodchida milliy-ongni tarbiyalash.

13. Zamonaviy iqtisodchiga xos ijtimoiy sifatlarga nimalar kiradi?

14. Ma'naviyatlilik belgilarini sanab bering.

15. Imon, vijdon, e'tiqod va ixlosning inson ma'naviyatidagi o'rnini ko'rsating.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.

2. I.A.Karimov Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995.

3. I.A.Karimov Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston», 1997.

4. S. Nishonova Komil insonni tarbiyasi: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun qo'llanma. –T.: Istiqlol. 2003.

5. Бордавская Н.В., Реан А.А. Педагогика. –М.: Питер, 2004.

6. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996.

7. www. bilimdon. uz. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy veb sayti.

XIX *bob.* IQTISODIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH VA ULARGA RAHBARLIK QILISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI

19.1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruv kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.

19.2. Iqtisodiyotda boshqarish tamoyillari.

19.3. Boshqarishning vazifasi va rejalashtirish jarayoni.

19.4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish.

19.5. Zamonaviy iqtisodchi boshqaruvi va rahbarligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

19.1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruv kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

«Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi – degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi».

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta'lim xizmatlari bozorining strategik maqsadi sifatida, bozor munosabatlarining vujudga kelishi sharoitida samarali ishlashga qodir bo'lgan iqtisodchilar faoliyatining barcha darajalari va sohalari uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash va bu bilan O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining butun jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatish masalasi belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda mavjud Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash har yili 38-40 ming kishi atrofida o'zgarib turadi.

1995–2010-yillarda mutaxassislar tayyorlashning yillik o'sishi kuzatildi, 2010-yilda bu ko'rsatkich 91690 kishini tashkil qildi. Bugungi kunda oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan qo'shimcha

talab asta-sekin o'sib borayapti va 2005-yilda 70 ming kishini, 2010-yilga kelib esa 65-75 ming kishini tashkil qildi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitini ko'zda tutib, mutaxassislarni tayyorlash sohasidagi tarkibiy siljishlar saqlanib qolinadi. Bu «Iqtisodiyot va boshqaruv» ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda 1992-yilda 53 ta davlat oliy ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ularning ulushi oliy ta'lim muassasalari umumiy sonning 100%ni tashkil etardi. Davlat oliy ta'lim muassasalari sonining o'sishi quyidagi tarzda yuzaga keldi: 1985–1990-yillar mobaynida ularning soni oliy ta'lim muassasalarining 100% darajasida barqarorlashdi; keyingi yillarda ularning o'sish sur'ati bir yilda taxminan 3-4 tani tashkil qildi; 1990–1996-yillarda esa ularning soni 58 taga yoki 23,4%ga oshdi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida 1997-yilda 158,2 ming talaba ta'lim oldi, bu 1995-yil bilan solishtirganda 68,8% tashkil qildi. 2000-yilga kelib talabalarning soni 172,4 ming kishi, 2002-yilda esa 198 ming kishiga yetdi (yillik o'sish sur'ati 2-3%). Faqatgina 1995–2010-yillarda talabalar sonining o'sishi qayd etildi; har yili o'sish sur'ati 1,5% ni tashkil qildi.

Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy hududlar bo'yicha taqsimlanishi bir xil emas: masalan, ularning 31%i yoki 30 ta oliy ta'lim muassasasi Toshkent shahri va poytaxt viloyatida joylashgan, shulardan Toshkent shahrida 30 ta oliy ta'lim muassasasi yoki 40%; Farg'ona vodiysida 11 ta yoki 17,8%; qolgan hududlarning ulushi 34,2% darajasida bo'lib, Samarqand shahrida 6 ta oliy ta'lim muassasasi joylashgan, bu O'zbekistonda davlat oliy ta'lim muassasalari umumiy sonining 9% ga teng.

Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalari soni oliy ta'lim muassasalarining ulushiga taxminan mos keladi, masalan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining oliy ta'lim muassasalari barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari sonining 47,2% ni qamrab oladi, bu yerdagi oliy ta'lim muassasalarining ulushi esa qariyib 48% ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi shu bilan «qurshab» olingani, ularda o'qitish ko'pchilik sobiq sovet davlatlarining tajribasiga ko'ra biznesga aylanadi. Shu bilan birga, qayd etish lozimki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan ayrim mamlakatlar xususiy oliy ta'lim muassasalariga ega emas, masalan, Germaniyada ularning soni bor yo'g'i bitta, AQSH va Yaponiyada xususiy universitetlar asta-sekin tashkil etildi. AQSHda 1985-yilda 1493 ta davlatga qarashli va

1808 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, shulardan faqatgina 211 tasi foyda olishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Ba'zi mamlakatlarda talabalarga kredit berish tizimi rivojlanmoqda. Talabalar uchun moliyalash vaziyatining keskinlashuvi oxir oqibatda, ular o'z ta'lim olishlari uchun sarflarning bir qismini o'z ish haqlari hisobidan qoplashga intilmoqdalar [1] (2-jadvalga qarang).

Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiya universitetlarida ta'lim daromadlari manbaining tuzilishi (% da)

2-jadval

№	Manba	Buyuk Britaniya	AQSH	Fransiya
1.	Davlat xarajatlari jami:	85,5	51,1	99,0
	shu jumladan:			
	markazlashtirilgan lavozim xarajatlari	84,0	16,5	96,2
		-	30,6	-
	mahalliy	1,5	4,0	2,8
2.	Xususiy kompaniyalar va xayriya tashkilotlarning xarajatlari	2,5	6,9	-
3.	O'quvchilar va ular oilasining xarajatlari	8,0	20,3	1,0
4.	OTMlarning o'z xarajati	-	11,4	-
5.	Boshqa manbalar	4,0	10,4	-

Bu esa o'z navbatida ta'lim muddati oshishiga va ta'limning ancha moslashuvchan modeliga talabni o'sishiga ta'sir etmoqda. Biroq talabalardan olinadigan haq ta'lim xarajatlarining, hatto AQSHda, davlat oliy ta'lim muassasalarida, 20%ni qoplamoqda (xususiylarda – 33%). Xarajatlarning qolgan qismi boshqa davlat va xususiy manbalardan qoplanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda oliy ta'lim muassasasini davlat moliyalashdagi budjet taqchilligi yildan-yilga saqlanib kelmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalariga moliyalashning qo'shimcha manbalarini izlab topish huquqi berilmoqda va bunda ularga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda.

[1] Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti – T.: «Moliya», 2002. 144-bet.

Ta'lim sohasida davlat va nodavlat tuzilmalarining mavjud bo'lishi raqobat muhitining rivojlanishiga ko'maklashadi. Bu ta'lim xizmatlari bozoridagi taklifning o'ziga xos xususiyatlari bilan shartlanadi. Taklif, birinchi navbatda, davlat tomonidan chiqadi. Chunki u davlat muassasalari tizimi orqali umuman jamiyat miqyosida ta'lim vazifalarini qo'yish va hal qilish ijtimoiy adolat saqlanishining kafili sifatida ishtirok etish, ijtimoiy adolat daromadlaridan qat'i nazar aholining barcha qatlamlari uchun teng.

Davlatning kadrlar tayyorlash tizimidagi umumiy funksiyalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: kadrlar tayyorlash va ularga bo'lgan talabning kafolatini ta'minlash, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishdan iborat. Oliy ta'lim sohasida esa davlatning funksiyalari quyidagilardan iborat: birinchidan, o'quv rejalarini standartlashtirish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni sertifikatlash, oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyalash va akkreditatsiyalash orqali ular faoliyatining sifatini nazorat qilish yo'li bilan tegishli davlat organlari orqali ta'lim xizmatlarining sifatiga va tarkibiga baho berishdan iborat.

Biz berayotgan tahlil aniq bo'lishi uchun, ma'lumotlar yagona ekvivalent – AQSH dollariga keltirildi. Natijada, har bir talabaga davlat (respublikamiz miqyosida) xarajatlari dollar hisobida 1994–1995- yillarda 20 dollarni, 1997-yilda, taxminan 42 dollarni, 2001-yilda esa 284,5 ming so'mni tashkil qildi. Mutaxassislar tayyorlashning eng yuqori o'rtacha yillik qiymati 481 ming so'm darajasida tibbiy va alohida texnik-iqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilindi, bu ko'rsatgich san'at oliy ta'lim muassasalarida va boshqa universitetlarda 400 ming so'm darajasida, iqtisodiy va yuridik oliy o'quv yurtlarida esa 510 ming so'mgacha darajasida bo'ldi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida (xususan, budjet va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida) to'lovlardagi eng kam nisbat kamida 60% darajasida bo'lishi kerak. Ushbu nisbatning pasayishi budjet sohasida ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Respublikamiz iqtisodiyotida bu nisbat 80-85 % ni tashkil qiladi.

Soddalashtirilgan ko'rinishda budjetdan moliyalash me'yoriy (Nf) bir talabaga hisoblanganda turli iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan uchta asosiy elementni tashkil etuvchilar ko'rinishida berilgan. Nf-T-A-R Bu yerda: T–joriy xarajatlar (ish haqi, stipendiyalar va xo'jalik xarajatlari, budjetning boshqa himoyalangan bandlari); A–asosiy vositalarni

to'liq qayta tiklash (amortizatsiya) va kapital ta'mirlash xarajatlari; R–moddiy-texnik bazani rivojlantirish xarajatlari.

Keyingi o'n yillikda davlat budjeti mablag'lari hisobidan mutaxassislarni tayyorlash xarajatlarining tarkibi quyidagilardan iborat bo'ldi: *Birinchi navbatda*, budjetdan kasb ta'limi muassasalarining eng muhim ehtiyojlari uchun ajratildi, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash xarajatlari tarkibida ish haqining ulushi 2000-yilda 30% darajasini, budjetdan moliyalash me'yorining dastlabki ikki tarkibiy qismi bilan bajariladigan xarajatlar (TQA) mutaxassislar tayyorlashning umumiy joriy xarajatlarini tashkil qildi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, budjetdan moliyalash, iqtisodiy ta'lim muassasalari tomonidan xizmat haqlari to'lanmasligining oshishiga, moddiy-texnik bazaning zaiflashuviga, oliy ta'lim muassasalarini qayta jihozlashning qisqarishiga, zarur o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr qilish, kapital ta'mirlash va qurilish hajmining kamayishiga olib keladi.

19.2. Iqtisodiyotda boshqarish tamoyillari

O'zbekiston Respublikasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz qiyin sharoitda kelajagimiz poydevorini qurib oldik. Bunga o'rnimizga keladigan yosh avlod qanday baho beradi, loyihalarimiz, ishlarimizni taroziga solib ko'rib nima deydi? Har birimiz mana shu savolni dilga tugib mehnat qilishimiz lozim. Mening ishonchim komilki, O'zbekiston xalqi farovon turmush kechiradigan buyuk davlat bo'ladi».[1]

Ma'lumki, qaysi davlatda kadrlar tayyorlash siyosati to'g'ri va omilkorlik bilan tashkil etilsa, o'sha davlatda har doim taraqqiyot bo'ladi.

Ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Shu ma'noda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab, Prezidentimizning «Kelajak bugundan boshlanadi», «Hozir tarbiya masalasiga e'tibor

[1] Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: «O'zbekiston», 2000.

qilinmasa, kelajak boy beriladi», «Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz»[1] degan da'vatlari ostida ta'limni isloh qilishga kirishildi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligini yanada yuksaltirish, respublikaning aql-zakovat salohiyatini o'stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari va dasturlari ishlab chiqildi. Ta'lim tizimining moliyaviy va moddiy ta'minoti qonuniy yo'l bilan ijobiy hal etildi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni boshqarishning sakkizta asosiy tamoyilidan foydalaniladi. Shulardan 1-4- tamoyillar topshiriqni bajarishga – buyurtmachilarning talablariga muvofiq malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Keyingi to'rt tamoyil mutaxassislar tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchilar – professor-o'qituvchilar tarkibi, o'quv-yordamchi soha hamda ma'muriyat xodimlari va boshqalarga qaratilgan.

Ijodiy yondashish tamoyili, odatda, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo'llaniladi. Uni qo'llash zaruriyati quyidagi shartlarni talab qiladi.

Birinchidan, o'quv faoliyati turining xilma-xilligi: ma'ruzalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar seminarlar, mustaqil o'rganish, malakaviy amaliyot, kurs loyihalari va boshqalar.

Ikkinchidan, maqsad va vazifasi, tuzilishi va mazmuniga ko'ra o'qitiladigan fanlar va kurslarning turli-tumanligi.

Uchinchidan, o'qitilayotgan shaxslar individualligi.

Faoliyatni rejalashtirish tamoyili ham ta'lim muassasalari turli bo'linmalarda, ham o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda keng qo'llanadi. Bu faoliyat samarador rejasini ishlab chiqarish, ularni bajarishni tashkil etish, olingan natijalarni baholashni ko'zda tutadi.

*Rahbariyat uslubining moslashuvchanlik tamoyili*dan tez-tez o'zgarib turadigan vaziyatda ishlovchi ko'pchilik rahbarlar foydalanadi. Bunday vaziyat, ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayoniga xos.

Bir-birini tushunish va hamfikrlik boshqaruv g'oyasini belgilaydi. Bu tamoyildan ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda foydalanish muhimdir.

*Guruh (jamoa) hamkorlik tamoyilida*n odatda, kafedra, laboratoriya, fakultet, OTM ilmiy va boshqa bo'linmalarni boshqarishda foydalaniladi. Bu tamoyil turlicha faol guruhiy usullarni ko'zda tutadi.

[1] I.A. Karimov Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999.

Buyurtmachini nazarda tutish tamoyilidan o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda, ayniqsa, buyurtmachining talabiga muvofiq mutaxassislarni ixtisoslashtirishda foydalaniladi.

Vakolatni berish tamoyilidan, odatda OTM bo'linmalarida ular xodimlari kasbiy mukammallashuviga ko'maklashish maqsadida foydalaniladi. Bu tamoyildan yana «aylanib qolish» usulini amalga oshirishda, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo'llanadi.

Umuman olganda, boshqaruv tamoyillari samarador majmuini tanlash – muvaffaqiyatga erishish garovidir.

19.3.Boshqarishning vazifasi va rejalashtirish jarayoni

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo'lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodi sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi. Boshqarishning asosiy maqsadi – mehnat ahlining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat.

Boshqaruv – taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy jamoa mehnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning o'zaro aloqada bo'lishi, o'z moddiy va ma'naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Mehnat hamma davrlarda ijtimoiy xarakterda bo'lgan. Chunki, jamiyat qonunlari shuni taqozo etadi. Insonlar dunyoga kelib, ongli hayotlarini boshlashi bilanoq birgalikda ishlashga ehtiyoj sezganlar. Bu zarurat turli davrlarda turlicha kechgan. Barcha davrlarga xos yagona xususiyat boshqaruv jarayoni bilan izohlanadi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida jamiyatning alohida qobiliyat va bilimlarga ega bo'lgan kishilar tomonidan boshqarilishiga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Keyinchalik boshqaruvchi kishilar soni ko'paya borib, alohida ijtimoiy guruhga, so'ng tabaqaga aylandilar. Bu ijtimoiy tabaqa kengayib, davlat deb nomlanadigan boshqaruv organi paydo bo'la boshladi.

Boshqaruvning mohiyati obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarini shunday nisbatda uyg'unlashtirishni ta'minlashdan iboratdir, bu mo'ljallangan maqsadga erishish imkonini beradi. Shuning uchun yaxshi rahbar odamlarga kamroq buyruq beradi, buning o'rniga ularning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan samarali sharoit yaratadi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Mamlakatimizda mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta'limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta'limi tizimi bilan uyg'unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, – «Iqtisodiyot, siyosat sohasidagi barcha islohotlarimizning asosiy maqsadi insonga qaratilgan. Mana shuning uchun ham milliy uyg'onish g'oyasini amalga oshirishga yangi avlodni tarbiyalash vazifasi davlat ishi, uning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi».

Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limning bosh maqsadi – raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

Raqobatbardosh mutaxassislarsiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

O'zbekistonda mazkur masalani yechishda Kadrlar tayyorlash milliy modeli asos bo'lib hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ***shaxs*** – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy subyekti va obyekti, ta'lim xizmatini talab etuvchi hamda amalga oshiruvchi;

– ***davlat va jamiyat*** – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish hamda ish olib borishning boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularga talabgorlik kafolati;

– ***uzluksiz ta'lim*** – o'z tarkibiga barcha ta'lim turini, davlat ta'lim standartlarini, faoliyat ko'rsatish tuzilmasi va muhitini olgan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi;

– ***fan*** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va talab etuvchi, ilg'or pedagogik va informatsiyaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi;

– ***ishlab chiqarish*** – kadrlarga bo'lgan talabni, shuningdek, ular tayyorlanganlik sifat va darajasiga talabni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimlarini moliyalash va moddiy-texnik ta'minlash ishtirokchisi.

Shaxslarga, ta'lim xizmati talabgori sifatida, davlat ta'lim standartlari orqali sifatli ta'lim va kasbiy tayyorgarlik kafolatlanadi.

Shaxs – ta'lim xizmati ko'rsatuvchi sifatida, tegishli darajada malaka hosil qilib o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirib, boshqalarga yetkazadi.

Davlat va jamiyat kafolatlaydi:

– fuqarolar ta'limga, kasb tanlash va malaka oshirishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishini;

– akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'qishga yo'llashni tanlash huquqini majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb ta'limi olishni;

– davlat granti yoki haq to'lash-kontrakt asosida oliy va OTMni tugatgandan keyingi ta'lim olish huquqini;

– davlat ta'lim muassasalarini moliyalashni;

– o'qiyotganlarning o'qish, yashash va dam olish sharoitlarini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishni;

– ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy muhofazalash va boshqalarni.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldingi qatorda bo'lish uchun zarur sharoitlar yaratadi. Bular ta'lim-ning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura); oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi ko'pgina tomonlarini belgilovchi muhim unsurlaridan biri Davlat ta'lim standarti (DTS)dir. U ko'p o'lchovli yo'riqnoma bo'lib, yo'nalish (bakalavriat) yoki ixtisoslik (magistratura) umumiy tavsifi, ta'lim-kasbiy dastur tayyorlash, uning tuzilishi va mazmuni, joriy etilishi, kadrlar tayyorlash sifatining nazorati va hokazolarni o'zida aks ettiradi.

Shuningdek, bugungi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida oliy ta'limning aholi bandligiga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, uning taktik va strategik maqsadlarini amalga oshirishga ta'sirining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari haqidagi masalada mumkin qadar aniqlik talab qilinadi.

Jamiyatning o'tish davridagi ahvoli oliy ta'limning bozor munosabatlari tizimiga kirishini o'zida namoyon qiluvchi oliy ta'limni tijoratlashtirish jarayonini keltirib chiqaradi. Bunda, bozor

munosabatlari nazariyasi va jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, oliy ta'limni tijoratlashtirishning obyektiv shartlangan chegaralari to'g'risidagi qoida umumiy tarzda tan olinadi. Ushbu chegaralarning mavjud bo'lishi, birinchi galda, ijtimoiy institut sifatida oliy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va maqsadlariga bog'liq.

Bizningcha, jamiyatda aholining turmush darajasi, ijtimoiy va kasb yo'nalishi bo'yicha ijtimoiy qatlamlanishining yangi turini shakllantirish jarayoni boshlanganligi bois, buning oqibati sifatida, xo'jalik harakatlarining bozor shakllariga moslashishining turli imkoniyatlari yuz beradi.

Ta'lim ijtimoiy yoki jamiyat boyligini o'zida namoyon qiladi, u jamiyatning barcha a'zolari uchun yuqori darajada ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatdagi vazifalarni hal etish vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim darajasi va sifati, pirovardida, fan-texnika taraqqiyotining joriy etilishi va mamlakat farovonligining oshishi sur'atlarini belgilab beradi.

19.4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish

Oliy ta'lim sohasida sifat ko'p qirrali konsepsiya hisoblanadi. U ta'lim sohasidagi barcha funksiya va faoliyat turlari – o'quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to'liq ta'minlanganlik, ta'lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnika bazasi va jihozlarni, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo'lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.[1]

Ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash ta'lim sifatining asosiy yakuniy sifatidir, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ***insonlar*** – professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim oluvchilar, o'quv-yordamchi faoliyat xodimlari, ma'muriy xodimlar va boshqalar;

– ***texnologiyalar*** – pedagogik, tarbiyaviy, informatsiyaviy, boshqaruv, nazorat qiluvchi va boshqalar;

– ***moddiy-texnikaviy ta'minot*** – binolar, jihozlar, laboratoriya va amaliyot bazasi va b;

– ***rag'batlantirishlar va asoslar;***

[1] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992-yil.

– *tashqi ta'sirlar* – bozor iqtisodiyoti talablari, korxonalar, jamiyat va davlat.

Ta'lim tizimining yuqorida keltirilgan tarkibiy unsurlari, ustunlik qiluvchi omillar majmuini belgilaydi, bular ta'lim va xodimlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir etadi. Mazkur omillar 4-chizmada keltirilgan, unda ta'lim va kasbiy tayyorlov shartli tarzda ko'p o'lchamli tuzilma ko'rinishida berilgan.



4-chizma.

Korxona yoki tashkilot miqyosidagi iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi xususida gapiradigan bo'lsak, bu strategiyaning ham bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bunday strategiyada asosiy masala bo'lib tegishli tarmoq va uning korxona yoki sharoitidagi yangi xo'jalik yuritish tizimida yanada samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash maqsadida ularni tayyorlash, qayta tayyorlashning zamonaviy shakl va usullarini aniq ishlab chiqish hamda amaliyotga samarali joriy etish hisoblanadi.

Bu strategiyaga ko'ra, tarmoqdagi ishlab chiqarish faoliyatining barcha bo'linmalariga istiqbolni to'g'ri baholay oladigan qo'l ostidagi

kishilar bilan hamkorlikda ishlay oladigan va o‘z mutaxassisligi sohasini puxta o‘rgangan rahbar kadrlarni tanlash, shuningdek, ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlari uchun yuqori malakali, vijdonli va har qanday sharoitga moslasha olish qobiliyatiga ega bo‘lgan iqtisodchi mutaxassislarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadlarda iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning turli usul va shakllari strategiyada o‘z ifodasini topadi.

Ma’lumki, har qanday korxona yoki tashkilotda mutaxassislar ishini muvaffaqiyatli tashkil etishda ularni kompleks va tizimli tarzda o‘qitish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi o‘z ichiga barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini qamrab oladigan turli xil o‘qitish shakllarini olishi kerak. Shuning bilan birga mutaxassislarni tayyorlashni doimiy va uzluksiz tarzda amalga oshirishni ta’minlash ham strategiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, alohida tarmoq korxona yoki tashkilotlar miqyosidagi mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasidagi mutaxassislarni malakasini oshirish va o‘qitish shakllarini o‘zida ifodalagan model tasvirlangan.

Ko‘rinib turganidek, bu strategiyada mutaxassislar tayyorlashning aniq shakl va usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, tarmoq, korxona yoki tashkilotlardagi strategiya ham ko‘plab bosqichlarga ega bo‘ladi, biroq imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu bosqichlarga keyingi izlanishlarda to‘xtalib o‘tamiz.

Yuqorida mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasini ikkiga bo‘lib ko‘rib chiqdik. Biroq bu degani, bular bir-biridan alohida rivojlanadigan strategiyalar ekan deb xulosa chiqarishni anglatmaydi. Chunki, har qanday tarmoq, korxona yoki tashkilotdagi bunday strategiyalar, birinchi navbatda, tegishli davlat strategiyalaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga quyidagi bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Mamlakatdagi tarkibiy o‘zgarishlar. Ma’lumki, O‘zbekiston rejali iqtisodiy boshqaruv tizimidan yangi bozor iqtisodiyoti mexanizmi sari intilmoqda. Bu esa, tabiiy ravishda, yangi iqtisodiy shart-sharoitlar va tuzilmalarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda yangicha bilim va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarsiz hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham mamlaka-

timizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilmoqda.

2. Bugungi kunda «mehnat bozori»dagi ishsizlik muammolari. Bu ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonda ham alohida yechim talab qiladigan muammolardan hisoblanadi. O'tish davridagi mamlakatlarda ko'plab sanoat obyektlarining to'liq hajmda ishlash imkoniyatlarining kamayishi, davlatning ko'plab nazorat organlarini qisqartirilishi, shuningdek, yangi obyektlarga aylantirilayotgan korxona mutaxassislarining zamonaviy bilimlarga ega bo'lmasligi oqibatida mehnatga layoqatli ishsizlarning soni ortib boradi. Buning oldini olish uchun esa, bu ishsizlarni qisqa muddatli qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali bozor talablariga mos bilim va tajribalarni oshirishga katta ehtiyoj seziladi.

Iqtisodchi kadrlar, ta'lim oluvchilar va uni ta'minlash uchun zarur resurslar o'quv-tarbiya jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Iqtisodchi mutaxassislar ta'lim xizmatini talab etuvchilar sifatida oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)ning barcha bosqichida ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan shaxs sifatida shakllantiruvchilardir. Davlat ta'lim standartlari va resurslari vositasida ularning sifatli ta'lim olishi va kasbiy tayyorlanishi kafolatlanadi. Ta'lim oluvchilarning vazifasi har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib yetishishlari uchun oliy ta'lim tizimidagi keng imkoniyatlardan foydalanishdan iboratdir.[1]



5-chizma.

[1] Egamberdiyev E., Xo'jamqulov H. Kichik biznes va tadbirkorlik - T.: «Ma'naviyat», 2003. 81-bet.

Oliy ta'lim resurslari quyidagilardan iborat:

– moliyalar (budjet va budjetdan tashqari manbalardan olinadigan);

– moddiy-texnika bazasi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan;

– informatsiya bazasi (darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazma materiallar va jihozlar va h.k.).

O'quv-tarbiya jarayonining sanab o'tilgan komponentlari kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ularning sifati va raqobatbardoshligi ayrim olingan har bir komponentning va umumiy zaminning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

XXI asrga kelib, yangi texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlarda o'sib borayotganligi, hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa, xalqaro internet tizimining butun dunyoni qamrab olayotganligi, mamlakatimizga chet el sarmoyasi orqali rivojlangan mamlakatlarning import asbob-uskunalarini kirib kelayotganligi, shuningdek, korxona va tashkilotlarda yangi talablar asosida boshqaruv va ishlab chiqarish tizimlarini takomillashtirish zaruriyati kabilar yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qilmoqda va boshqalar.

Shunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekistonda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasini jahon talablari darajasida amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday strategiyada birinchi navbatda, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashuvni yanada chuqurlashtirish masalasiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak. Shunday bo'lgandagina, respublikamizda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimidagi sifat kriteriyasini kutilgan darajada rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, mamlakatimiz korxona va tashkilotlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishni, shunga mos ravishda mamlakat makroiqtisodiy o'sishiga erishishni ta'minlaydi.

19.5. Zamonaviy iqtisodchi boshqaruvi va rahbarligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Respublikamizda vujudga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, milliy an'analarimizning o'ziga xos xususiyatlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar uning

maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda iqtisodchi kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, ularning mahoratini yuqori darajaga ko'tarish, kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun qator zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va joriy etishning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'limning barcha bo'g'inlari va darajalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining eng zarur vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini yangilash, ularda o'z faoliyatiga ijodiy yondashishni shakllantirishdir. Bu ish albatta, zamonaviy iqtisodchilarda o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash, kadrlar ishidagi muhim asosiy tomonlarni topib, ulardan ish jarayonida foydalanishlarida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish kadrlar tayyorlash tizimi barcha bo'g'inlarining o'zaro aloqasi va izchilligiga bog'liq. O'qitishning samarali shakl va metodlarini izlab topish, iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik faoliyatini kuchaytirish, ularning mahoratini oshirish shart-sharoitlarini belgilash bugungi kunda hal qilinishi lozim bo'lgan ishlardandir.

Bugungi kunda o'quvchilarni iqtisodchi mutaxassisligiga tayyorlashda tinglovchilarning talab va ehtiyojlari asosida tashkil qilish lozim. Chunki iqtisodchilar ta'lim olish davrida ma'lum bilim, ko'nikma, malakalar va yangiliklarga ega bo'ladilar.

Demak, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida iqtisodchilar tayyorlash ishini rivojlantirish va yuqori darajaga ko'tarish dolzarb vazifalardan biriga aylanishi kerak. Shu sababli ham iqtisodchilarni o'qitishning yuqoridagi yo'nalishlarini amalga oshirish orqali bu sohadagi ishlarning samaradorligini orttirish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirayotgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'zining bir qator ustuvor yo'nalishlari va afzalliklari bilan iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti talablariga javob beradigan zamonaviy yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarning barchasi to'laligicha amalga oshirib bo'linsa, u holda mamlakatimiz

mavqeini ko'tarilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan yetuk malakali mutaxassislar, shu jumladan, iqtisodchi mutaxassislar yetishib chiqadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimizda iqtisodchilar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning bir qator muhim omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlar va tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyotining kengayotganligi.

3. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligining qaror topganligi.

4. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanganligi, boy milliy, madaniy, tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga bo'lgan hurmat e'tiborning oshib borayotganligi.

5. O'zbekistonning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi va boshqalar.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan mutaxassislar tayyorlash tizimining asosiy maqsadi, dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda, shakllanib kelgan ta'lim salohiyatining ijobiy qirralarini takomillashtirish asosida yetuk malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Qisqa xulosa

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, budjetdan moliyalash, iqtisodiy ta'lim muassasalari tomonidan xizmat haqlari to'lanmasligining oshishiga, moddiy-texnik bazaning zaiflashuviga, oliy ta'lim muassasalarini qayta jihozlashning qisqarishiga, zarur o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr qilish, kapital ta'mirlash va qurilish hajmining kamayishiga olib keladi.

Ushbu bobda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, iqtisodiyotda boshqarish tamoyillari, boshqarishning vazifasi, boshqarishda rejalashtirish jarayoni, iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish, zamonaviy

iqtisodchi boshqaruvi, rahbarlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kabilar xususida fikr yuritilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida boshqaruv kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr bildiring.
2. Iqtisodiyotda boshqarish tamoyillari qanday turlarga bo'linadi?
3. Iqtisodchi mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.
4. Boshqarishning vazifasi va boshqarishda rejalashtirish jarayoni qanday omillarga asoslanadi?
5. Iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarishga misollar keltiring.
6. Zamonaviy iqtisodchi boshqaruvi va rahbarligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko'rsating.
7. Oliy ta'lim resurslariga nimalar kiradi?
8. O'quv-tarbiya jarayonining asosiy komponentlarini ko'rsating.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.

2. Н.В.Бордавская, А.А.Реан Педагогика. – М.: Питер, 2004.

Профессионалная педагогика. Учебник для студентов. – М.: Педагогика, 2002.

3. Е.Н. Пронина, В.В.Лукашевич. Психология и педагогика. Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Элит, 2004 г.

4. O'.Tolipov, M.Barakayev, Sh.Sharipov Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.

5. Yo.Abdullayev, F.Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000 y.

6. S.S.G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

XX bob. TADBIRKOR – BOZOR IQTISODINING TAYANCH KUCHIDIR

20.1. Tadbirkorlik – harakatchan va jo'shqin faoliyat.

20.2. Tadbirkor – zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi rahbar.

20.3. Zamonaviy iqtisodchida iqtisodiy harakatlar usulini izlash va tanlash erkinligining mavjudligi.

20.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkor faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlari.

20.1. Tadbirkorlik – harakatchan va jo'shqin faoliyat

Tadbirkorlikning muhim xususiyatlari – uning harakatchanligi va jo'shqinligidir. Tadbirkor o'zining fikri bo'yicha muvaffaqiyatga olib keluvchi yangi harakat usullarini, mahsulot turini va texnologiyani, iste'molchilar doirasini, mahsulot turini va texnologiyani, iste'molchilar doirasini, mahsuloti va ko'rsatadigan xizmatining sifatini yaxshilash yo'llarini tinimsiz qidiradi. Tadbirkor shunday insonki, u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jonlantirib, yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi yoki ishni tashkil etishning takomillashgan usulini yaratadi.

Markazlashtirilgan iqtisoddan bozor iqtisodiga o'tish, venchur kapitali, ma'lumotlar vositalari, bozorlari taraqqiyoti tashabbuskor faoliyat uchun keng imkoniyatlar va erkinlikni ta'minlaydi. Tadbirkorlar yirik byurokratik tashkilotlarning zamon bilan hamnafas qadam qo'yishga qobiliyatsizligini boshqalardan aniqroq ko'ra oladi.

Tadbirkor harakatchanlik, jo'shqinlik, moslashuvchanlik va yangilikka 'intiluvchanlikka asoslangan zamonaviy xo'jalik yuritish usulini amalga oshirib, o'zining mavjudligini eslatib turadi. U axborot to'playdi, xodimlarga rahbarlik qiladi, yangi turdagi mahsulot va xizmat turini ishlab chiqaradi yoki eskisini takomillashtirish yo'llarini izlaydi.

Tadbirkor iqtisod, siyosat, texnika va texnologik huquq, psixologiya va axloq qoidalari kesishgan joyida harakat qiladi va ularning barchasi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lmog'i kerak. Undan tashqari ishbilarmon muvaffaqiyatga erishishi uchun o'tish tajribasiga tanqid

ko‘zi bilan qarashi kerak. Tadbirkor yetarli darajada resurslarga egaman deb, juda kam gapiradi. Ular yo‘q narsani bor qilish va iqtisod etishda yaratishga o‘rganib boradilar.

20.2. Tadbirkor – zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi rahbar

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat tarkibidagi korxonalar hali yetarli darajada o‘zaro raqobatlashayotgani yo‘q. Bunday holni mahsulotni yetkazib berish bo‘yicha shartnomalarni tuzishdagi kamchiliklarda, raqobat darajasining hali yetarli emasligida, iste’molchilar tomonidan buyurtmalarning kechikib berilishida ko‘rish mumkin. Bozor sharoitida korxona va firmalar mustaqil ravishda tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishlari lozim. Davlat tasarrufidan chiqarishning mohiyati – jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning yakka hokimligini tugatishdir. Lekin bozor hukmiga bo‘ysunmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni davlat hal etadi va boshqaradi.

Bozor mexanizmini shakllantirishning iqtisodiy sharoiti bank, birja tizimlarini, korxona bozorini, iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish davlat tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Bank tizimi bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan bir necha turlarga, jumladan, kredit va moliya muassasalariga ajralib ketadi. Keyingi yillarda tashkil qilinayotgan davlat va tijorat banklaridan tashqari ko‘chmas mulkni garovga olish evaziga kredit beradigan «Zaminbank», kommunal xo‘jalik banklari vujudga keldi.

Kelajakda banklar nazorat qiluvchi tashkilotlar bilan teng huquqqa ega bo‘lgan iqtisodiy sherikka aylanib, ularning vazifasi faqat korxonalarni bo‘sh turgan pullarini joylashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki tadbirkorlik va biznes ishlarini amalga oshirish va valutalar bilan savdo qilish kabilarni ham amalga oshirmoqda. Birjalar bozor infratuzilmasining zaruriy elementi sifatida korxonalar faoliyatining samarador bo‘lishini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Hozirgi vaqtda amaldagi tovar, fond, mehnat birjalari mavjud korxonalarni resurslar bilan ta’minlash vazifasini to‘liq o‘z zimmalariga olganlaricha yo‘q.

Bizning nazarimizda, tadbirkorlik va biznes bilan shug‘ullanuvchilarga va bozor munosabatlarini joriy etishga intilayotgan shaxslarga O‘zbekiston davlatining faqatgina huquqiy kafolatini berish kifoya

emas. Shu huquq va kafolatlardan to'la foydalanish uchun shart-sharoit yaratish bugungi kunning bosh masalasidir. Xususiy tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirishga bugun respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida qarashimiz va qonunchilik faoliyatimizda bu sohaga xuddi shu nuqtayi nazardan yondashmog'imiz darkor.

Iqtisodiy salohiyatimiz va daromadimizni yangi bosqichga ko'taradigan yana bir dolzarb vazifa – deyiladi Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida, asosiy muammo va ustun yo'nalish – bu tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, uning sifatini hamda raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish maqsadida iqtisodiyotda tarkibiy-tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishdir.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini topishga intilayotgan har bir mamlakat, o'zini mustaqil deb hisoblagan har bir davlat o'z iqtisodiyotini yetakchi tarmoqlari va yo'nalishlarini belgilab olishi, jahon bozorida raqobatga chidamli mahsulotlarni qanday mablag'lardan ishlab chiqarishi zarurligini va bu mahsulotlarni raqobatlasha olishini qanday qilib ta'minlash yo'llarini aniqlab olishi darkor.

Bu muhim vazifalar xalq xo'jaligining dastlabki ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lgan korxonalar, firmalar va turlicha mulk shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar faoliyatiga, marketing usuli bilan yondashish orqali muvaffaqiyatli hal etiladi.

Samaradorlikni oshirishning rivojlangan mamlakatlarda sinovdan o'tgan eng muhim yo'llaridan biri bu zamonaviy texnologiya va uskunalarni o'rnatish, korxona ishchi va xizmatchilarini, ularning rahbarlari saviyasini, ish uslublarini jahon talablari darajasiga ko'tarish, ishlab chiqarilayotgan kundalik mahsulotni o'z xaridoriga yetkazish va xaridorni qoniqtirishdan iboratdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi eng muhim masala – bu *tadbirkorlik* va *biznesni* rivojlantirish, ularga keng imkoniyat va imtiyozlar tashkil qilib berishdir. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan, shaxsan Prezidentimiz I.Karimov boshchiligida bunday imkoniyatlar yaratildi. Bir qancha qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi, ular tashabbuskor va qobiliyatli ishbilarmon, tadbirkorlar safining ko'payishiga olib keladi va natijada bozor iqtisodiyotiga o'tish ishlari tezlashib ketadi.

Shunday qilib, Respublikamizda tadbirkorlik va biznesni qo'llab-quvvatlashning salmoqli Davlat dasturi ishlab chiqildi. Qisqa muddat ichida ichki bozorni to'ldiradigan va eksport qilinadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik texnologiyalarni joriy etish va shu asosda jahon andozalari talablariga javob beradigan sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini tashkil etishni ta'minlash kerak bo'ladi. Buning uchun:

1. Mavjud ishlab chiqarishlar, korxona va firmalar davlat budjetidan oladigan yordamini keskin kamaytirib, o'zini-o'zi moliyalashtirish va sarmoya bilan ta'minlash.

2. Davlat tomonidan soliqni rag'batlantiruvchi ahamiyati oshirilib, texnikaviy qayta jihozlangan korxonalardan olinadigan soliq me'yorini kamaytirish, tabiiy boylik va zaxiralarimizga, mulkka soliq stavkasini oshirish.

3. Erkin bozor narxlarini tartibga solish, davlatni taqsimotchilik faoliyatini cheklash, ishlab chiqarish – texnika vositalari guruhiga kiradigan tovarlarga davlat buyurtmasini keskin darajada qisqartirish va uni xaridor o'rtasida kelishilgan narx asosida qondirishga qaratilgan davlat tizimi bilan almashtirilishi vazifa qilib qo'yilgan.

Biz bozor iqtisodiyoti tomon ilk qadamlarimizni qo'ydik. Hali aralash iqtisodiyot, moddiy to'kinchilik, taqchillik degan narsalar bo'lmagan, ishlab chiqarish rivojlanib gurkiragan eng ilg'or jamiyat tomon borishimizga qancha vaqt bor, bunday jamiyatga o'tish davrining bosqichlari va qancha davom etishini oldindan aytish qiyin. Shunday ekan, hozirgi kunning asosiy talabi – jamiyatimiz yoshlaridan, qolaversa, har bir fuqarodan uning bozor iqtisodiyoti qonunlarini, ularning O'zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonuniyatlarni ishlab chiqishga tatbiq etishni, pirovard natijada talab darajasida xizmat ko'rsatish va tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning sir asrorlarini bilish kabi vazifalarni shart qilib qo'yadi.

Shunday qilib, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni zamonaviy mutaxassislar bilan ta'minlash istiqbollari kelajakda o'zining ijobiy natijalarini beradi, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, buning uchun mamlaktimizda mustahkam poydevor shakllantirilmoqda.

20.3. Zamonaviy iqtisodchida iqtisodiy harakatlar usulini izlash va tanlash erkinligining mavjudligi

Muammoni yechishning har xil yo'llarini izlash, ularni tanlash va o'zgartirish faqat muqobil spektrning mavjudligiga bog'liq. Bu esa tadbirkorlik va bozor iqtisodiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni belgilab beradi.

Faqat bozor munosabatlari sharoitidagina iqtisodiy kenglikdagi maqsadga muvofiq harakat usulini tanlash erkinligi paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi korxonalarni uzoq va noma'lum davrga mo'ljallangan reja va topshiriqlarni bajarish uchun tashqi muhitga moslashishiga majbur qilar edi. Bozor sharoiti esa korxonalarning birinchi darajadagi diqqat-e'tiborini tezlik bilan tadbirkorlik muhitiga moslashuvga qaratishni talab qiladi.

Tadbirkor faqat bozorda qandaydir mahsulot yoki ish kuchining yetishmasligiga emas, balki ularni haddan tashqari ko'pligiga ham tezkorlik bilan diqqat-e'tiborini qaratadi.

Shuningdek, tadbirkor tashabbuskor kishi bo'lib, ishlab chiqarishga keng spektrdagi yo'nalishlar bo'yicha yangiliklar kiritadi, ya'ni novatorlik g'oyalarini o'zlashtirish, hozirgacha ma'lum bo'lmagan mahsulotlarni yaratish, yangi, istiqbolli resurslarga egalik qilish, kapitalni qo'yish uchun yangi sohalarni tanlash, ilg'or tarmoqlarni rivojlantirish kabilarni amalga oshiradi.

Tadbirkor uchun ijodiy faoliyat xayolning cheksiz parvozi emas, u hamma vaqt aniq muhitda qilinadigan qarorlar bilan bog'liq bo'ladi, sarf-xarajatlarni natija bilan taqqoslash va xo'jalik yuritishning eng kamxarajat yo'llarini topish, bugungi kunning tadbirkori uchun xos bo'lgan xususiyatdir.

20.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkor faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlari

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda hamda rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biror turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum huquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan, mahsulot va olingan daromadga mulkchilik huquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, tadbirkorlik xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan ham uzviy bog'liqdir.

Tadbirkorlik yuqoridan belgilanuvchi qat'iy ruxsat– taqiqlar bilan bog'liq emas. Bu o'z shaxsini ko'rsatishga harakat qilish bilan bog'liq ijodiy faoliyatdir. U ish manfaati uchun o'zini-o'zi tarbiyalash va cheklashga, burch hissi va shaxsiy axloqiy javobgarlikka asoslangan bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati axloqiy burch, tanlash va uning uchun shaxsiy javobgarlik kabi tadbirkorning hayot tarzi va hayotning mazmuniga aylangan tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Tadbirkorning burchi – faqat «veksel bo'yicha, ya'ni haqdorlar oldida «to'g'rilik», o'zining shartnomaviy majburiyatlariga sodiq qolish bo'lmasdan, balki insonning o'z oldida erkin shaxs sifatida his qilishi hamdir.

Qisqa xulosa

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni zamonaviy mutaxassislar bilan ta'minlash istiqbollari kelajakda o'zining ijobiy natijalarini beradi, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, buning uchun mamlakatimizda mustahkam poydevor shakllantirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'p ukladliligi keng qamrovli iqtisodiy muammolar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan iqtisodchi

mutaxassislarga talabning kun sayin ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Shunday ekan, makroiqtisodiyot va davlat boshqaruvi bo'yicha iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi sifat jihatdan qayta tashkil etilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu bobda kasbiy malakaviy tuzilmada ishchi xodimning o'zgarishi, ishlab chiqarish jarayonining asosiy vazifasi, ishchilar ixtisosligini tahlil qilish uslubi, keng qamrovli soha xodimlari va ularga qo'yilgan talablar, xodimlar oliy maktabi kabilar bo'yicha qator ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobda tadbirkorlik harakatchan va jo'shqin faoliyat, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, iqtisodiy harakatlar usulini izlash erkinligi, iqtisodiyotni erkinlashtirish shart-sharoitlari kabilar talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Tadbirkorlik harakatchan va jo'shqin faoliyat.
2. Nima uchun tadbirkor – zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi rahbar hisoblanadi?
3. Zamonaviy iqtisodchida iqtisodiy harakatlar usulini izlash va tanlash erkinligining mavjudligini ko'rsating.
4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlariga misollar keltiring.
5. Tadbirkor qanday talablarga javob berishi kerak?
6. Tadbirkor rahbarda qanday sifat xislatlari mujassamlashgan bo'lishi zarur?
7. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qanday asoslar bor?
8. Tadbirkorlikka xos xususiyatlarni sanab bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Yo.Abdullayev, F.Karimov Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. –T.: «Mehnat», 2000 y.

2. S.S.G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: «Sharq», 2002.

3. L.V.Peregudov, M.X.Saidov Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: «Moliya», 2002.

4. В.Г. Янчевский Менеджмент, маркетинг, бизнес. Деловым людям о предпринимателстве. – М.: 1992.

5. E. Yusupov Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

XXI bob. IQTISODIYOTDA DAVLAT SIYOSATI

21.1.Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotda davlat sektori.

21.2.Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va vazifalari.

21.3.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifasi.

21.4. Globallashuv sharoitida davlat budjeti va uning xarajatlari.

21.5.Zamonaviy iqtisodchining jamiyatda tutgan o'rni.

21.1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotda davlat sektori

Mamlakat rivoji bilan bog'liq shunday sohalar borki, ma'lum sabablarga ko'ra tadbirkorlar va korxonalar o'z mablag'larini bu sohalarga kiritishga shoshilmaydilar. Bunday sohalar odatda ulkan hajmlarda boshlang'ich investitsiyalar kiritishni talab qiladi. Oddiy korxonalarning bunga qurbi yetmaydi. Ko'p hollarda bu sohalar daromadsiz bo'ladi yoki foyda uzoq vaqtlardan keyin qo'lga kiritiladi. Odatda, bu soha xizmatlaridan barcha birdek foydalanadi.

Davlat o'zining va aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati yuritiladi. Ushbu yo'nalish davlat sektorini tashkil etadi. Davlat sektorining xususiyatlari shundaki, bu yerda faoliyat olib boruvchi korxonalar davlat mulki shaklida bo'ladi. Davlat sektorining an'anaviy yo'nalishlariga transport, kommunikatsiyalar va ulardan foydalanish, energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqalar kiradi.

Davlat sektorida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Davlat sektori korxonalarning daromadlari o'z navbatida budjet daromadlariga yo'naltiriladi. Iqtisodiyotning yana shunday tarmoqlari ham borki, masalan, mudofaa bilan bog'liq, ular ham davlat sektorining bir bo'lagini tashkil etadi.

21.2. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va vazifalari

Bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlardagi qonunchilik davlatning iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga yo'l qo'ymaydi.

Bunday sharoitda, davlatning pul-kredit va fiskal siyosatlari uning iqtisodiyotda bilvosita ta'sir ko'rsatishi imkonini beruvchi vositalardandir. Ma'lumki, muomalada bo'lgan pul miqdori bilan iqtisodiy o'sish, bandlik va narxlar darajalari o'rtasida chuqur bog'liqlik mavjud. Pul-kredit, fiskal siyosatlari orqali hukumat nafaqat iqtisodiyotni tartibga solib turadi, balki shu bilan birga muomaladagi pul miqdori, ishsizlik va infratuzilmasining oshib ketishiga qarshi kurashadi.

Pul-kredit siyosati Markaziy bank tomonidan yurgizilib, mamlakatdagi ishlab chiqarishning hajmi, bandlik va narxlar darajasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Pul-kredit siyosati 3 vosita orqali amalga oshiriladi:

1. Markaziy bankning foiz stavkasi.
2. Majburiy zaxiralar siyosati.
3. «Ochiq bozor» amaliyotlari.

Fiskal siyosat ham pul-kredit siyosati kabi iqtisodiy pasayish yoki inflatsiyaga qarshi qaratilgan bo'lsada, uning ta'sir yo'nalishi o'zgachadir. U soliqlar va davlat xarajatlarining o'zgarishi orqali amalga oshiriladi.

Monitar va fiskal siyosati muammolardagi pul miqdorini o'zgartirish orqali iqtisodiy o'sish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va inflatsiyaga qarshi kurashishning faol vositasidir.

21.3.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifasi

Mamlakat rivojlanishining asosiy shart-sharoitlaridan biri takomillashgan boshqaruv kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishidan iborat. Ushbu tizim yuqori darajada rivojlangan jamiyatda umumiy va kasbiy madaniyatli, ijtimoiy va shaxsiy faol bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan odamlarning yangi avlodini shakllantirishi lozim bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan davlatni rivojlantirish milliy modeli kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturning asosi, yadrosi hisoblanadi. Dastur islohotlar uchun me'yoriy, ilmiy poydevor bo'lib, 1997-yildan boshlab qadam-baqadam joriy qilinib kelinmoqda. Ushbu hujjat to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'limni, umuman, yangi, mustaqil turdagi – o'rta maxsus, kasbiy ta'limni, ikkita darajali oliy ta'limni o'z ichiga oluvchi ta'lim tizimi shakli va mazmunini tubdan o'zgartirish imkonini beradi. Kadrlar

tayyorlash milliy modelining mazmuni va o'ziga xos xususiyati tizimning butunligi, unga asosiy tashkil etuvchilar sifatida quyidagi komponentlarni: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'limni, fan va ishlab chiqarishni kiritishdan iborat.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini isloh qilish o'z ichiga uzoq davr – islohotlarning strategik yo'nalishlarini aniqlashdan to ularni tugallashgacha bo'lgan davrni oladi va u bir qator qonuniyatlarning namoyon bo'lishi bilan sodir bo'ladiki, ularni bilish bu jarayonni boshqarish imkonini beradi.

Ilm-fanga, fuqarolarning ta'lim darajasini oshirishga berilayotgan e'tibor bu sohadagi davlat siyosati qay darajada olib borilayotganligi va uning samaradorligini, pirovard - natijada shu mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradi. Buni chuqur anglab etgan respublikamiz rahbariyati umumta'lim, shuningdek, oliy ta'lim tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishdi.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan noaniqliklar va doimiy o'zgarishlarga moslashish uchun yoshlar strategik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida ishbilarmonlik ta'limini egallashi kerak.

Ijtimoiy, ishlab chiqarish va boshqaruv munosabatlarining tubdan o'zgarishi, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ishbilarmonlik ta'limi ko'rinishidagi, iqtisodiyot va aholi ehtiyojlarini, kadrlarning kasbiy ixchamligini ta'minlovchi qo'shimcha ta'lim o'quv muassasalari tizimini barpo etishni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonning iqtisodiy vazifalarini hal qilishga qodir bo'lgan boshqaruv kadrlar bo'g'inini mustahkamlash, jamiyatning ijtimoiy tarkibini yangilash va bozor islohotlarini chuqurlashtirish maqsadida davlat organlarining boshqaruv tuzilmalari va jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorligini takomillashtirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday ta'kidladi: «Biz kichik biznes uchun o'z kasbining ustasi bo'lgan savodli boshqaruvchi kadrlarni tayyorlashni tashkil etish masalalariga alohida ahamiyat beramiz».

Bizningcha, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqaruv kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash uchun ularni tayyorlashning yanada samarali dasturini ishlab chiqish zarur. Mazkur dastur kasbiy ishbilarmonlik ma'lumotiga ega bo'lishni istovchilar soni o'sishining istiqbolli tendensiyalarini hisobga

olishi va keng ixtisosli tadbirkorlarni tayyorlashning turli shakllaridan foydalanishning kengayishini ko'zda tutishi kerak. Bundan tashqari, 2011-yildan keyin O'zbekistonda kadrlar tayyorlashga qanaqa yangi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkinligini nazarda tutish darkor.

Shunday qilib, boshqaruv kadrlarni tayyorlashning ta'lim darajasi va sifati bilan ulardan foydalanish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim-tarbiya jarayonida boshqaruv kadrlarni tayyorlashning eng samarali shakllarini tanlash ulardan oqilona foydalanishning muhim sharti hisoblanadi. Bu boshqaruv kadrlarni tayyorlashning tarmoq va kasbiy tamoyillarini uyg'unlashtirish zaruratini nazarda tutadi.

21.4. Globallashuv sharoitida davlat budjeti va uning xarajatlari

Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, davlatning bir yilga mo'ljallangan daromadlari va xarajatlarining moliyaviy rejasidir. Uni ma'lum ma'noda davlatning «cho'ntagi» desa ham bo'ladi. U mohiyatiga ko'ra qayta taqsimlash dastagi bo'lib, budjet tizimi orqali korxona va aholi daromadlarining bir qismi soliqlar orqali yig'ishtirib olinib, davlat xarajatlari ko'rinishida tegishli maqsadlarda qayta taqsimlanadi.

Davlat budjeti ikki qism – daromadlar va xarajatlardan iborat. Budjetning daromadlar qismi asosan soliq to'lovlari hisobidan shakllantiriladi. Jamlangan daromadlar esa, xarajatlar orqali davlat vazifalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Davlatning siyosiy tizimiga mos ravishda unitar mamlakatlar budjeti ikki bo'g'indan iborat markaziy va mahalliy budjet. Federal tizimdagi davlatlarda markaziy, ya'ni federatsiya budjeti, federatsiya asosi va mahalliy budjet tartibi joriy qilinadi.

Budjet yili odatda, 1-yanvardan 31-dekabrgacha davom etib, kalendar yiliga mos bo'ladi. Ayrim mamlakatlarda tarixiy, siyosiy yoki mavzumiy sabablardan kelib chiqib, budjet yili aprel, sentabr yoki oktabrning 1-kunidan boshlanadi.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida chuqur bog'liqlik bor. Bu ikki bir-biriga mos bo'lgan taqdirdagina muvozanatlashgan budjet deb aytiladi. Aksariyat hollarda, davlat vazifalarining muttasil kengayishi natijasida, budjetning xarajat qismi daromadlardan oshishi yuz berishi mumkin. Bunda budjetda kamomad paydo bo'lib, bu holat davlat qarzlarining ko'payishiga olib keladi. Demak, davlat budjeti

kamomadiga barham berish uchun, eng avvalo, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farqni bartaraf etish zarur.

21.5. Zamonaviy iqtisodchining jamiyatda tutgan o'rni

Mamlakatimizda amalga oshirayotgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'zining bir qator ustuvor yo'nalishlari va afzalliklari bilan iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti talablariga javob beradigan zamonaviy yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarning barchasi to'laligicha amalga oshirib bo'linsa, u holda mamlakatimiz mavqeini ko'tarilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan yetuk malakali mutaxassislar, shu jumladan iqtisodchi mutaxassislar yetishib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizdagi iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning bir qator muhim omillari mavjul bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi.
2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlar va tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xom-ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyotining kengayotganligi.
3. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligining qaror topganligi.
4. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanganligi, boy milliy, madaniy, tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga bo'lgan hurmat e'tiborning oshib borayotganligi.
5. O'zbekistonning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi va boshqalar.

Umuman olganda, mamlakatimizda amal qilayotgan mutaxassislar tayyorlash tizimining asosiy maqsadi, dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda, shakllanib kelgan ta'lim salohiyatining ijobiy qirralarini takomillashtirish asosida yetuk malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlashdir.

Qisqa xulosa

Davlatning kadrlar tayyorlash tizimidagi umumiy funksiyalari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: kadrlar tayyorlash va ularga bo'lgan talabning kafolatini ta'minlash, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishdan iborat. Oliy ta'lim sohasida esa davlatning funksiyalari quyidagilardan iborat: ***birinchidan,*** o'quv rejalarini standartlashtirish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni sertifikatlash; ***ikkinchidan,*** oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyalash va akkreditatsiyalash orqali ular faoliyatining sifatini nazorat qilish yo'li bilan tegishli davlat organlari orqali ta'lim xizmatlarining sifatiga va tarkibiga baho berishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, ushbu bobda iqtisodiyotda davlat sektori, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, davlat budjeti, xarajatlari, iqtisodchi va uning jamiyatda tutgan o'rni atroflicha yoritilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Iqtisodiyotda davlat sektori haqida gapiring.
2. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni va vazifalari qanday bo'lishi kerak?
3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifasi nimadan iborat?
4. Davlat budjeti va uning xarajatlari haqida fikr bildiring.
5. Zamonaviy iqtisodchining jamiyatda tutgan o'rni qanday bo'lishi kerak?
6. Daromad va xarajat deganda nimani tushunasiz?
7. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligining qaror topganligi nimalarda namoyon bo'ladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. S.S. G'ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Sharq», 2002.

2. Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002.

3. D.Tojibayeva Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi – T.: «Fan va texnologiya», 2007.

4. E.Xo'jayev, R.Yunusova, E.Rajabov va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – Samarqand, 1997.

5. E.Egamberdiyev, H.Xo'jamqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: «Ma'naviyat», 2003.

6. Бордавская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – М.: Питер, 2004.

Профессионалная педагогика. Учебник для студентов. – М.: Педагогика, 2002.

7. Пронина Е.Н, Лукашевич В.В.. Психология и педагогика. Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Элит, 2004 г.

8. O'.Tolipov, M.Barakayev, Sh.Sharipov Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.

GLOSSARIY

Aksiologiya – qadriyatlar to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

Aksiologik yondashuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo‘lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o‘zaro aloqadagi ham o‘zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik, pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig‘ish jarayoni.

Axborotli malaka – ta’lim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me’yorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o‘z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

Davlat ta’lim standarti – uzluksiz ta’limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta’lim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Yevropa Ittifoqi (EI) — G‘arbiy Yevropaning 25 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Jahon bahosi – talab va taklif egri chiziqlari ta’sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta’sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo‘ladi.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi XIM subyektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsi-yalar)ning o‘zaro iqtisodiy ta’sirlashish global muhitidir.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) — BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosida sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Innovatsion faoliyat — nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) —intellektual faoliyat natijalari ayirboshlash xalqaro sohasi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va talabaning o'zaro zich ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayirboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

Ko'nikma – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatidir.

Laboratoriya ishi – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Ma'ruza – odatda oliy o'quv yurtida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

Malaka – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mafkura – g'oya va qarashlar tizimi.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining kichik faoliyat mazmuni.

Muammoli o'qitish – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va talabalarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik malaka – muayyan toifdagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim-tarbiya metodlarini u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Erkin iqtisodiy hududlar – mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya'ni – bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESH) — preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya qilinadi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) — ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

«Yangi industrial mamlakatlar» («YaIM») — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2009.– 40 b.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta’lim Me’yoriy hujjatlari. –T.: «Sharq», 2001. – B. 18-52.

3. «Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta’lim Me’yoriy hujjatlari . – T.: «Sharq», 2001. – B. 3-18.

4. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-fevraldagi PQ-1717-son Qarori.

5. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi. – 15.06.2005. – №139.

6. Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi. – 15.06.2005. – №112.

7. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 7-iyundagi Qarori // Xalq so‘zi gazetasi. – 08.06.2002. – №108.

8. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli Qarori // Ma’rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.

9. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun darsliklar va o‘quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 341-sonli Qarori // Ma’rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.

10. 2010-yilgacha bo‘lgan davrda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi pedagog va muhandis pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli Qarori // Ma’rifat gazetasi. – 05.10.2001. – №221.

11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 173 b.

12. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O‘zbekiston». 2012 y. -440 b.

13. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, №14 (5434) 20-yanvar 2012-yil.

14. «Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir». Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, № 238, 8-dekabr 2011-yil.

15. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. //Xalq so'zi. 2011-yil 1-sentabr.

16. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2.12.2010 y.

17. Подласый И.П. Педагогика: Учебник. – М.: Юрайт.-Издат, 2009.

18. Пронина Е.Н., Лукашевич В.В. «Психология и педагогика». Учебник для студентов ВУЗов. – Москва: Издателство «Элит», 2004.

19. Педагогика профессионального образования. Под. ред. В.А.Сластенина. – Москва: «Академия», 2004.

20. «Педагогика» В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, А.И.Мищенко, Е.Н.Шиянов. – Москва: «Школьная пресса», 2004.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010. – 340 b.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma: Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliyev. – T.: TDIU, 2009. – 120 b.

23. B.Yu.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov, U.V. G'afurov Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashning ilmiy va nazariy asoslari. Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2008. – 57 b.

24. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: «Mehnat», 2000. – 349 b.

25. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: «Sharq», 2002.

26. Tojiboyeva D., Xo'jayev N. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 255 b.

27. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma –T.: «Fan va texnologiya», 2007. – 511 b.

28. Бакирова Г.Х. Психология еффективного стратегического управления персонолом: усеб.пособие.– М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.

29. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иштисодиёти. Т.: 2002. – 191 б.

30. Подласый И.П. Педагогика: Учебник. – М.: Юрайт.-Издат, 2009.

31. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi. – T.: «Moliya», 2003. – 181 b.

32. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya», 2002. – 444 b.

33. Hakimova M.F. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. O'quv qo'llanma. – T.TDIU, 2007. – 154 b.

34. Xo'jayev N., Hasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika. –T.: TDIU, 2002. - 127 b.

35. Rahimov B.H va b. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. – T.: «Fan va texnologiya», 2009.

36. Abdalova S, Mavlyanov A. Mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasi.–T.: «Fan va texnologiya», 2009.

37. Бекмурадов А.Ш, Голиш Л.В и др. Современные технологии обучения.–Т.: ТГЭУ, 2009 г.

38. Ходжиева К.Н. Проектная технология обучения в вузе. - Т.:ТГЭУ,2009.

39. Инвестиции Республики Узбекистан 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009. – 148 с

40. Промышленность Республики Узбекистан, 2009. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2007, 156 с.

41.Сельское хозяйство Узбекистана 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009, 160 с.

INTERNET manbalari

www.bilimdon uz. -O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.

www.de.uz-Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt.

www.plekhanov.ru.-Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.

www.tgeu.uz.-TDIU veb sayti.

www.tatu.-TATU veb sayti.

www. pomorsu.ru.

www. MTU-NET.ru.

www. bankreferatov.ru.

www. mgopu.ru.

www.glef.org. Djordj Lukasning Ta’limning fondi.

www.newhorizons.org. Ta’limning yangi ufqlari.

www.thelearningweb.net. Ta’lim tarmog‘i.

www.inetlibrary.com. Internet-kutubxona

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I bob. «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari
1.1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va zamonaviy kadrlarga qo'yilgan talablar..... 6
1.2.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining predmeti..... 8
1.3.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining fan sifatida shakllanishi..... 8
1.4.«Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» fanining maqsad va vazifalari..... 10

II bob. Tadbirkorlik va kichik biznesning mohiyati
2.1. Tadbirkorlik va kichik biznes to'g'risida tushuncha..... 12
2.2. Tadbirkorlik va biznes tarixi..... 14
2.3. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni..... 16
2.4. Kichik biznesda tadbirkorlik taraqqiyotining sabablari..... 19
2.5. Kichik biznesda tadbirkorlik turlari va shakllari..... 19

III bob. Tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy asoslari
3.1. Korxona (firma) tadbirkorlikning boshlang'ich bo'g'ini..... 23
3.2. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlikning huquq va majburiyatlari..... 24
3.3. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari..... 27
3.4. Yakka va xususiy tadbirkorlik..... 29
3.5. Jamoa tartibidagi va aralash tadbirkorlik..... 31

IV bob. Kichik biznesni taraqqiyot topishida MDH, Vatanimiz va xorijiy davlatlarning tajribalari
4.1. MDH mamlakatlarida kichik biznesning rivojlanishi..... 34
4.2. Yaponiya va G'arb davlatlarida tadbirkorlik..... 37
4.3. Tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyot topishida MDH va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari 38

4.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida Vatanimizda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi..... 41

V bob. Globallashuv sharoitida tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o'rni

5.1. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati..... 49
5.2. Tadbirkorlik va kichik biznesning davlat tomonidan himoya qilinishi..... 52
5.3. Kichik biznesda tadbirkorning faoliyati..... 52
5.4. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni..... 53
5.5. Tadbirkorlik tamoyillari..... 55

VI bob. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili

6.1. Zamonaviy iqtisodchiga xos xususiyatlar..... 58
6.2. Tadbirkor – iqtisodiy resurslarni birlashtiruvchi..... 61
6.3. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch..... 62
6.4. Zamonaviy iqtisodchi faoliyatining tahlili..... 63

VII bob. Zamonaviy iqtisodchi va uning kasbiy hamda axloqiy xususiyatlari

7.1.Zamonaviy iqtisodchining kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar..... 72
7.2.Zamonaviy iqtisodchining fan, madaniyat va hozirgi zamon texnologiya yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi..... 73
7.3.Zamonaviy iqtisodchining axloqiy, ma'naviy xususiyati..... 74
7.4.Zamonaviy iqtisodchida axloq me'yorlari..... 77
7.5.Biznesmenning axloq kodeksi..... 79

VIII bob. Zamonaviy iqtisodchining etikasi

8.1. Odob va axloq haqida tushuncha..... 82
8.2.Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida zamonaviy iqtisodchi odobining o'ziga xos tomonlari.... 83
8.3.Iqtisodchining asosiy axloqiy qoidalari..... 84
8.4. Zamonaviy iqtisodchining etikasi..... 85
8.5. Zamonaviy iqtisodchining nufuzi..... 87

IX bob. Ishchi-xizmatchilarni o'qitish. O'qitishning qoida va uslublari
9.1. Ishchi-xizmatchilarni o'qitish shakli va turlari..... 90
9.2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash usfubi..... 91
9.3. O'qitish dasturlari va ularning tahlili..... 94
9.4. Iqtisodchi kadrlar kasb bo'yicha o'sishining o'zaro bog'liqligi..... 95

X bob. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta'minlash muammolari
10.1.Iqtisodchi kadrlarni tanlashdagi ichki va tashqi chegara.... 101
10.2. Korxona va firmaning mehnat rezervlari..... 104
10.3. O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida iqtisodchi kadrlarni ish bilan ta'minlash va mehnat shartnomasini tuzish..... 104
10.4. Vazifalarning mansabga ko'ra taqsimlanishi..... 106
10.5. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodchi kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish usullari..... 106

XI bob. Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish
11.1. Zamonaviy iqtisodchining shaxsiy fazilati..... 109
11.2. Iqtisodchining sheriklari bilan o'zaro aloqasi..... 110
11.3. Zamonaviy iqtisodchining umumijtimoiy sifatlari..... 110
11.4. Globallashuv sharoitida zamonaviy iqtisodchida shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish yo'llari..... 111

XII bob. Mehnatni rag'batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
12.1.Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga qo'yiladigan talablar..... 115
12.2. Iqtisodchini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tartibi... 116
12.3. Zamonaviy iqtisodchi mehnatiga haq to'lashning ijtimoiy, ma'naviy va moddiy asosi..... 117
12.4. Zamonaviy iqtisodchi mehnatini rag'batlantirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 118

XIII bob. Boshqaruv odobi va uning o'ziga xos tomonlari
13.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkor-rahbar faoliyatiga qo'yiladigan talablar..... 120
13.2. Boshqaruv odobi haqida tushuncha..... 121
13.3. Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish..... 122
13.4. Zamonaviy iqtisodchinig asosiy axloqiy qoidalari..... 123

XIV bob. Kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir etuvchi omillar
14.1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va kadrlar tayyor-lashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar..... 126
14.2. Zamonaviy iqtisodchi kadrlarni kasbiy o'qitish va uning shakli..... 130
14.3. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesda kadrlar siyosati 135
14.4. Kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi omillar..... 136

XV bob. Zamonaviy iqtisodchining ma'naviyati
15.1.Zamonaviy iqtisodchida adab fazilatlari majmuasining mavjudligi..... 140
15.2.Iqtisodchining o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan madaniyati..... 141
15.3.Ishchi-xodimlarni qabul qilish, kengash va majlislarni olib borishdagi madaniyat..... 142
15.4.Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida iqtisodchi shaxsiga xos sifatlar va iqtisodchining ma'naviyati..... 143

XVI bob. Mutaxassisning o'zini-o'zi tarbiyalashi va boshqaruvning nazariy asoslari
16.1. Boshqaruv nazariyasi va boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi..... 147
16.2. Zamonaviy iqtisodchining o'z-o'zini tarbiyalashi jara-yoni..... 148
16.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy boshqaruv va uning tamoyillari..... 148
16.4. Boshqaruv tamoyillari va uslubi..... 149

XVII bob. Zamonaviy iqtisodchining mijozlar bilan munosabati
17.1.Zamonaviy iqtisodchining sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabati..... 152
17.2.Tadbirkorning ishchilar bilan jamoadagi o'zaro munosabati..... 153
17.3.Zamonaviy iqtisodchining xizmat yuzasidan mijozlar bilan munosabati..... 154
17.4. Mijozlarni qabul qilishda zamonaviy iqtisodchining madaniyati..... 155

XVIII bob. Zamonaviy iqtisodchida milliy ongni tarbiyalash
18.1.G'oya – inson tafakkurining mahsuli..... 157
18.2.O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi..... 158
18.3. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy iqtisodchida milliy ongni tarbiyalash..... 159
18.4. Zamonaviy iqtisodchiga xos ijtimoiy sifatlar 160

XIX bob. Iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish va ularga rahbarlik qilishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari
19.1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruv kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari... 163
19.2.Iqtisodiyotda boshqarish tamoyillari..... 167
19.3.Boshqarishning vazifasi va rejalashtirish jarayoni..... 169
19.4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish..... 172
19.5.Zamonaviy iqtisodchi boshqaruvi va rahbarligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati..... 176

XX bob. Tadbirkor – bozor iqtisodining tayanch kuchidir
20.1.Tadbirkorlik – harakatchan va jo'shqin faoliyat..... 180
20.2.Tadbirkor – zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi rahbar..... 181
20.3.Zamonaviy iqtisodchida iqtisodiy harakatlar usulini izlash va tanlash erkinligining mavjudligi..... 184
20.4. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida tadbirkor faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlari..... 184

XXI bob. Iqtisodiyotda davlat siyosati

21.1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotda davlat sektori..... 187
21.2.Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va vazifalari..... 187
21.3.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifasi..... 188
21.4. Globallashuv sharoitida davlat budjeti va uning xarajatlari..... 190
21.5.Zamonaviy iqtisodchining jamiyatda tutgan o'rni..... 191

Glossariy..... 194
Foydalanilgan adabiyotlar 198

HAKIMOVA MUHABBAT FAYZIYEVNA
YULCHIYEVA GULNORA TULKUNOVNA

ZAMONAVIY IQTISODCHINING SHAXSI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2014

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 03.10.2014.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 12,75. Nashriyot bosma tabog'i 13,0.
Tiraji 300. Buyurtma № 158.

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.